

# Journal of New Century Innovations

VOLUME  
**17**  
ISSUE-3



Journal of new century innovations

Exact and natural sciences



Pedagogical sciences

Social sciences and humanities

Engineering and Medical Sciences

ISSN (p): 2181-3671  
ISSN (e): 2181-368X



Google Scholar



[newjournal.org](http://newjournal.org)



**JOURNAL OF NEW CENTURY  
INNOVATIONS**

**VOLUME - 17 | ISSUE - 3**

**NOVEMBER - 2022**



**GIMNASTIKA VOSITALARINI QO'LLAGAN HOLDA MAHALLALARDA  
WORK OUT MAYDONCHASIDA JISMONIY TARBIYA  
MASHGULOTLARINI TASKIL ETISH USULLARI**

*Turg'unov Shaxboz Uyg'un o'g'li*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola “Gimnastika vositalarini qo'llagan holda mahallalarda Work out maydonchasida jismoniy tarbiya mashgulotlarini taskil etish usullari” haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Gimnastika, mashg'ulotlar, sport, tizim, ta'lim

Workout (ingliz. Workout ['wə kaut] "trening") ko'cha gimnastikasi bo'lib, havaskor sport turi, jismoniy tarbiya (fitnes) deb tasniflanishi mumkin va sport submadaniyati hisoblanadi. U turli xil mashqlarni ochiq sport maydonchalarida, ya'ni gorizontal barlar, panjaralar, devor panjaralari, tutqichlar va boshqa inshootlarda yoki ularni umuman ishlatmasdan (erda) bajarishni o'z ichiga oladi. Asosiy e'tibor o'z vazningiz bilan ishlash va kuch va chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan. Bunday sportni yaxshi ko'radigan odamlar o'zlarini boshqacha chaqirishadi: ko'cha (hovli) sportchilari yoki sportchilar, ko'cha gimnastikachilari, turniketlar va boshqalar.

Ko'rsatkich 2023 yilda 24, 2024 yilda 26 va 2025 yilda 30 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan. Quyida viloyat sportni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i Shuhrat Ro'ziyev yuqoridagi rejalar va viloyatda sportni rivojlantirish borasidagi ishlarning bugungi ahvoli haqida so'z yuritadi.

Bugungi kunda Samarqand viloyatida 32 ta sport ta'lim muassasasi, 2 ta olimpiya va paralimpiya kolleji, 4 ta ixtisoslashtirilgan sport maktabi, 24 ta bolalar-o'smirlar sport maktabi, 1 ta futbol mahorati maktabi faoliyat olib bormoqda. Mazkur inshootlarda 1149 nafar trener-o'qituvchi 50 sport turi bo'yicha 33 ming 625 nafar yoshlarga mashg'ulot o'tyapti.

2021 yil 5 noyabrdagi “Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va “Workout” sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident qarori hamda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivoji uchun muhim vazifalar belgilab berilgan edi.

Viloyatda o'tgan davr mobaynida ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash va aholining ommaviy sportga jalb qilish ko'lamini oshirish maqsadida 82 kilometr salomatlik, 75 kilometr velosiped yo'laklari, 63 ta mini-futbol, 34 ta badminton, 323 ta “Workout”, 47 ta stritbol maydonchalari foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, 2022 yil 11 apreldagi “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident qaroriga

asosan, viloyatdagi 1126 mahallada 7 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida sportning to'qqiz turi bo'yicha besh bosqichli sport musobaqalari o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Ushbu ommaviy sport musobaqalarida viloyatimizdan 282 ming 989 nafar, ya'ni yoshlarning 17 foizi qamrab olindi. Turnir natijasiga ko'ra, yoshlarimiz mazkur musobaqaning respublika bosqichida ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Qayd etish kerakki, joriy yilning birinchi yarim yilligida viloyatimiz sportchilari jahon, xalqaro, Osiyo va O'zbekiston birinchiliklarida munosib ishtirok etib, 1184 medalni qo'lga kiritdi. Shundan jahon chempionatida 8 ta, xalqaro turnirda 31 ta, Osiyo musobaqalarida 10 ta, O'zbekistondagi bahslarda 1133 ta medal vakillarimizga nasib etdi.

Hozirda viloyatimizdan 2024 yil Parijda o'tkaziladigan olimpiya va paralimpiya o'yinlariga 9 sport turi bo'yicha 23 nafar sportchi, paralimpiya bo'yicha 4 nafar sportchi va 2 ta parasport turi bo'yicha nomzod sifatida saralab olingan sportchilarimiz tayyorgarlik mashg'ulotlarida qatnashmoqda.

Sportchilarimiz joriy yilning 9-18 avgust kunlari Konya shahri (Turkiya)da Islom Birdamlik o'yinlarida, 10-28 dekabr kunlari Shantau shahri (Xitoy)da o'smirlar o'rtasida yozgi Osiyo o'yinlarida ishtirok etadi.

Viloyatda yil oxirigacha 881 ming 945 nafar, ya'ni aholining 22 foizi sportga qamrab olinadi. Bu ko'rsatkich 2023 yilda 24, 2024 yilda 26 va 2025 yilda 30 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan. Gimnastika maydonchasi – gimnastik mashg'ulotlari o'tkaziladigan maxsus jihozlanib, kōkalamzorlashtirilgan er uchatkasi. Maydonchaniing ōlchamlari 40x26 m\*. maktab ōquvchilari bilan mashg'ulot o'tkaziladigan maydoncha kichikroq (35x25 m) bōlishi ham mumkin. Bunday maydonchani maktab uchastkasida, stadionda, istirohat bog'ida yoki turar joylarda shug'ullanuvchilar ōz kuchi bilan jihozlab olsalar ham bōladi. Maydonchada gimnastika shaharchasi quriladi. Shaharchada, odatda barcha asosiy sport anjomlari, ayniqsa osib qōyiladigan va mustahkam ōrnatilgan jihozlarni, bitta majmua qilib birlashtirilgan loyihadan iborat bōladi. Bir uchi erga kōmilgan, balandligi 4,5-6,0 m, yog'och ustunga yoki temir tirgovuchlarga mahkamlab qōyilgan gorizontāl tōsinlarga halqalar, arqonlar, langarchōplar, gimnastika devorchalari, past va baland yakka xodalar va boshqalar ōrnatib qōyiladi. Boshqa (kōchma) sport anjomlari maydonchaga yuqoridagi tavsiyalarni hisobga olib ōrnatiladi. Sakrash uchun va jihozlardan sakrab erga tushish uchun ōlchami kōapincha 2x3 m. keladigan chuqur kovlab, uning 3 4 qismiga toza qum aralashtirilgan qipiq solib qōyiladi. Shuningdek yurish va yugurish yōlkasi, kōchma jihozlar, ashyolar, yog'ochlar, kōprikchalar vahokazolar saqlanadigan shiypon yoki xona hamda muzika asboblari, dam oladigan ōrindiqlar saqlanadigan shiypon ham bōlishi darkor. Undan tashqari Workout (ingliz. Workout ['wə kaut] "trening") ko'cha gimnastikasi bo'lib, havaskor sport turi, jismoniy tarbiya (fitnes) deb tasniflanishi mumkin va sport submadaniyati hisoblanadi. U turli xil mashqlarni ochiq sport maydonchalarida, ya'ni gorizontāl barlar, panjaralar, devor panjaralari, tutqichlar va boshqa inshootlarda yoki



ularni umuman ishlatmasdan (erda) bajarishni o'z ichiga oladi. Asosiy e'tibor o'z vazningiz bilan ishlash va kuch va chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan. Bunday sportni yaxshi ko'radigan odamlar o'zlarini boshqacha chaqirishadi: ko'cha (hovli) sportchilari yoki sportchilar, ko'cha gimnastikachilari, turniketlar va boshqalar. Bolalar gimnastika maydonchasida esa turli yoshdagi bolalarga mōljallangan sport anjomlari kōproq bōlishi, ular ichida tirmashib chiqish va oshib ōtish, muvozanat saqlash mashqlar, turli ōyin va estafetalar uchun kerakli jihozlar ham bōlishi kerak. Gimnastika maydonchasida guruh bōlib umumrivojlantiruvchi mashqlar, erkinmashqlar va boshqa xil mashqlar bajaradigan joy bōlishi maqsadga muvofiq bōladi. Gimnastikaning taraqqiyoti yo`nalishlarini muntazam kuzatib, tahlil etib borish oliy malakali gimnastikachilarni tayyorlashning samarali tizimini, ularni "konveyer" usulida etkazib berish texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish uchun zarur shart sanaladi. Zamonaviy gimnastika qaerga ketayotganligini anglab etish uchun jaxon sportining rivojlanish yo`nalishlarini bilish lozim. Ulardan eng muhimlari quyidagilar: - yuqori sport natijalarining asosiy va e`tiborini oshirish; - sport-texnik natijalarning o`shishi; - yuksak sport unvonlari uchun raqobatning keskinlashuvi. Mazkur yo`nalishlarning rivojini ta`minlovchi tizimli omil sifatida katta sportga jiddiy moddiy mablag`larning jalb etilishini ko`rsatish mumkin. Olimpiada o`yinlari va boshqa yirik halqaro turnirlar ommaviyligining o`shishi reklama beruvchi hamda xomiylarning sportga katta mablag`lar qo`yishga sabab bo`ladi. Biroq xar xil sport turlarida xomiylikning miqiyoslari turlicha. Garchi jahonda gimnastikaning ommaviyligi ortib borayotgan bo`lsada, lekin moliyaviy mablag`larni jalb etish va xomiylik nuqtai nazaridan uni futbol, xokkey yoki tennis bilan taqqoslab bo`lmaydi. Yuqorida ko`rsatib o`tilgan asosiy yo`nalishlarning o`zaro ta`siri yo`nalishi oqibatlarining paydo bo`lishi hamda rivojlanishini belgilaydiki, ular ko`pincha yaqqolroq ifodalangan bo`ladi. Ularning birgalikda amal qilish natijasi sifatida katta sportda musobaqa va mashg`ulot faoliyatining murakkablashuvi, shu jarayonda yuqori malakali sportchilarni tayyorlashning barcha halqalarida oddiy mehnatning og`ir mehnat tomonidan surib chiqarilishi yuz beradi. Sport gimnastikasi katta sport yo`nalishlariga muvofiq rivojlanadi, lekin o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. ↑ Grishchenko N., Kodentsov E. Ukrainada sigaret va pivoga alternativa paydo bo'ldi - street workout. Tafsilotlar. "Inter" telekanali (2011). Olingan: 2013 yil 25 sentyabr.
2. ↑ Kuslikis T. Gannibal King va Denis Minin uchun Ultimate Freestyle Gimnastika Bellashuvida L. Adrenalin zarbasi (blog) (2012). 2013-yil 11-oktabrda olindi. Asl nusxadan 2013-yil 9-aprelda arxivlangan.
3. ↑ Rossiya harbiylari CrossFit va Workoutni o'zlashtiradilar. "Harbiy-sanoat kuryeri" (2015 yil 24 dekabr). Kirish sanasi: 2016 yil 15 yanvar.

## AGGRESSIVE AS A CHARACTER TRAIT AND PERSONALITY PROPERTY

*Bogirova Madina Nodirovna*

*Samarkand state institute of foreign languages*

*2<sup>nd</sup> year student of the master department*

### Abstract

As we know that over the past decade, aggression has become the subject of research both native and foreign by philosophers, psychologists and linguists. In the psychological literature, aggression is traditionally considered as an individual or collective behavior aimed at causing physical or psychological harm, damage, or destruction of another person or group of people

**Keywords:** trait, aggression, personality, aggressive reaction, aggressive behaviour.

In modern psychology, the concept of "aggression", in addition is distinguished to the concept of "aggressiveness". Scientists usually consider aggression as separate actions, deeds, and aggressiveness as a relatively stable personality trait, expressed in readiness for aggression, as well as in a tendency to perceive and interpret the behavior of another as hostile.

Studies by native and foreign psychologists show that aggressiveness is an integral feature of the personality of every person, but its manifestations are different - from minor emotional "outbursts" that are harmless to others to the commission of the most serious crimes. Most people are characterized by the so-called moderate aggressiveness - "the quality is more positive than negative", because in life there are many situations where the manifestation of the proper degree of aggressiveness is necessary. For example, the need to protect the weak or defend their rights, which is a situational aggressive reaction.

When people characterize someone as aggressive, they might say that he usually insults others, or that he is often unfriendly, or that he, being strong enough, tries to do things his own way, or maybe that he stands firm his convictions, or, perhaps, without fear, he plunges into the maelstrom of unresolved problems [1.451].

The well-known domestic researcher of aggression G. M. Breslav believes that aggressiveness is laid down in childhood, becomes a stable character trait and persists throughout a person's later life. Certain internal prerequisites that contribute to the manifestation of aggressiveness are formed already at preschool age [2.15].

In his monograph on the problem of aggression, Nalchajyan A. A. gives the following formulation of this term: "Aggressiveness can be defined as a stable attitude,

position, readiness to commit aggressive actions. Aggressiveness in the sense of an aggressive character is expressed in aggressive actions, discontent, hostility, etc.” [3. 25 - 26].

Y. M. Antonyan understands aggressiveness as a trait of a person, group or state and aggression as a corresponding behavior [4.10].

Y. Cialdini another researcher of the phenomenon of aggression characterizes aggressiveness as behavior with the intention of expressing one's superiority or self-confidence [5. 54].

A. D. Solovyova suggests that one of the most important personality traits that leave an imprint on the processes of social functioning is aggressiveness as a tendency to aggressive behavior [6. 24].

Aggression, according to the definition of K. K. Platonov, is “a mental phenomenon, expressed in the desire for violent actions in interpersonal relationships” [7.15].

B. P. Poshivalov proposes to understand aggressiveness as an individual predisposition to aggressive behavior, readiness to commit an aggressive act [8. 35].

One cannot but agree with K. V. Selchenko that the basis of any aggressiveness is one or another conflict - conscious or unconscious, fleeting or protracted, willingly inflated or forced to accept. In essence, any aggression is nothing but a manifestation of a person's active, active dissatisfaction with the conditions of life around him, his neighbors or himself [9.4-5].

In her dissertation research on the behavioral manifestation of aggressiveness in adolescence, N. A. Sablina writes that aggression is a set of certain actions that cause damage to another object; and aggressiveness ensures the readiness of the person at whom aggression is directed to perceive and interpret the behavior of another in an appropriate way [10.15].

The French psychologist E. Antier, in his work on human aggressiveness, notes that aggressiveness is an integral part of the essence of every person. It plays a significant role in the development and formation of the personality of children, and the role is no less important than love. Self-control, which requires a certain violence against oneself, becomes a source of energy and motivates such important qualities as self-determination, self-education, self-discipline. Aggression in its positive incarnation contributes to success in various areas of life, but only as long as it remains under the control of a person. This is not about the need to eradicate this feeling in a child, but about methods and means of mobilizing it for good purposes, for the benefit of the baby and those around him [11.5].

Thus, considering the various opinions and approaches of domestic and foreign researchers, we can conclude that many authors understand aggressiveness as a character trait, as one of the most important characteristics of actions and deeds that

determine and establish relationships between people; and also as a mood of an individual, a person.

I would like to briefly dwell on the types of aggression.

Social psychologists often make a distinction between indirect and direct aggression (L. Berkowitz , B. Walker , R. Baron , D. Richardson). Indirect aggression involves attempting to harm another person without overt face-to-face conflict. An example of such indirect aggression is malicious gossip. Direct aggression is behavior that aims to hurt someone in the face. It can be either physical - using weapons, urmoqs with fists, hands and feet, pushing or pinching - or verbal - ' bosqinchilikka asoslangan , swearing or threatening another person.

Another important difference is based on whether the aggression is emotional or instrumental. Emotional aggression is behavior aimed at causing harm to another person, giving vent to angry feelings that get out of control. If someone in a blind rage throws a chair at a colleague, this can be an example of emotional aggression. Instrumental aggression is causing harm to another person to achieve some goal - for example, in order to punish or increase one's status. Instrumental aggression also manifests itself in cases where a soldier kills an enemy to protect his life, or when a hired killer commits a murder for the sake of money [12.54].

The founder of psychoanalytic theory Freud identified the following 3 types of aggressiveness: impulsive - shafqatsizlik , sadism - sadizm, destructiveness - halokatli.

Famous American scientists R. Baron and D. Richardson distinguish the following types of aggression: hostile aggression, which aims to cause suffering to the victim, and instrumental aggression, when hujum on others does not aim to cause harm [13.2001].

Another researcher E. Aronson in his book also writes about two types of aggression - hostile and instrumental. According to him, "hostile aggression is aggression as an end in itself, and instrumental aggression serves to achieve some other goal" [14.185].

In psychology, in recent years, more often distinguish between "open" aggression as a physical hujum (or the threat of such an attack) and "hidden", manipulative aggression aimed at worsening the reputation and relationship of the "target". For the second type, even a special term is introduced - "relationship aggression", which can be considered as a subspecies of indirect aggression [15.425].

Aggression can manifest itself in a direct form, when a person with aggressive behavior is not inclined to hide it from others. He directly and openly confronts someone from the environment, expresses threats in his direction or shows aggressiveness in actions. In an indirect form, aggression is hidden under the mask of hostility, malice, sarcasm or irony in thus exerting pressure on the victim [16. 469].



**Referencies:**

1. Antoyan Y. M. Aggression in our life. - M.: Infra-M, 1995 - 318 p.
2. Antje E. Aggressiveness,— with O.Bosantseva.— M.: FAIR- Press, 2006. – 192p.
3. Aronson E. Social animal. Introduction to Social Psychology / translation type. M. A. Kovalchuk uder V.S.Maguna - M.: Aspect/Press, 1998. – 517p.
4. Baron R., Richardson D. Aggression // Psychology of human aggressiveness: A textbook. - M: ACT; Mn.: Harvest, 2005. - p. 446 - 652.
5. Baron R., Richardson D. Aggression. SPB: Piter, 2000y. — p 352.
6. Breslav G. Psychological correction of child and adolescent aggressiveness: A textbook for specialists and amateurs. — SPB.: Speech, 2004. – 144p.
7. Nalchajyan A. A. Human aggressiveness. — SPB.: Piter, 2007. — 736p.
8. Nalchajyan A. A. Ethnopsychological self-defense and aggression. (Textbook for universities). Erevan, Public. «Ogeban», 2000, 408p.
9. Platonov K. K. Structure and development of personality. — M.: Nauka, 1986.- 255p.
10. Sablina N. A. Behavioral manifestations of aggressiveness in adolescence and the possibility of overcoming them. — Diss... Candidate of Sciences. psychology of sciences. — Stavropol 2004, 159p.
11. Solovyova S. L. Aggressiveness as a property of personality in norm and pathology / Diss... Dr. psychology of sciences.- SPB., 1996
12. Cialdini R., Kenrick D., Neiberg S. Social psychology. Understand others to understand yourself! (The Main Textbook series). — SPB.: Prime-euro-sign, 2002. – 256p.

UO'K 581.582.232/275.574

## KATTA FARG'ONA KANALI ALGOFLORASINING TAKSONOMIK TAHLILI

**M. Yuldashova, M. Nazarov, M. Djorabayeva**

*Farg'ona davlat universiteti*

### Annotatsiya

Maqolada, Farg'ona vodiysining Katta Farg'ona magistral kanali algoflorasi turlar tarkibining 2019 - 2022 yillar oralig'idagi taksonomik taxlili bayon etilgan. Bunda suvo'tlarining 6 ta bo'lim, 10 ta sinf, 17 tartib, 28 ta oila, 35 ta turkumga xos 100 ta tur va tur xillari (78 - tur, 14 - variatsiya, 8 - forma) aniqlandi. Ulardan *Cyanophyta* - 11, *Chrysophyta* - 1, *Bacillariophyta* - 78, *Pyrrophyta* - 4, *Euglenophyta* - 3, *Chlorophyta* - 3 ta tur va tur xillarini tashkil etdi.

**Kalit so'zlar:** algoflora, taksonomiya, muhit, oqim, tur va tur xillari, suv havzasi, ekologik, tabiiy muhit, suv o'tlari.

**KIRISH.** Tadqiqot ishida Farg'ona vodiysida joylashgan Katta Farg'ona magistral kanalining algoflorasi o'rganildi.

Katta Farg'ona magistral kanali (KFMK) Norin va Qoradaryo o'zanlaridan boshlanuvchi umumiy uzunligi 350 km. (suv o'tkazish imkoniyati 211 m<sup>3</sup>/sek, sug'oriladigan maydoni 213.7 ming) bo'lgan kanal[8].

**ASOSIY QISM.** Geomorfologik belgilar bo'yicha suv havzasi oqimlarga bo'lindi, algologik namunalarni yig'ish uchun kuzatuv nuqtalari belgilandi.

Bu xududning bosh qismi Qoradaryo bo'lib, uning suvi o'ta loyqa, shu sababli namunalar suv qirg'oqlaridan va suvning tiniqligi bor bo'lgan 3 - 5 sm li chuqurliklardan yig'ildi.

Suv havzalarining algoflorasini o'rganish orqali suvo'tlarining turli ekologik omillar taqsimida rivojlanishini aniqlash imkonini beradi [1].

Katta Farg'ona magistral kanali algoflorasi turlar tarkibining taksonomik tahlili kanal algoflorasi o'ziga xos tarkibga egaligini ko'rsatdi. Suvo'tlarining 6 ta bo'lim, 10 ta sinf, 17 tartib, 28 ta oila, 35 ta turkumga xos 100 ta tur va tur xillari (78 - tur, 14 - variatsiya, 8 - forma) aniqlandi. Ulardan *Cyanophyta* - 11, *Chrysophyta* - 1, *Bacillariophyta* - 78, *Pyrrophyta* - 4, *Euglenophyta* - 3, *Chlorophyta* - 3 ta tur va tur xillarini tashkil etdi[2-7].

*Cyanophyta* bo'limi suvo'tlaridan - *Microcystis aeruginosa*. f. *sphaerodictyoides* Elenk., *Rivularia Beccariana* (de Not.) Born. et. Feah, *Oscillatoria deflexoides* Elenk. et Kossinsk, *O. lacustris* (Kleb.) Geitl., *O. rupicola* Hansg., *Romeria chlorine* va boshqalar uchradi.

Chrysophyta bo'limi suvo'tlaridan - *Ochromonas charkowinsis* Marv.

Bacillariophyta suvo'tlaridan - *Melosira varians* Ag, *Cyclotella stelligera* Cl. Et Grun., *Stephanodiscus Hantzschii* Grun, *Tetracyclus rupestris* (A.Br.) Grun., *Meridion circulare* Ag., *Diatoma elongatum* (Lyngb.) Ag., *D. heimale* (Lyngb.) Heib., *Fragilaria atomus* Hust., *Ceratoneis arcus* (Ehr.) Kuetz., *Synedra actinostroides* Lemm kabi tur va tur xillari uchradi.

Euglenophyta bo'limi suvo'tlaridan - *Trachelominas oblonga* Lemm., *Phacus parvulus* Klebs, *Euglenopsis vorax. f. minor* (Skuja) Popova kabi turlar.

Pyrrophyta bo'limi suvo'tlaridan - *Cryptomonas aborto* Conr., *Woloszynskia vera* (Lind.) Thompson, *Glenodinium gymnodinium* Penard, *Peridinium cinctum. F. Westii* (Lemm) Lef. kabi tur va tur xillari.

Chlorophyta bo'limi suvo'tlaridan - *Chlorella luteoviridis* Chodat., *Clodophora glomerata. var. glomerata* Kuetz., *Cosmarium trilobulatum* Reinsch. kabi tur va tur xillari uchradi.

**XULOSA.** 2019-2021 yillardagi ilmiy tekshirish ishlari natijasida Katta Farg'ona kanalida 100 ta tur va tur xillari (78 - tur, 14 - variatsiya, 8 - forma) aniqlandi. Ulardan *Cyanophyta* - 11, *Chrysophyta* - 1, *Bacillariophyta* - 78, *Pyrrophyta* - 4, *Euglenophyta* - 3, *Chlorophyta* - 3 ta tur va tur xillarini tashkil etdi.

Katta Farg'ona kanalida **doimiy ravishda suvi juda loyqaligini** inobatga olgan holda suvo'tlarining tur va tur xillari sonini oz miqdorda 100 ta uchrashi aniqlandi. Ko'kyashil, diatom va evgilen, yashil suvo'tlari barcha ekologik omillar yig'indisi bilan birga haroratning o'zgarishiga bog'liq holda algoflorada tur va tur xillari soni jixatidan diatom suvo'tlari etakchilik qildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] Алимжанова Х.А., Шаимкулова М.А. Альгофлора реки Акбууры и ее значение в оценке качества воды. – Ташкент, Фан, 2008. – 17– 20, 34 - 37 с.
- [2] Определитель пресноводных водорослей СССР. Вып. I. 1951; II. 1953; III. 1954; IV. 1951; VI. 1954; VII. 1955; VIII. 1959; X. (1) 1986; XI. 1982; XII.
- [3] Музафаров А.М. Флора водорослей водоемов Средней Азии. – Ташкент: Изд-во Наука. 1965. – 580 с.
- [4] Эргашев А.Э. Закономерности развития и распределения альгофлоры в искусственных водоёмах Средней Азии. - Ташкент: Фан, 1976. -360с.
- [5] Юлдашева Муаттархон and Давронжон Саминжонов. Taxonomical and ecological analysis of the large Fergana channel algoflora in the spring season // doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1321." research support center conferences. - С. 119-124.
- [6] Юлдашева М., Тўлқинов А. The south Fergana canal in the spring season taxonomic and ecological properties of algoflora // doi. org/10.47100/Conferences. v1i1. 1322 // Research support center conferences. – 2021. – С. 124-129.
- [7] Yuldasheva M., Soliyeva A. Taxonomy and ecology of spring season algoflora of the north Fergana channel // Конференции. – 2021. – С. 129-134.
- [8] Farg'ona vodiysi kanallaridan foydalanish boshqarmasi ma'lumotlari

ТОКНИНГ УСИМЛИГИНИНГ ФОМОПСИС ДОГЛАНИШИ

*Зокиров Исломжон Илхомжонович*

*Биология фанлари доктори, доцент*

*Фаргона давлат университети*

*Зокирова Гулнора Мамаджоновна - уқитувчи*

*Ахмаджонова Гулшода - магистрант*

**Аннотация:** Ток усимлигининг зараркунандалари бугунги кунга келиб ривожланиб кетмоқда. Купчилик касалликлари орасидан токнинг фомопсис касаллигига тухталиб утамиз. Касаллик Европа, Осиё, Африка, Шимолий Америка, Австралия ва Океаниянинг куп мамлакатларида тарқалган.

**Калит сузлар:** ток, фомопсис, зараркунанда,

**Кириш.** Бу мақоламизда ток усимлиги заракунандасини тур таркибини таҳлил қилиб утамиз. Барги даги зарарланиш ҳолатлари билан танишсак. Зарарланган баргларда кичик, оч-яшил ёки хлоротик, ногутри думалок шаклли, уртаси тутусли доғлар пайдо бўлади. Баргларнинг четлари ёки томирлари гижимланади, улар пастга буқилади. Баргларнинг асосий ва иккиламчи томирларида ва бандларида тук кунгир ёки кора доғлар ривожланади. Доғлар туқилиши ва баргларда тешиқлар пайдо бўлиши мумкин. Барглар саргаяди, сунгра кунгир тус олади. Узи ва банди кучли зарарланган барглар туқилади.

Зарарланган ёш новда, мева ва шингиллар бандларида уртаси кора тусли хлорозлар ривожланади, улар усиб, тук-кунгир, кейин кора тус олувчи, тасма ёки нотугри шаклли доғларга айланади. Улар новданинг куп қисмини ураб олади ва новда узиши пайтида чатнаб, яралар пайдо қилади. Мавсум давомида новдалар соғаяди ва яралар қотади. Мева бандлари чирийди, мурт бўлиб қолади, еинади, узум бош тушиб кетади кузгатувчи узумни бевосита тешиб қиради ва чиритади ёки унга уругчидаги яралардан мицелий шаклида утиб, зарарлайди. Узум кунгир тус олади, буришиб қолади, қобигида тарқок пикнидалар ҳосил бўлади. Токнинг ута чидамсиз навларининг гураларида кичик, кора доғлар пайдо бўлади. Узум пишиши пайтида бу доғлар усади ва узумни чиритади. Касаллик узумга асоean узум боши ва шингил бандларидан утади. Қишда зарарланган новдаларда пикнидалар ва улчами 3x2 см келадиган тук тусли, уртаси сарғиш доғлар пайдо бўлади. Бир йиллик новда, олдинги йилнинг ғажаклари ва барг бандларида пикнидалар буртиб чиқади. Пикнидалар жуда куп ҳосил бўлганида эпидермис қутарилиб, тагига ҳаво қиради, зарарланган жойнинг усти оқ ёки қумушранг тус олади.



**Хулоса.** Фомопсис таркалган мамлакатлардан экиш ва пайванд килиш учун мулжалланган ток қисмларини Ўзбекистонга қиритиш ман этилади;

селекция ва илмийтадқиқот масаласида олиб келинган материаллар зарарланганлигини аниқлаш мақсадида лабораторияда экспертиза қилиш ва йил давомида интродукцион-карантин кучатзорида экиб текшириш; зарарланган материаллар аниқланган ҳолда, уларни дархол қесиш олиш ва ёкиб юбориш талаб қилинади. Қасалликка чидамли навлар йук ун-шудринг ва антракнозга қарши тавсия қилинган барча агротехник, ташкилий чоратадбирларни ишлаб чиқиш керак.

### **АДАБИЁТ МАНБААЛАРИ .**

1.Буриев х.,, Журзев Р., Алимов О. Мева-сабзавотларни сақдаш ва уларга дастлабки ишлов бериш. Тошкент: "Меҳнат", 2002, 184 б.

2.Головин П.Н. Мучнисто-росяные грибы, паразитирующие на культурных и полезных растениях. Изд. АН СССР, М-Л, 1960, 267 с.о

3. Исоков О. Мильдью ёхуд сохта Ун-шудринг қасаллиги. Ўзбекистон қишлоқ хужалиги, 2004, N~II, 2S б.

4.Қамилов ш.г .. Мостовой В.А. Болезни листьев винограда. Ботаника фаниини устивор масалалари. Илмий конференция маърузаларининг тезислари. Тошкент, 12-14 сентябрь, 1995 й. Тошкент, 1995, 138 б.

5.Қирьянова Е. С .. Қралль Э. Л. Паразитич'еские нематоды растений и меры борьбы с ними. Том 2. Л.: «Наука», 1971,522 с.

6.Қудрявец Р. П., Бокач~в Г. И., Воробъев В. Ф., Соловьёв И. С., Миренков Ю. М., Сенин В. И .. Титов д. А. Плодовые культуры. Справочник. М.: Агропромиздат,199I,384с.,цв. илл. на 16л.

7. Мирзаев М.М., Сабилов М.К., Пашенка В.З., Куртов И.А., Кушназарав Х.к., Набиев У.Я. Такчиликка оид справочник. Тошкент: "Ўзбекистон", 1976, 152б. (110-115 б.).

8.Набиев У. Мевазор ва токзорларнинг зарақунанда ҳамда қасалликлари ва уларга қарши қураш. Тошкент: "Ўзбекистон", 1974,48 б.

9. Попкова К. В .. , Шкаликов В. А., Стройков Ю. М., Лекомцева С. Н., Скворцова С. Н. Общая фитопатология. 2-изд. М.: «Дрофа», 2005, 448 С.

10.Хохрякова Т.М., Қазанцева А.Е. Монилиальный ожог айвы. Микология и фитопатология, 1968, т.2, N~6, с. 491-495.

## ТОШЛОК ТУМАНИ ШАРОИТИДА ДЕНТРОФАГ ШИРАЛАР ФАУНАСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ (УСИМЛИК ШИРАЛАРИ)

*Зокиров Исломжон Илхомжонович*

*Биология фанлари доктори, доцент*

*Фаргона давлат университети*

*Зокирова Гулнора Мамадҷоновна - уқитувчи*

*Аскаралиева Сарвиноз - магистрант*

**Аннотация:** Бу мақолада Фаргона вилояти Тошлок туманида зарар келтурувчи усимлик битлари яъни ширалар хақида ёритиб берилди. Ҳозирги кунга келиб кенг майдонларда ва бошқа кишлок хужалик экинларида тупрокни қовлаш ва ювиш ишлари тугри йулга қуйилган бўлсада, баъзи бир ҳолатларда айникса, утлок парвонаси, қарадрин тунлами, пода сингари қучиб юрувчи ва қумайдиган чигирткаларнинг қузачаларини аниқлашда тупрокни қовлаш ишлари йуналиш бўйлаб текшириб борилади. Бу қаби ҳолларда қартага йуналишлар қайд қилинади, бу бўйича текширув ишларини олиб борилади, утқазилган йуналишда олинган чуқурчани жойи ва шу майдончада топилган ҳашаротлар миқдори белгилаб борилади. Асосан шароитдан келиб чиққан ҳолда ва зарарқундаларни биологик хоссалари бўйича майдончалар белгилаб борилади.

**Калит :** бит, полиз, тошлок, зигир, лавлаги.

**Кириш.** Полиз бити (*Aphis gossypii* Glov) .Тент данотлилар (Homoptera) туркуми, барг битлари (Aphididae) оиласига мансуб бўлиб, гуза ва полиз экинларининг асосий зарарқундаси ҳисобланади. Булардан ташқари, тамаки, ерёнгоқ, қаноп, зигир, лавлаги, полиз ва бошқа турдаги усимликларда кенг тарқалган. Қанотсиз битнинг танаси тухумсимон қуринишда, қатталиги 1,25-2,1 мм гача боради. Ранги қучиш ёки сарикдан тух яшилгача, лекин баҳор ва ёз ойларида утсимон яшил ва сарғиш тусда учрайди. Қадат қузда тух яшил рангда бўлади.

Тирик тугувчи ургочиларининг боши, қуқрак, оёқларининг учлари, шира сурувчи найчалари қора тусда ва нисбатан қузинқод, ёнбошларида қора доғчалари бор. Муйловлари танасидан қисқароқ, лекин қанотсиз формалариникидан узунроқ. Бу битнинг ақация битидан фарқи шу белгиларидир . Личинқаси қичик ва ранги оқ. Қанотли формага айланувчи личинқа “темирқаноти” иққинчи ёшида пайдо бўлади. Полиз бити апрел ойида бегона утларда, майнинг урталаридан то июлгача полиз ва гузада пайдо бўла бошлайди.

Дуккакли экинлар билан озидланмайди. Битлар барг остида ва усув нукталарида озидланади. Чинбарглар пайдо булган сарик битлар уларнинг янги-янги ёзилган кисмларини паст томонини тушиб боради. Бу хашарот бирорта усимликда уз авлодлари билан бирга учрамайди. Лекин июлнинг охири ва август ойларида хаво хароратининг юдори булиши ва намликнинг пасайиши натижасида ривожланиши депрессияга учрайди, бунда унинг тана улчами кичрая бошлайди, ранги тук яшилдан, тиник яшил ва сарик тусга айланади, пуштдорлиги бирдан тушиб кетади.

Сентябрга келиб яна ривожланишда давом этади. Унинг ривожланиш тезлиги хаво хароратига боглик холда, канотсиз личинканинг тугилиши 13-14 ва 4-6 кунда такрорланиб боради. Мавсумда 20-25 бугин беради. Гузага нисбатан зарар келтириши 12-15 % га етади.

Эрта бадорда кишлаб чикаётган авлоди  $-5^{\circ}\text{C}$  да 30 % гача нобуд булиши мумкин. Канотсиз ва канотли тирик тугувчи полиз битларининг апрел ва май ойларидаги популяциялари юкори пуштдорликка эга. Канотсиз тирик тугувчи зотининг кишлаш даври бегона утларда (тугмачагул ва ёввойи горчица ва бошкалар) кечади.

Беда ва полиз битларининг табиий кушандалари, асосан, парда канотлилар туркумига мансуб 15-20 тадан купрок турлари учрайди. Мавсумда 20-25 бугин беради.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Аванесова Г. А. «Методические указания по защите сельскохозяйственных культур от земляных блошки». Т.: Изд. «ФАН»-Информационное сообщение. 1984.
2. Азимов Д.А., Бекузин А.А., Давлетшина А.Г., М.К. Кадырова Насекомые Узбекистана. Т.: Изд-во. «ФАН» Ташкент, 1993
3. Алиев Ш. К., Арсланов М.Т., Жумабоев З. М., Мусаева Г.М., Абдуллаева Х. Техник экинларнинг араркунанда, касаллик ва бетона утлар и. «Хаёт » Андижон, 2015.
4. Арсланов М.Т., Рашидов М.И., Кимсанбоев Х.Х., Мухаммадалиев Ш.С., Асанов К.А., Сулайманов Б.А. Усимликларни биологик хдмоя килишга оид русча - узбекча лутат. Т.: «Укитувчи», 2002.
5. Арсланов М.Т., Сагдуллаев А.У., Холидов К- «КДшлок хужалик экинларини биологик химоя кдаиш». Т.: «Узбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2010.
6. Арсланов М.Т., Сагдуллаев А.У., Аноров М.А., Содиков М.К., Алиева Ф.Ш. Узбекистонда учрайдиган бегона утлар буйича лутат «Хаёт » Андижон, 2015.

7. Ахмедов С.И., Пулатов О.А., Хурсанов Х.И. Кишлоқ хужалиги фитопатологияси Самарканд., 2010 .
8. Бадулин А.В. Пшеничный цветочный клещ. М.: «Колос», 1984.
9. Бей-Биенко Г.Я., Богданов-Катков Н.Н., Чигарев Г.А., Щеголев В.Н. Сельскохозяйственная энтомология Гос- издат. «Сельскохозяйственной литературы» Москва-Ленинград, 1955.
10. Березкин Ю.Н., Скоролупова Т.П. Двудольные однолетние сорняки Жур. «Защита и карантин растений». 1987. № 4. С.26-27
11. Бондаренко Н.В., Поляков И.Я., Стелков А.А. Вредные нематоды, клещи грызуны. Изд- во «Колос », Ленинград, 1977
12. Васильев В.П. О концепции экономического порога вредоносности //Защита растений 1988. № 1. С. 28-31
13. Володичев М.А. Методы учета вредителей //Защита растений 1986. № 6. С. 15-16
14. Володичев М.А. Защита зерновых культур от вредителей Росагропромиздат, Москва, 1990.



CHIGITLI PAXTANI TOZALASH JARAYONIDA NAMLIK TASIRIDA  
SIFAT KO'RSATKICHLARINI O'ZGARISHI

**Baxodir Ergashov**

*Namangan muhandislik-qurilish instituti o'qituvchisi*

**Nurqulov Muhammadqodir**

*Namangan muhandislik-qurilish instituti*

*25-MSMSM-21guruh talabasi*

**Temirov Zafarbek**

*Namangan muhandislik-qurilish instituti*

*25-MSMSM-21 talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chigitli paxtani qayta ishlash jarayonida uning namligi o'zgarishini tozalash samaradorligi, umumiy nuqsonlarning miqdoriga qay darajada ta'sir qilishini tadqiq qilish uchun turli paxta navlaridan na'munalar olindi va ular ustida tajribalar o'tkazildi.

**Kalit so'zlar:** Umumiy ifloslik miqdori, quritish jarayoni, tozalash jarayoni, seleksion nav, sanoat navi, chigal tola, murakkab chigal tola.

**Аннотация:** В данной статье были взяты образцы различных сортов хлопчатника и проведены эксперименты с целью исследования влияния изменения влажности хлопка-сырца в процессе обработки, эффективности очистки и количества общих дефектов.

**Ключевые слова:** общая примесь, процесс сушки, процесс очистки, отборный сорт, технический сорт, спутанное волокно, сложноспутанное волокно.

**Abstract:** In this article, samples of different cotton varieties were taken and experiments were carried out in order to investigate the effect of changes in the moisture content of seed cotton during processing, cleaning efficiency, and the amount of total defects.

**Key words:** Total impurity, drying process, cleaning process, selection grade, industrial grade, tangled fiber, complex tangled fiber.

Paxta tozalash korhonalarining birinchi navbatdagi vazifasi paxta maydonlaridan terib olingan chigitli paxtani maksimal darajada yaxshi tozalash, shuning bilan birgalikda undan olinadigan tolalarning shikastlanish darajasini iloji boricha kamaytirish hisoblanadi. Bu omillarni hisobga olgan holda mamlakatimizdagi paxta tozalash korhonalari bosqichma-bosqich eng zamonaviy uskunalari bilan jihozlanmoqda. Bunday choralar qo'llanishiga qaramay chigitli paxtaning ba'zi ko'rsatkichlari maksimal tozalash imkoniyatlarini chegaralab qo'yadi.


Qo‘llanilayotgan jihozlar har qancha zamonaviy bo‘lmasin xom ashyoni qayta ishlash uchun namlik miqdori juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, chigitli paxtada namlik miqdori yuqori bo‘lsa, iflosliklardan tozalanishi qiyinlashadi, tola tarkibidagi chigal tola miqdori, murakkab chigal tola miqdori, iflosliklar miqdori ortadi, natijada tolaning va undan olinadigan mahsulotlarning sifat sifat ko‘rsatkichlari yomonlashadi. Undan tashqari, chigitli paxta tarkibida namlik miqdori me‘yoridan past bo‘lishi tolaning fizik-mexanik xossalarini pasayishiga olib keladi. Bunday holatlarni oldini olish uchun korhonalarda chigitli paxtaning namligini standartlarda ko‘rsatilgan optimal namlik miqdorini ta‘minlash kerak bo‘ladi.

Tozalash samaradorligiga chigitli paxtaning namligidan tashqari seleksion navi ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki har bir seleksion navdagi chigitli paxtaning o‘ziga hos hususiyatlari mavjud.

Paxta dalalaridan terib olingan chigitli paxta paxta tozalash korhonalarida namligi va iflosligi bo‘yicha qabul qilinadi. Agar namlik yuqori bo‘lsa uni quritish tozalash ishlari olib boriladi.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar tozalash samaradorligiga qanchalik ta‘sir qilishini tekshirib ko‘rish maqsadida Namangan viloyatida rayonlashtirilgan ikki xil sanoat seleksion navli chigitli paxtalar ustida nazorat o‘tkazildi va natijalarni jadvalga kiritildi.

Ko‘rsatkichlari	Navi	
	Andijon-36	Namangan-77
G‘aramdagi chigitli paxtaning namligi, %	11.2	11.8
Umumiy ifloslik miqdori, %	9.1	9.6
Quritish jarayonidan keyingi chigitli paxtaning namligi, %	9.3	8.8
Umumiy ifloslik miqdori, %	6.1	6.6
Tozalash jarayonidan keyingi chigitli paxtaning namligi, %	8.8	8.4
Umumiy ifloslik miqdori, %	1.05	0.85



Chigitli paxtaning namligi va navining tozalash samaradorligiga ta'siri gistogrammasi (%)

Olingan natijalardan ko'rinib turiptiki Andijon-36 seleksion navli chigitli paxtaning iflosligi quritish jarayonidan keyin 33% ga, tozalash jarayonidan keyin esa 88.5% ga kamaygan bo'lsa, Namangan-77 seleksion navli chigitli paxtaning iflosligi quritish jarayonidan keyin 31% ga, tozalash jarayonidan keyin esa 91% ga kamaygani aniqlandi. Bundan kelib chiqadiki yuqoridagi ko'rib o'tilgan navdagi chigitli paxtalarda quritish va tozalash jarayonlaridan keyin tozalash samaradorligi Namangan-77 seleksion navli chigitli paxtaniki Andijon-36 ga qaraganda yuqoriroq ekan.

Chigitli paxtani qayta ishlash jarayonida me'yoridan yuqori namlik paxta tolasi tarkibida nuqson va chiqindilar ortishiga sabab bo'ladi.

Agar chigitli paxtaning namligi me'yordan yuqori bo'lsa, tola tarkibidagi chigal tola, murakkab chigal tola, iflosliklar miqdori ortib, po'stloqli tola, urilgan yoki jarohatlangan chigitlar miqdori kamayadi. Chigitli paxta qanchalik ko'p texnologik jarayonlardan o'tkazilsa, shuncha iflosliklardan yaxshi tozalanadi, lekin tarkibidagi urilgan yoki jarohatlangan chigitlar, chigal va murakkab chigal tola, po'stloqli tola miqdori ortib ketadi. Bundan tashqari namlikning me'yordan past bo'lishi hisobiga po'stloqli tola va tugunchalar, urilgan yoki jarohatlangan chigitlar miqdorining oshishi hisobiga paxta tolasi tarkibidagi umumiy nuqson va chiqindilar miqdorining ortishiga sabab bo'ladi. Ayrim seleksion navdagi chigitli paxtaning tozalash samaradorligi past bo'ladi.

Paxta tolasining narxi ifloslik miqdori bo'yicha sinflariga qarab belgilanadi. Paxta tolasi tarkibidagi nuqson va chiqindilar miqdori me'yordan yuqori bo'lsa, tolaning sifat ko'rsatkichlari yomonlashadi, hamda undan olinadigan iplarning fizik-mexanik ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi. Paxta tolasi ifloslik miqdoriga qarab, bir qator sinflarga, ya'ni oliy, yaxshi, o'rta, iflos va yomonlarga bo'linadi va shu sinflari bo'yicha narxlari turlicha bo'ladi.

Namuna sifatida olingan navlarning tolalari tarkibidagi nuqson va chiqindilar miqdorining o'zgarishi aniqlandi.

Bunga ko'ra Namangan-77 seleksion navli paxta tolasining g'aramda turgan holatidagiga nisbatan umumiy nuqson va chiqindilar miqdori 38.3% ga, urilgan yoki jarohatlangan chigitlar miqdori 35.1% ga kamaydi, po'stloqli tola miqdori 15.8% ga, tugunchalar miqdori 28.8% ga oshdi, iflosliklar miqdori 61.9% ga kamaydi, Andijon-36 seleksion navli paxta tolasining tarkibidagi umumiy nuqson va chiqindilar miqdori 38.5% ga, urilgan yoki jarohatlangan chigitlar miqdori 47.8% ga kamaydi, po'stloqli tola miqdori 21.8% ga, tugunchalar miqdori 36.1% ga oshdi, iflosliklar miqdori 51.8% ga kamaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki paxtani dastlabki ishlash jarayonidan so'ng Namangan-77 seleksion navli paxta tolasi tarkibidagi umumiy nuqson va chiqindilar

miqdori bo'yicha tozalanish samaradorligi Andijon-36 seleksion navli paxta tolasining nuqsonlardan tozalanish samaradorligiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bakhodir, E. (2021). Effects of Change on Cotton Harvesting Physical and Mechanical Performance. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*, 1(7), 9-13.
2. Mirkhojaev, M. M., & Ergashov, B. A. O. (2020). Analysis of determination of cotton field quality as a result of changes in technological processes. *SAARJ Journal on Banking & Insurance Research*, 9(6), 38-44.
3. Baxodir, E., Azimjon, M., & Hayitali, O. (2022). PAXTANI YETISHTIRISHDAGI IQLIMIY SHAROITNI UNDA OLINADIGAN TOLA SIFAT KO 'RSATKICHLARIGA TA'SIRI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 89-94.
4. Ruxiddinova, N. Y., & Ayubjanovna, T. G. (2022). GENERAL DEVELOPMENT OF EDUCATION IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS METHODOLOGICAL PRINCIPLES. *Journal of Positive School Psychology*, 8560-8566.
5. Baxodir, E., Hayitali, O., & Ramshid, A. (2022). IPAK QURTINI BOQISH SHAROITINI OLINADIGA IPAK MAHSULOTLARI SIFAT KO 'RSATKICHLARIGA TA'SIRI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 95-100.
6. Bakhodir, E., & Mastona, N. (2022). Product Quality of Regulatory Documents Place for Improvement. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(3), 71-74.
7. Baxodir, E., & Ramshid, A. (2022). KO 'MIR MAHSULOTLARINING NAVLARI BO 'YICHA QIYOSIY TAHLILI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 101-105.
8. Baxodir, E., & Asadbek, A. (2022). GIDRAVLIK VA MEXANIK PRESSLAR YORDAMIDA SUV TASHISH MASHINALARINING MUVOZANATDAN CHIQUIB KETISHINI OLDINI OLISH USULLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1-4.
9. Bakhodir, E., & Ramshid, A. (2022). Comparative Analysis of Coal Products Extracted From Central Asian Coal Deposits. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(5), 9-12.



**KIMYONING BIOLOGIYA FANLARI BILAN INTEGRATSIYASI**

*Samarqand davlat universiteti kimyo fakulteti dotsenti*

*Norqulov Uchqun Munavvarovich*

*Tel: +998915316898 u\_norqulov2019@gmail.com*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti*

*Norqulova Lobar Uchqunovna*

*norqulovalobar8@gmail.com*

*Samarqand davlat universiteti kimyo fakulteti talabasi*

*Aminova Taxmina*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “kimyo ta’limining biologiya bilan uyg’unligi” doirasida ta’lim sifatini oshirish omillari, mavzularning tarbiyaviy vazifalari bo’yicha fikrlar mujassamlashtirilgan.

**Kalit so’zlar:** kataliz, me’da-ichak sistemasi, fermentlar, gidroliz jarayoni, osmotik bosim.

Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili” Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan. Kimyo fani biologiyaning rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan, jumladan, hujayraning kimyoviy tarkibi, ya’ni anorganik va organik moddalarni aniqlash, oqsil, uglevod, lipidlarning o‘ziga xos xususiyatlari, tarkibi, molekulyar tuzilishi, ularning hujayrada bajaradigan funksiyalarini aniqlash, modda va energiyaning saqlanish qonuni esa hujayrada modda va energiya almashuvini tadqiq etishga zamin yaratdi. Kimyoni o‘qitishda fanlararo bog‘lanishni amalga oshirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim didaktik sharti bo‘lib, u o‘quvchilar asosiy bilim manbai bo‘lgan o‘quv materiallarining ilmiyligi va izchilligini ta’minlaydi, o‘quvchilar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish ortadi va aqliy rivojlanish tezlashadi, tabiiy fanlarni o‘qitishda fanlararo bog‘lanishni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish orqali o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Tabiatning birgina obyekt haqida bir butun bilim hosil qilish uchun turli fanlar qatori biologiya, fizika fanlarini bog‘lab o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Kimyo sohalaridan biri bu biokimyo bo‘lib, bu fanlarning birlashishi tirik mavjudotlar tanasida sodir bo‘lgan hodisalarni tushuntirishga imkon beradi. Kimyo hujayralar va to‘qimalarning tarkibi va tuzilishini hamda ular tarkibidagi reaksiyalarni aniqlaydi. Bu tanada yuzaga keladigan biologik funktsiyalarni tushuntirishga imkon beradigan tirik mavjudotlarni tahlil qilish haqida. Elementlarning o‘zgarishi hujayralarning ishlashiga va ovqatlanishiga qanday imkon beradi.

Masalan, biologik sistemalarda kataliz juda katta rol o'ynaydi. Ovqat hazm qilish sistemasida, qonda, odam va hayvonlarning hujayralarida boradigan ko'pgina kimyoviy reaksiyalar katalitik reaksiyalar hisoblanadi. U reaksiyalarning katalizatorlari fermentlar deyiladi. Fermentlar oddiy yoki murakkab oqsillardan iborat. Chunonchi so'lakda ptialin fermenti bo'lib, kraxmalni qandga aylanishni katalitik tezlashtiradi. Oshqozon suyuqligi tarkibidagi pepsin esa oqsillarni parchalanishini tezlashtiradi. Odam organizmida 30000 ga yaqin turli-tuman fermentlar bo'lib, ulardan har biri o'ziga xos reaksiyalar uchun effektiv katalizatorlik vazifasini bajaradi. Me'da-ichak sistemasida, qonda va hujayralarda kechadigan ko'pchilik kimyoviy reaksiyalar katalitik reaksiyalardir. Bu jarayonlar maxsus moddalar –fermentlar ta'siri ostida boradi. Fermentlar (enzimlar) – bu biologik sistemalardagi kimyoviy reaksiyalarning tezligini o'zgartiruvchi oqsil tabiatiga ega bo'lgan moddalardir. Biologik katalizatorlar (fermentlar) kimyoviy katalizatorlardan farq qilib, ularning o'lchami katta, tanlab ta'sir etuvchanlik va yuqori samaradorlik kabi xususiyatlarga ega. Fermentativ reaksiya tezligi, substratning konsentratsiyasiga, ingibitorlar va aktivatorlar bor-yo'qligiga, pH va boshqalarga bog'liq. Substrat-organizmda ferment ta'sirida o'zgarib reaksiyaga kirishuvchi boshlang'ich modda.Fermentativ reaksiya tezligining substrat konsentratsiyasiga bog'liqligi Mixaelis-Menten tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$v = \frac{v_{max} \cdot C_s}{k + C_s}$$

$v_{max}$  - reaksiyaning ferment bilan to'yingan holdagi maksimal tezligi;  $C_s$ - substratning konsentratsiyasi;  $k$ - tezlik konstantasi.Yuqoridagi tenglama nemis biokimyogar olimi L. Mixaelis(1875-1949) va kanadalik biokimyogar M. Mentenlar(1879-1960) tomonidan 1913 yilda ishlab chiqilgan va ularning nomi bilan yuritiladi. Konsentratsiya oshganda fermentativ reaksiya tezligi ferment bilan substrat o'rtasidagi to'liq bog'lanishga mos keluvchi tezlikka intiladi.Fermentativ kataliz jarayonida, fermentlar ta'siri ularning substrat bilan oraliq kompleks hosil qilishiga asoslangan. Bu jarayon qaytar hisoblanib, substrat-ferment kompleksi, oraliq moddalar nazariyasiga ko'ra, oraliq modda yoki oraliq holatga to'g'ri keladi. Keyingi bosqichda bu kompleks parchalanib ferment qayta tiklanadi. Bu jarayonni quyidagicha ifodalash mumkin:



E-ferment (enzim); S-substrat (reagent); ES-oraliq kompleks; M-mahsulot.

Organizmda fermentlarning etishmovchiligi va ortib ketishi turli xil kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, organizmda tirozinaza fermentining yetishmasligi albinizm kasalligiga ya'ni teri qatlami pigmentining yo'qolishiga, fenilalaningidroksilaza fermentining yetishmasligi esa fenilketonuriya kasalligining kelib chiqishiga olib keladi. Fermentlar konsentratsiyasining ortib ketishi yurak xurujiga sabab bo'ladi.

**Suvning ion ko‘paytmasi. Vodorod ko‘rsatkich.pH ning biologik ahamiyati**


Tirik organizmlarning ajoyib xossalaridan biri kislota-asosli gomeostaz ya’ni biologik suyuqliklarda pH qiymatining doimiy bo‘lishidir. Quyidagi jadvalda ba’zi biologik obyektlarning pH qiymatlari keltirilgan.

Biosuyuqliklar	pH(normada)
Qon zardobi	7,40±0,05
So‘lak	6,35-6,85
Toza oshqozon shirasi	0,9-1,1
Siydik	4,8-7,5
Orqa miya suyuqligi	7,40±0,05
Oshqozon osti bezi shirasi	7,5-8,0
Ingichka ichak suyuqligi	7,0-8,0
O‘t yo‘li suyuqligi	7,4-8,5
O‘t pufagi suyuqligi	5,4-6,9
Sut	6,6-6,9
Ko‘z suyuqligi	7,4±0,1
Teri (hujayra ichki suyuqligi)	6,2-7,5
Jigar (hujayra ichki suyuqligi)	6,4-6,5

Qonda, orqa miya suyuqligida, ko‘z yoshida va oshqozon shirasida pH qiymati deyarli o‘zgaras bo‘ladi. Inson organizmida pH qiymatining keskin o‘zgarishi o‘limga, kislota-asos muvozanatining buzilishi turli kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Har xil kasalliklarda pH ning kislotalik tomonga o‘zgarishi-asidoz, ishqoriy tomonga o‘zgarishi alkaloz deyiladi. Fermentlarning faolligi ham pH qiymatiga bog‘liq. Har bir ferment pH ning ma’lum qiymatida faol bo‘ladi. Masalan, to‘qimadagi katepsin pH = 7 bo‘lganda oqsil hosil bo‘lish tezligini oshirsa, pH < 7 bo‘lganda oqsilning parchalanishini tezlashtiradi. pH kislotali muhit tomonga siljiganda yurak-tomir kasalliklarining kelib chiqish ehtimolligi ortadi. Qandli diabet kasalligi bilan og‘rigan bemorlarda ham asidoz kuzatiladi. Me’da kasalliklarida me’da shirasining pH qiymati ko‘tarilishi ham, kamayishi ham mumkin. Jigar kasalliklari (sirroz) da qonning kislotali – ishqoriy muvozanati ishqoriy muhit tomon siljib, pH 7,3 dan 7,6 gacha o‘zgaradi.

**Gidrolizning biologik ahamiyati**

Gidroliz jarayoni biokimyoviy jarayonlarda muhim ahamiyatga ega. Oziq-ovqat tarkibidagi asosiy 3 komponent – yog‘lar, oqsillar, uglevodlar oshqozon ichak traktida (yo‘lida) suv ta’sirida fermentativ gidrolizlanadi va mayda fragmentlarga ajraladi. Umumiy holda ovqat tarkibidagi komponentlarning gidrolizini quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:



Bu yerda  $R_1$  va  $R_2$  kislorod orqali bog'langan bioorganik molekulaning fragmentlari.


Busiz oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi oziq moddalar ichaklarda o'zlashtirilmaydi, ichaklarda faqatgina kichik fragmentlar so'rilib o'zlashtiriladi. Poli va disaxaridlar fermentlar ta'sirida gidrolizlanib monosaxaridlarga aylanganidan so'ng organizmda o'zlashtiriladi. Tirik mavjudotlarning o'sishi va normal yashashi uchun albatta energiya kerak bo'ladi. Bu energiyani odam oqsillar, yog'lar va uglevodlar shuningdek murakkab efirlar, amidlar, peptidlar hamda glikozidlarning oksidlanish jarayoni natijasida oladi. Ko'pgina biologik proseslarda masalan, oqsillar biosintezida, mushaklarning qisqarishida va boshqalarda ATF energiya manbai bo'lib xizmat qiladi:




$$\Delta G^0 = -30,5 \text{ kJ/mol}$$

ATF va ADF larning sintezi uchun zarur bo'lgan energiya esa glyukozaaning hujayralarda oksidlanishi natijasida ajralib chiqadigan energiya hisobiga qoplanadi.


**Bufer eritmalar** 1000 ml buffer eritmaning pH qiymatini bir birlikka o'zgartirish uchun zarur bo'lgan (sarflanadigan) kuchli asos yoki kislotaning mollardagi miqdori *bufer sig'imi* deyiladi. Bufer sistemalarning ahamiyati juda katta. Ular odam organizmda pH qiymatini o'zgarimas saqlashda moddalar almashinuvi jarayonida muhimdir. Biologik sistemalarda pH qiymatining o'zgarishi organizmning nobud bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa gidrokarbonatli, fosfatli va oqsilli bufer sistemalar organizmda muhim rol o'ynaydi. Qon umumiy bufer ta'sirining deyarli 10%i karbonatli buferga to'g'ri keladi. **Fosfatli** bufer sistema to'qima va ba'zi biologik suyuqliklarning bufer sistemasi asosini tashkil etadi. **Oqsilli** bufer sistemalar aminokislotali, gemoglobinli va oksigemoglobinli buferlarga ajratiladi. Aminokislotali bufer sistemalar  $\alpha$ -amonokislotalarning suvli eritmalarida bipolyar ion holiday uchraydi:



Bufer sistemalar hujayra shirasining kislotaligini avtomatik ravishda bir xil ushlab turadi, ya'ni ferment va gormonlarning faoliyati uchun optimal sharoit yaratadi. Sut emizuvchi hayvonlarning qonida bufer sistemalar bo'lib, unda gidroksid ionlarni bog'lab oluvchi karbonat kislota bo'ladi:




Shuningdek qonda  $H_3O^+$  ionlarni bog'lovchi natriy gidroqarbonat ionlari ham bo'ladi:



### Biologik sistemalarda osmos va osmotik bosimning ahamiyati

Osmos o'simliklarning o'sishi va rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Osmotik bosim tufayli suv o'simliklarning xujayralariga kiradi va daraxt uchlaridagi barglarga borib etguncha o'nlab metr yuqoriga ko'tarladi. Har qanday tirik xujayraning yarim o'tkazgich xususiyatlari qobig'i ki sirtqi protoplazma qatlami bo'ladi. Hujayra eritmaga botirilganda eritmaning konsentrasiyasi xudjyra shirasining konsentrasiyasidan past bo'lsa, xujayraga suv shimiladi. Agar bu farq juda katta bo'lsa, xujayra shirasining osmotik bosimi ham juda katta bo'ladi va suv ancha yuqoriga ko'tariladi. O'simlik organizmining rivojlanishi tuproq eritmasining osmotik bosimi bilan xujayra shirasining osmotik bosimi orasidagi nisbat katta ahamiyatga ega. Xujayra shirasining osmotik bosimi tuproq eritmasining osmotik bosimidan katta bo'lganidagina o'simlik normal rivojlanishi mumkin. Osmotik bosim o'simliklarda suvning xarakatlanishini va uning ildizan barglarning uchiga qadar ko'tarilishini tahminlovchi asosiy kuchdir. Barg xujayralaridan suv bug'lanib ketganda u suvni o'zak xujayralaridan osmotik bosim tufayli so'rib oladi, o'zaklar esa ildiz xujayralaridan, ildiz tuproqdan suvni so'rib oladi. Osmos hayvonlar hayotida ham katta ahamiyatga ega. To'qimalardagi osmotik bosimning har qanday buzilishlari turli kasalliklarga olib keladi. Dorilarni qon tomiriga yuborilayotganda ham to'qimalarning osmotik xossalarini e'tiborga olish zarur: kiritilayotgan eritmaning osmotik bosimi qon plazmasining bosimi bilan bir xil, ya'ni u bilan izotonik bo'lishi kerak. Masalan, odamlarning qon tomirlariga ko'p miqdorda kiritilishi mumkin bo'lgan fiziologik eritma (0,9% li NaCl) izotonik eritmadir.



Oqsillar hisobiga a'zolarining hamma hujayralari va to'qimalari ma'lum bufer ta'siriga ega bo'ladi. Masalan, teriga tushadigan oz miqdordagi kislotaga va ishqor bufer ta'sirida tez neytrallanadi. Bufer sistemalar organizmdagi ajratuv a'zolari (buyrak, teri, ichak, o'pka) bilan birgalikda pH qiymati 7,4 dan 0,4 birlikka kamayishi yoki ko'payishi butun organizmning nobud bo'lishiga olib kelishi mumkin. Osmosning tabiatdagi rolini daraxtning tanasiga suv va mineral tuzlarning kirib borish mexanizmi orqali ko'rsatish mumkin: osmos hisobiga suv gipotonik eritmadan o'simliklarning hujayralariga so'riladi va hujayrama-hujayra daraxt tanasi bo'yicha o'nlab metrlarga ko'tarilishi mumkin (endoosmos). Endoosmos gipotonik eritmalarda, ekzoosmos esa, gipertonik eritmalarda sodir bo'ladi. O'simlik va hayvonlar to'qimalarining elastikligi ham (turgor) osmos bilan tushuntiriladi: agar o'simlik to'qimalari gipotonik eritmada bo'lsa, hujayralarga borayotgan



suv ulardagi bosimni oshiradi va hujayra membranasini uning sellulozadan tashkil topgan tashqi zich qobuqqa siqadi. Osmos o'simliklarning o'sishi va rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Osmotik bosim tufayli suv o'simliklarning xujayralariga kiradi va daraxt uchlaridagi barglarga borib etguncha o'nlab metr yuqoriga ko'tariladi. Har qanday tirik xujayraning yarim o'tkazgich xususiyatlari qobig'i ki sirtqi protoplazma qatlami bo'ladi. Hujayra eritmaga botirilganda eritmaning konsentrasiyasi xudjayra shirasining konsentrasiyasidan past bo'lsa, xujayraga suv shimiladi. Agar bu farq juda katta bo'lsa, xujayra shirasining osmotik bosimi ham juda katta bo'ladi va suv ancha yuqoriga ko'tariladi. O'simlik organizmining rivojlanishi tuproq eritmasining osmotik bosimi bilan xujayra shirasining osmotik bosimi orasidagi nisbat katta ahamiyatga ega. Xujayra shirasining osmotik bosimi tuproq eritmasining osmotik bosimidan katta bo'lganidagina o'simlik normal rivojlanishi mumkin. Osmotik bosim o'simliklarda suvning xarakterlanishini va uning ilidizan barglarning uchiga qadar ko'tarilishini tahminlovchi asosiy kuchdir. Barg xujayralaridan suv bug'lanib ketganda u suvni o'zak xujayralaridan osmotik bosim tufayli so'rib oladi, o'zaklar esa ildiz xujayralaridan, ildiz tuproqdan suvni so'rib oladi. Osmos hayvonlar hayotida ham katta ahamiyatga ega. To'qimalardagi osmotik bosimning har qanday buzilishlari turli kasalliklarga olib keladi. Dorilarni qon tomiriga yuborilayotganda ham to'qimalarning osmotik xossalarini e'tiborga olish zarur: kiritilayotgan eritmaning osmotik bosimi qon plazmasining bosimi bilan bir xil, ya'ni u bilan izotonik bo'lishi kerak. Masalan, odamlarning qon tomirlariga ko'p miqdorda kiritilishi mumkin bo'lgan fiziologik eritma (0,9% li NaCl) izotonik eritmadir.

Osmos hodisasi ko'pgina kimyoviy va biologik jarayonlarda muhim ahamiyatga ega. Osmos hujayra va hujayralararo tuzilishga suvning kirishini ta'minlashda va organlarning aniq shakllarini saqlashda osmotik bosim katta rol o'ynaydi. Odamning biologik suyuqliklari-qon, limfa, to'qimalardagi suyuqliklar – NaCl, KCl, CaCl<sub>2</sub> larning va oqsil, uglevodlar, nuklein kislotalar hamda eritrotsit, leykotsit, trombositlarning suvdagi eritmalaridir. Ularning umumiy ta'siri biologik suyuqliklarning osmotik bosimini belgilaydi. Odam qonining osmotik bosimi 37<sup>0</sup> C da 780 kPa (7,7 atm) ni tashkil etadi. Xuddi shunday bosimni 0,9 % li NaCl ning suvli eritmasi ham hosil qiladi. Shuning uchun bu eritma qon bilan izotonik bo'ladi (fiziologik eritma). Osmos hodisasi tibbiy amaliyotda keng ishlatiladi. Masalan: jarroxlikda gipertonik bog'ich (NaCl ning 10% li gipertonik eritmasi bilan xo'llangan marli) keng ishlatiladi. Osmos qonuniga muvofiq jarohatlardagi suyuqlik marli orqali tashqariga chiqadi, buning natijasida jarohat yiringdan doimiy tozalanadi. Achchiq tuz MgSO<sub>4</sub> · 7H<sub>2</sub>O va glauber tuzi Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> · 10H<sub>2</sub>O ning surishtiruvchi ta'siri ham osmos hodisasiga asoslangan.

**Kolloid eritmalarning biologik ahamiyati** Kolloid eritmalar xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. Kolloid birikmalar biologiyada va tibbiyotda keng ishlatiladi. Hujayra kolloidlari masalan, qon zardobi, sut, qon limfasi va boshqalar biologik suyuqliklardir. Tirik organizmlar va o'simlik to'qimalari o'z tarkibida eritmalari kolloid eritmalarning xossalari ega bo'lgan oqsillar, glikogen, kraxmal va sellyulozani tutadi. Ko'pgina dorilar kolloid holatda bo'ladi. Masalan, burunga tomiziladigan kollargol va protargollar kolloid holidagi kumush zollaridir. Insonlarning oziq-ovqatlari go'sht, go'sht mahsulotlari, suzma, pishloq, non, sous, kremlar, mayonezlar va boshqalar kolloid holatida bo'ladi. Bundan tashqari kolloid eritmalaridan kolloid himoya sifatida keng foydalaniladi. Masalan, burunga tomiziladigan kollargol va protorgollarni tayyorlashda jelatinadan kolloid himoya sifatida foydalaniladi. Organizmda qon oqsillari kolloid himoya bo'la oladi. Masalan, qon oqsillari, yog' tomchilari, xolesterin va boshqa gidrofob moddalarni kolloid himoya qiladi. Organizmda qon oqsilining kamayishi xolesterin va kalsiyning tomir devorlarida cho'kishiga olib keladi. Buning oqibatida ateroskleroz va kalsinoz kasalliklari kelib chiqadi. Organizmda kolloid himoyalovchilarning kamayib ketishi siydik-tosh kasalliklarining kelib chiqishiga va buyrakda, jigarda hamda o't pufagida toshlar hosil bo'lishiga olib keladi. **Kislorodning** ahamiyati borasida fikr yuritadigan bo'lsak, u nafas olish jarayoni organizmda organik moddalarning kislorod bilan birikishidan iborat. Nafas olinganda, havo kislorodi o'pkada qonning gemoglobin bilan birikib, qon bilan birga organizmning hamma joyiga tarqaladi. Bu qon arterial qon deb ataladi. kislorodning gemoglobin bilan hosil qilgan birikmasi oksigemoglobin deb ataladi. Qonning tiniq qizil tusda bo'lishi ana shu modda borligidandir. Organizmda kislorod oksigemoglobindan oson ajralib, organik moddalarni oksidlaydi va gemoglobin vena qoni tarkibida o'pkaga qaytariladi. Organizmda uglerodning oksidlanish mahsuloti ( $\text{CO}_2$ ) vena qoni bilan birga o'pkaga keladi va havoga chiqarib yuboriladi. Bir sutkada bir odam 13000 l havo nafas oladi. O'simliklar havodan, asosan,  $\text{CO}_2$  ni oladi. Bu jarayonda kislorod ajralib, havoga chiqib ketadi.  $\text{CO}_2$  dan organik modda hosil bo'lganda quyosh nuri shu organik moddada kimyoviy (potensial) energiyaga aylanadi. Bu jarayon fotosintez deb ataladi. **Temir** hayot uchun zarur element, u qondagi gemoglobin tarkibiga kiradi, gemoglobin kislorodni o'pkadan to'qimalarga olib boruvchi moddadir. To'qimalarda oksidlovchi-qaytaruvchi ferment vazifasini bajaradigan moddalar tarkibida ham temir bo'ladi. Sitoxrom va nafas fermentining qaytarilgan formasida  $\text{Fe}^{2+}$  bo'lib, ularning oksidlangan formasida  $\text{Fe}^{3+}$  bor. Bir kishining qonida  $\sim 2,5$  g temir bo'ladi, odam organizmi temirni ovqatdan oladi, agar temir organizmda yetishmasa, kamqonlik kasali paydo bo'ladi. O'simliklarga yashil tus beruvchi xlorofill tarkibiga ham temir kiradi, agar o'simlikning bargida temir yetishmasa, barg sarg'ayib yaxshi o'smaydi va rivojlanmaydi. Kimyo fanini boshqa fanlar bilan bog'lab o'tish darslarida kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim

muassasalarida o'quv fanlari o'rtasidagi aloqadorlikni namoyon etadi, yoshlarda fanlararo kompetensiya rivojlantiriladi, mantiqiy fikrlash yuzaga keladi. Fanlararo aloqadorlik o'quv mavzulari mazmunini har tomonlama, atroflicha ochib berish uchun zarurdir. Kimyo fanining muhim g'oyalarini ochib berishda ko'mak beradigan, ular bilan kuchli darajada bog'langan fanlarning asosiy mazmuniga o'quvchilarni e'tiborini qaratish lozim. Fanlarning bir-biriga bog'liqlik darajalarini, shuningdek, bu fanlarda bo'layotgan o'zgarishlar, yangi tadqiqot natijalari, yangilanishlardan xabardor bo'lib borish hozirgi zamon o'qituvchisiga qo'yilgan talab bo'lib, u dars saviyasi, mavzu mazmunining o'quvchilar ongiga singdirilishi va uning beradigan samarasining oshishida asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

### **Adabiyotlar**

1.U.M.Norqulov, H.A.Nasimov, E.A.Ruziyev, I. Ruziyev., Kimyo fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar. Samarqand.: Uslubiy qo'llanma, SamDU, 2019. 178 bet.

2. D.M.Raxmonova Qarshi davlat universiteti. Zamonaviy boshlang'ich va pedagogik ta'lim: nazariy va amaliy innovatsion ta'lim tadqiqolar. Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi: Fanlararo izchillik va aloqadorlik o'quvchi kognitiv jarayonlari taraqqiyotida muhim omil. 2020 yil, aprel.

3.Rahmatullaev N.G., Omonov X.T.,Mirkomilov Sh. M. Kimyo o'qitish metodikasi. Toshkent . "O'qituvchi". 2013

JANUBIY KOREYA TA'LIM TIZIMI

*Murtazayeva Sevinch Husniddin qizi  
Aminjonova Shahribonu Husniddin qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim tizimi sifatini mazmun jihatdan zamon talabiga mos yangilab borish va jahon tajribalarida eng ilg'or ta'lim sohasi yutuqlarini o'rganish, ulardan o'z milliy xususiyatlarimizga mos jihatlaridan foydalanish borasida fikr-mulohazalar aks ettirilgan. Xususan, dunyoda rivojlanish darajalari yuqori ko'rsatkichlarni egallagan Sharqiy Osiyodagi Janubiy Koreya ta'lim tizimi tajribasi, rivojlanishi va sifat ko'rsatkichlari tarixiy jarayonlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari, monitoring, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim bosqichlari, ilmiy tadqiqotlar, ta'lim sifati ko'rsatkichlari.

**KIRISH**

Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib yurtimizda bugungi kunda ta'lim mazmuni samaradorligini oshirish, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadida rivojlangan mamlakatlar hamda yurtimizdagi chet tillari bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimining davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish tajribasi, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumta'lim fanlari bo'yicha uzluksiz ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihalari va uni amaliyotga tatbiq etish kabi vazifalari turibdi.

**ADABIYOTLAR SHARHI**

Vatanimizdagi ta'lim sohasi rivojlanishida biz albatta rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalaridan o'zimizga mos vaziyatlarda foydalanishga katta e'tibor bermoqdamiz. Shu boisdan davlatimizda tashkil etilgan dunyoning eng salohiyatli oliy o'quv dargohlaridan Angliyaning Vestministr universiteti, Italiyaning Turin politexnika instituti, Singapur menejmentni rivojlantirish oliygohi, Janubiy Koreyaning INXA kommunikatsion texnologiyalar universiteti, Rossiyaning Gubkin nomidagi neft va gaz universiteti, Lomonosov universiteti va G.V.Plexanov nomli iqtisodiyot universiteti filiallarining tashkil etilgani ham ta'lim tizimining jahon talablariga mos rivojlanishi omili hisoblanadi.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Dunyoda ta'lim yo'nalishida Janubiy Koreya ta'lim sohasi yetakchi o'rinni egallab, ilmiy salohiyatlari ham shiddat bilan yuksalib bormoqda. Bu fikrlar isboti sifatida Ilmiy yuksalishni baholash xalqaro tashkiloti (IAEP) tomonidan 2015 yilda 19 mamlakat talabalari orasidan 18 yoshli o'smirlar uchun egallangan ta'lim sifatini ifodalovchi monitoring tadqiqotlarida Janubiy Koreya yoshlari birinchi o'rinni egalladilar. Bu xalqaro yutuq sifatida mamlakat milliy iftixori deb baholandi. Bunga hukumatning ta'lim siyosatini to'g'ri olib borayotgani sabab deb topildi. Ta'lim tizimi natijalari albatta o'z tarixiy rivojlanish davriga ega bo'lib, bu jarayonni mulohaza qilib ko'ramiz.

Janubiy Koreya davlatining ta'lim tizimi tashkil topgan ilk damlar 1948 yildan 1970- yillargacha mustaqil davlat tizimini yaratish jarayoni edi. 1970-yillarga kelib kadrlar siyosati asosi sifatida ta'lim siyosatiga asosiy e'tibor berila boshlandi. Janubiy Koreya hukumati tomonidan yalpi milliy mahsulotning 4,5 foizi ta'lim sohasi rivojlanishi uchun ajratildi. 1973 yildan ilmiy-texnikaviy ta'limni rivojlantirish maqsadida texnika bilim yurtlari tashkil etildi [2]. 1985 yilga kelib bu bilim yurtlari oliy o'quv yurtlari sifatida rivojlantirilib, 4 yillik ta'lim muddati belgilandi. Maktablarda ta'limga butun aholini jalb etish maqsadida sinflar 40, 50 nafar o'quvchilarga mo'ljallandi. Ta'lim sifatiga ham katta e'tibor berilib, xorijdan malakali o'qituvchilar jalb etildi. Bu siyosat xalqaro ta'lim tadqiqotlarida Janubiy Koreya ta'limini yuqori baholadi. Mutaxassislar bu yutuqning omilini koreys xalqining konfutsiylik madaniyatiga xos bo'lgan mehnatsevarlik, bilimga bo'lgan intilish kabi sifatleri yuqori darajada ekanligi bilan izohladilar.

Janubiy Koreya davlati shunchalik qashshoq ediki, jon boshiga yillik daromad 200 AQSh dollariga to'g'ri kelib, maktablar va pedagoglar uchun ortiqcha resurslar jalb etilmasdi. Oilalarda yashash maqsadida bolalar ishlashga majbur edilar. 1945 yilda yapon mustamlakasidan so'ng Janubiy Koreyada zamonaviy maktab tizimini boshqarish uchun tajriba va ko'nikmalar mavjud emas edi. O'tgan asrning 50-yillarida Koreya yarimorolidagi 3 yillik qonli koreys urushi yangi shakllanib kelayotgan ta'lim strukturasi to'xtab qolishiga sabab bo'ldi. 1970-yillarga kelib Janubiy Koreyada ta'limning rivojlanishi boshqa rivojlangan davlatlar tizimidan import qilish ko'rinishida shakllandi. Janubiy Koreyada bu holat asosan AQSh ta'siri negizida yuz berib, bu paytda zamonaviy ilm va matematikaning ilmiy lug'atlari koreys tilida mavjud bo'lmagan edi [3]. XIX asrning oxirlarida Koreya 400 yillik tashqi aloqalardan uzilib qolgan davlat sifatida uzoq muddatli g'arb sanoati sivilizatsiyasi muammolarini yechish maqsadida og'ir davrlarni boshdan kechirdi. Missionerlar tomonidan zamonaviy ta'lim dasturlari tashkil etildi, lekin maktab tizimi asoslari hukumat tomonidan shakllantirildi. 1905 yilda Koreyada Yaponiya protektorati o'rnatilishi va



1910 yildagi mustamlaka sifatidagi hukmronliklar zamonaviy ta'lim tizimi shakllanishiga to'siq bo'ldi. Lekin Yaponiya kolonial tizimi boshqa koloniyalardan farqli o'laroq, aholini ta'lim tizimi bilan ta'minladi. Bu ta'lim etnik yapon madaniyatini targ'ib etuvchi g'oya asosida shakllantirilgan. Yapon ta'lim tizimi koreyslarda ta'lim olish va savodxonlik darajasini oshirishga xalaqit bermadi. 1942 yilga kelib 40% aholi boshlang'ich maktablarda o'z savodini chiqardi. 5%dan ortiq koreyslar o'rta maktablarda bilim olishni davom ettirdilar. Hozirgi kundagi yirik ilm maskanlaridan biri bo'lgan Keyo imperatorlik universiteti 1924 yilda Seulda Koreya yarimorolida yaponlar savodxonligini oshirish maqsadida tashkil etilgan bo'lsa-da, tub aholining ta'lim taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan.

Xususiy maktablar davlatning bepul maktablaridan ancha qimmat bo'lgan bo'lsa ham aholining ko'pchilik qismida xususiy maktablarga qiziqish yuqori edi. Lekin barcha maktablar bir xildagi darslik, o'quv qo'llanmalardan foydalangan. O'qituvchilar xam yagona ta'lim boshqarmasi roziligi bilan ishga qabul qilingan. 1970-yillarda hukumat tomonidan ta'lim tizimidagi islohotlar asosan aholining 70%ini savodli qilish maqsadida amalga oshirildi. O'quvchilarni bilimga qobiliyatlari bo'yicha o'rta maktab bosqichidan o'zlashtirish darajasiga qarab ixtisoslashtirish kadrlar siyosatiga ko'ra amalga oshirildi.

Janubiy Koreyada majburiy umumiy o'rta ta'lim 6 yildan iborat bo'lib, ta'lim 7 yoshdan boshlanadi. Ta'limning keyingi bosqichi bo'lgan kasbga yo'naltirish Janubiy Koreyada 13 yoshdan boshlanadi. O'zbekistonda esa o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi 16 yoshdan boshlanadi.

Janubiy Koreyada oliy ta'lim tizimida ham o'z nufuziga ega bo'lgan universitetlar paydo bo'lib, bu kadrlar tayyorlashning muhim yo'nalishlarini yuzaga keltirdi. Jamiyatda eng yaxshi ish o'rinlari Seul universiteti talabalariga nasib qilishi uning boshqa universitetlar nufuzidan balandligini belgilab, universitetga eng yaxshi maktab o'quvchilari talabalikka qabul qilingan. Bu jihat Yevropadagi ta'lim tizimiga xos tabaqalanish usuli edi. Bu aholi o'rtasida Yevropa madaniyatiga intilishni keltirib chiqardi va so'nggi yillarda Janubiy Koreya ta'limiga Yevropa ta'lim tizimining xususiyatlari import qilina boshlandi. Lekin turli ijtimoiy sinflar mavjudligi maktablarda aholini qamrab olish darajasining qoniqarli emasligini keltirib chiqardi.

1969 yildan hukumat tomonidan o'rta maxsus ta'lim tizimiga imtihonlar orqali qabul qilishning kuchaytirilganligi 1980 yilga kelib ushbu tizim talablarining aniq analogik o'lovlarini shakllantirdi. Shahar va qishloq maktablaridagi ta'lim darajalari farqlanishi saqlanib qolindi. Poytaxt Seulda ta'lim sifati boshqa hududlarga nisbatan yaxshilanganligi aholining ta'lim olish uchun poytaxtga intilishiga olib keldi [4]. Janubiy Koreyada bizning mamlakatimizdan farqli o'laroq, ta'limni boshqarish strukturasi barcha tizimlar uchun yagona bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy

ta'lim tizimlari vazirligidan iboratdir. 1980 yildan hukumat iqtisodiyotni yaxshilash maqsadida ta'limga e'tiborni kuchaytirdi. Buning natijasida 1990 yilga kelib savodxonlik darajasi 98,5%ni tashkil etdi. 1990 yilda Koreya hukumati yalpi milliy mahsulotning 4,5%ini ta'limga yo'naltirgan bo'lib, bu Tayvanga nisbatan 3,6%ga yuqori bo'lgan. Lekin Yevropada bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lib, bu Vengriyada 6,1%, Fransiyada 7,5%ni tashkil etgan [5]. Shunday bo'lsa-da, koreys xalqining ta'lim olishga e'tibor qaratayotganligi mamlakatning barcha sohalarda erishayotgan yutuqlarida ham ko'rinib turibdi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Bugungi kunda Janubiy Koreyada ta'lim tizimida erishilayotgan yuqori ko'rsatkichlar omili mutaxassislar tomondan quyidagi xususiyatlarga bog'liq, deb ko'rsatilmoqda:

➤ Koreya xalqida ta'limga bo'lgan ishtiyoqning balandligi. Bu xususiyat 1994 yilda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalarda (Clark W.Sorensen) aks etgan. Yuqori sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan so'rovnomada 78,7% respondentlar o'rta maxsus ta'limni amaliy ehtiyoj deb bilganlar, 12,7% respondentlar esa ixtiyoriy va 5% respondentlar ota-onasining istagi bilangina o'qishayotganini aytganlar. Bu esa Koreya yoshlarida ta'limga bo'lgan ishtiyoqning balandligi belgisidir.

➤ Janubiy Koreyadagi ta'lim tizimida pedagoglarning aksariyati erkaklardan iborat bo'lganligi xususiyati tizimning qat'iy rivojlanishi omili bo'lib xizmat qilgan, deya baholanmoqda. Hozirgi vaqtda ota-onalar talablariga binoan boshlang'ich sinf o'qituvchilari asosan ayollardan tashkil topmoqda. Bu jihat Koreyada maktab ta'limi insonlarning shaxs sifatida shakllanishini yuzaga keltiruvchi omil bo'lganligini bildiradi.

➤ Darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlar. O'tkazilgan so'rovnomalarga ko'ra, 1980 yilda 61% o'quvchilar darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulot olishlariga to'g'ri kelgan. Buning salbiy oqibati sifatida 14% o'quvchilar asab kasalliklari va zo'riqishlarga uchranganlar. Ta'lim vazirligining tadqiqotlariga ko'ra, repetitorlar tomonidan olingan daromad har yili 327 milliard von (400 mln AQSh dollari)ni tashkil etgan bo'lib, davlat budjetining 30%ga yaqin ekvivalenti va milliy daromadning 6%iga to'g'ri kelgan. 1992-yillarda darsdan tashqari mashg'ulotlarga ota-onalar oyiga o'rtacha 280000 von (364 AQSh dollari) sarflashgan.

➤ Janubiy Koreya yoshlarining ta'limga ko'p vaqt sarflashi xususiyati koreyalik o'quvchilarning qo'shimcha ta'lim yoki amaliyot uchun maktabdan tashqari bir necha soat vaqtlarini ajratishlarida kuzatiladi. Lekin bu xalqaro tadqiqot anketa so'rovlarida o'z aksini topmagan, ya'ni qo'shimcha darslar uyga vazifa sifatida qabul qilinadi. O'quvchilar o'z ustida ko'p ishlaganlari sababli maktabda yoki ta'lim tizimidagi mavjud muammolar o'z yechimini topadi. Bunda ularning ota-onalari ham yordam

berishadi. Janubiy Koreyaning ta'lim tizimi erishgan yutuqlar milliy xususiyatlarga mos ravishda bo'lib, uni O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy etsa bo'ladigan jihatlarini amaliyotda sinab ko'rish mumkin.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Janubiy Koreya ta'limining tarixiy an'analari / I.A.Tolstokulakov.2018
2. Ta'lim tizimi va Koreya Respublikasi o'rta maktabining nazariyasi va amaliyotida o'qitish maqsadlari / A.N.Lankov, G.V.Mikaberidze.2016
3. Janubiy Koreyada ta'limni rivojlantirish tendensiyalari / E.H.Lim. 2014
4. Janubiy Koreyadagi ta'lim tizimining siyosati va rivojlanishi / B.G.Chung.2017
5. Ta'lim sohasidagi davlat siyosati, ta'lim sohasidagi islohotlarni boshqarish tajribasi / S.-I. Park. 2018
6. Jahon ta'lim tizimi. O'quv uslubiy majmua. / Miraliev D /T.: Iqtisodiyot.,2016

## YAPONIYA TA'LIM TIZIMI

*Bazarova Moxinur Zokir qizi  
Ortiqov Kamron Umarbek o'g'li*

*Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida o'tkazilayotgan islohotlarning maqsadi mamlakat ta'limini yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning boy va qadimiy me'rosi, pedagogik tajribasidan samarali foydalanish, shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganib, eng foydali ta'lim uslub va metodlarini o'zlashtirishdan iboratdir. Maqolada o'z tarixida ta'lim tizimidagi islohotlar evaziga yuqori taraqqiyotga erishgan mamlakatlarda biri sifatida Yaponiya ta'lim tizimi haqida so'z boradi. O'ylaymizki, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va tahlil etish bugungi kunda mamlakatimiz ta'limida kechayotgan islohotlarni teranroq tushunishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tizimi, pedagogik tajriba, pedagogik metodlar, jamiyat, ta'lim. tarbiya, rivojlangan mamlakatlar tajribasi, "Meydzi islohotlari" yapon tarbiyasi, xalqning qadimiy me'rosi, taraqqiyot.

### KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida o'tkazilayotgan islohotlarning maqsadi mamlakat ta'limini yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning boy va qadimiy me'rosi, pedagogik tajribasidan samarali foydalanish, shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganib, eng foydali ta'lim uslub va metodlarini o'zlashtirishdan iboratdir.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimiz, tomonidan ta'limga qaratilayotgan e'tibor alohida e'tirofqa sazovordir, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarining qayta qurilayotganligi, moddiy-texnik jihatidan jihazlanayotganligi, yangi tipdagi maktablar tashkil etilayotganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish masalasi ustuvor vazifa qilib belgilangan [2].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Prezidentimiz, mamlakat rahbariyati tomonidan o'qituvchilarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi sha'ni, hurmatini o'rniga qo'yish, ularni rag'batlantirish borasida qilinayotgan sa'yi-harakatlar bugungi kunda ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarning o'z kasbidan faxr-iftixor tuyg'ularini tuyishlari bilan bir qatordaularning jamiyat oldida yuksak mas'uliyati mavjud-ligidan dalolat beradi. Bu say'i-harakatlar jamiyatdagi ta'limga, maktabga va o'qituvchiga bo'lgan munosabatni o'zgartirishga, eski tizimning ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan voz kechishga qaratilgan muhim qadamdir.

O'z tarixida ta'lim tizimidagi islohotlar evaziga yuqori taraqqiyotga erishgan mamlakatlar tajribasini o'rganish bugungi kunda mamlakatimiz ta'limida kechayotgan o'zgarishlarni teranroq tushunishga yordam beradi.

Shunday mamlakatlardan biri Yaponiyadir. Biz Yaponiya tajribasiga murojaat qilishimizning boisi shundaki, yapon millatining urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini, oilaviy munosabatlari xalqimiz qadriyatlariga yaqindir. Aslida, yapon tili turkiy tillar mansub bo'lgan Oltoy tillari oilasiga kiradi. Shuning uchun xalqlarimiz orasida umumiylik bo'lishi tabiiy holdir.

Yaponiya ta'limidagi islohotlar 1867-1868 yillarda boshlangan. Bu davr tarixda "Meydzi erasi" deb yuritiladi. Mamlakatda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar boshida Yaponiyaning 122 chi imperatori Musuxito turadi.

1872 yilda Yaponiyada «Ta'lim haqida Qonun» qabul qilindi. Bu qonunda Yaponiya ta'limi G'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirildi. Yaponiya konstitutsiyasining 26-moddasiga 1947 yilda o'zgartirish kiritilgan, bunga muvofiq ta'lim olish huquqi quyidagicha tahrir etilgan: «Barcha qonunda ko'zda tutilgan tartibda, o'z qobiliyatiga mos ravishda ta'lim olish huquqiga ega. Barcha o'z qaramog'ida bo'lgan bolalarning majburiy ta'lim olishini ta'minlashi zarur. Majburiy ta'lim bepul amalga oshiriladi» [6].

Ta'lim-tarbiya jarayoni be'vosita oiladan boshlanadi. Yapon oilasidagi milliy qadriyatlar o'zbek oilalaridagiga o'xshash. Ya'ni, katta yoshlilarga nisbatan hurmat-ehтиrom, o'g'il bolalar va qiz bolalar tarbiyasiga alohida yondashuv (o'g'il bolalarni oila tayanchi sifatida tarbiyalashsa, qiz bolalarni ko'proq uy yumushlariga o'rgatishadi) mavjud.

O'g'il bolalar uchun uyushtiriladigan "o'g'il bolalar kuni" milliy bayramida turli rangdagi "karp"(sazan) balig'i rasmini osmonga ko'tarishadi

– bu baliq uzoq vaqt oqimga qarshi suza oladi va kelajakda hayotiy qiyinchiliklarni yengib o'tishi lozim bo'lgan erkaklar yo'lini aks ettiruvchi timsol bo'lib hisoblanadi. Maktabda ham o'g'il bolalar va qizlar o'rtasidagi farq yaqqol



namoyon bo‘ladi – o‘g‘il bolalar darsdan so‘ng ta‘lim jarayonini turli to‘garaklarda davom ettirsalar, qizlar be‘malol yemakxonada o‘tirishlari mumkin [7].

Zamonaviy yapon oilasi bir qancha o‘ziga xoslikni saqlab keladi, ularning eng asosiysi – patriarxallik. An‘anaviy yapon oilasi bu – ona, ota va ikki farzand. Avvallari oilaviy rollar aniq differensiyalashgan edi: er – boquvchi, xotin – uy bekasi, ammo keyingi paytlarda g‘arb madaniyatining ta‘siri sezila boshladi, yapon ayollari oilaviy majburiyatlarni ish bilan qo‘shib olib borishga harakat qilishmoqda, ammo erkaklar bilan tenglashishga ularga hali ancha bor, hozirda ham ularning asosiy vazifasi uy va bolalar tarbiyasi, erkaklar esa doimo ish bilan band.

Go‘daklik davrida yaponlar bolaga hech narsani ta‘qiqdashmaydi, kattalardan ular faqat “xavfli”, “yomon” kabi ogohlantirishlarni eshitishadi. Agar bola baribir qoqilib yiqilsa, ona o‘zini aybdor his qiladi va uni ehtiyot qilolmagani uchun bolasidan kechirim so‘raydi. Bolalar yura boshlaganda ularni hech qachon qarovsiz qoldirishmaydi. “Hamma narsa mumkin” bo‘lgandavr faqat 5 yoshgacha davom etadi. Shu davrgacha yaponlar bolalarga “podshoday” munosabatda bo‘lishadi. 5 yoshdan 15 yoshgacha esa “quldek” munosabatda bo‘lishadi. Keyin esa “do‘st” bo‘lishadi. Bu sharqona hikmat bizga ham notanish emas, ammo farqi shundaki, yaponlar bunga qat‘iy rioyaetishadi. 15 yoshli o‘smir o‘z majburiyatlarini yaxshi biladigan, qoidalarga qat‘iy rioya etadigan “katta odam” sifatida qabul qilinadi.

Yapon pedagogikasining asosiy vazifasi – jamoa bilan yakdil mehnat qila oladigan insonni tarbiyalashdir. Bolalarni ochiq raqobat qilishdan qochishga o‘rgatishadi, chunki birining g‘alabasi boshqasining mag‘lubiyatidir.

Shu o‘rinda, yapon bog‘chalariganing o‘ziga xos tomonlariga ham e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta‘lim muassasalarining 59,9 foizi xususiy, 40,8 foizi munitsipal, 0,3 foizi esa davlat muassasalaridir. Bolalar 3-5 yoshdan bog‘chaga borishadi. Ularni 8 kishilik guruh(xan)larga biriktirishadi. Yapon bog‘chalarida bolaning “o‘z ish joyi” mavjud, ya‘ni yapon bolalari bog‘chaga “ishga” borishadi. Bu holat ularda go‘daklikdan mas‘uliyat hissini tarbiyalashga qaratilgan. Avval ta‘kidlaganimizdek, guruhlarda individuallikdan ko‘ra jamoaviylikni tarbiyalashga ko‘proq ahamiyat berishadi. Har besh oyda bolaning guruh(xan)i o‘zgartiriladi. Agar bola 2yil bog‘chada bo‘lsa, demak u 4 ta guruhga qo‘shiladi. Turli xarakterdagi bolalar bilan muloqotga kirishuv hamda birgalikdagi faoliyat bolada kelajakda ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bizda ota-onalar ko‘pincha bolani bir guruhdan boshqa guruhga o‘tkazishga qat‘iy qarshilik ko‘rsatishadi. Ammo, ilk bolalik davrida bola psixologik jihatdan ancha egiluvchan, moslashuvchan bo‘lib, o‘zgarishlarga tez ko‘nikadi, shu xususiyatdan foydalangan holda bolalarda ijtimoiy adaptatsiyani rivojlantirish masalasi shaxs shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta‘lim muassasalari tarbiyachilari bilan suhbatda ayrim bog‘chalarimizda

xuddi shunday tajriba joriy etilayotganligi aytib o'tishdi. O'ylaymizki, yuqoridagi tajribani boshqa muassasalarda ham ommalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yaponiyada o'qiyotgan o'quvchilar maktabga tegishli bo'lgan kuchli muhabbat tuyg'usiga ega, ular maktabga nisbatan hech qachon o'zlarini begona odamlar kabi his qilmaydi. Yaponiyada o'quvchilarasida maktabda o'zini baxtli his qiladi (ularning 85 foizi).

maktabda farroshlar yo'q – sinfni (maktabbinosini) bolalar toza tutadilar.

odatda zaxira o'qituvchilar yo'q, mabodo o'qituvchi kasal bo'lib qolsa, bolalar sinfdan o'zlari shug'ullanadilar ularga hech kim qaramaydi.

yuqori sinf qizlariga sochni yoyib yurish va dekorativ kosmetikadan foydalanish man etiladi. Ular tizzadan pastga tushadigan yubka kiyishadi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Ta'lim Yaponiyada oila, jamiyat va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan – "iloh" darajasiga ko'tarilgan, chunki, mamlakatda qabul qilingan "umrbod yollanish" tamoyili insonga jamiyatda munosib joyni egallash uchun faqat bir marta imkoniyat beradi va yaxshi ta'lim olish shu imkoniyatni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun kafolat yaratadi.

Yapon maktablarining an'anaviy maqsadi ta'lim berishdan ko'ra ko'proq tarbiyalashga qaratilgan, zero, xalq orasida "olim bo'lishdan ko'ra yaxshi odam bo'lish afzalroqdir", degan ibora mavjud. Bu maqsad kichik maktab yoshidagi sinflarda o'quv rejalariga kiritilgan maxsus fanlar orqali amalga oshiriladi.

Insonning shaxs bo'lib shakllanishi jarayoni, uning xalq an'anaviy madaniyatiga oshno bo'lishi, kichik yoshdan boshlab qabul qilingan me'yorlarga o'rgatilishi o'zining ijobiy natijasini beradi. Yaponiyada bolalarda o'z mamlakati an'analarga nisbatan bog'liqlik hissini shakllantirish maqsadida ular uchun juda ko'plab bayramlar tashkil etiladi [4].

Kunchiqar mamlakatida bugungi kun dunyo mamlakatlari uchun umumiy bo'lgan, yoshlarning kattalar tanqidini qabul qilmaslik holatlari, kattalarga, shu jumladan, ota-onalarga nisbatan agressiv munosabatlar, o'smirlar o'rtasida suidsidning o'sishi kabi bir qancha salbiy holatlar ham uchraydi, albatta. Ammo, o'rtadagi farqlarga qaramasdan, yaponlardan bolalarga nisbatan g'amxo'rlik, yangi avlod muammolariga e'tibor, ota-onalarning bola taqdiri uchun yuqori mas'uliyati, oilaviy an'analarga bo'lgan hurmat kabi sifatlarni o'rnak sifatida qabul qilsa arziydi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida kechayotgan islohotlar xalqimiz tomonidan juda ijobiy qabul qilinayapti. Ta'limga nisbatan bo'lgan dunyoqarash o'zgarib bormoqda. Albatta, biz dono xalqimiz asrlar davomida ta'lim-tarbiya sohasida erishgan katta bilim hamda tajribalarga asoslanamiz, ammo taraqqiy etib borayotgan dunyo

ta'lim- tarbiya sohasida ham yangi, innovatsion g'oyalar, noan'aviy yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Mazkur o'zgarishlarga xolisona baho berish, kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun biz ta'lim sohasidagi xorijiy mamlakatlar tajribasini har tomonlama o'rganishimiz va ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishda muhim sanalgan xulosalar chiqarishimiz foydadan xoli bo'lmaydi, deb o'ylaymiz.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.
2. Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Lex.uz
3. Koretskaya, S.V. An'anaviy madaniyatlarda oilaviy ta'lim: Yaponiya va Shimoliy Kavkaz materiallari haqida / S.V. Koretskaya. – pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. - Vladikavkaz, 2013 yil.
4. Nakasone Ya. Yaponiyaning 21-asrdagi davlat strategiyasi: Per. yapon tilidan M., 2011 yil.

## ARAB DAVLATLARIDA TA'LIM TIZIMI

*Valimuxamedova Muqaddas*

*Alisher Navoiy nomidagi*

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Yaqin Sharqda BAAning ta'lim tizimi halqaro dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan eng zamonaviy va samarali tizim sifatida mamlakatning faxri hisoblanadi. Bu tizimda mamlakat nufuz va talabgorlik darajasida dunyo reytingida yetakchilardan hisoblanadi. Maqolada BAA dan tashqari qator arab mamlakatlari ta'lim tizimi muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, arab davlatlari, imkoniyat, strategiya, moliya, metod.

### KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yoshlarni jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi, kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jabhadagi ezgu sa'yi harakatlar bugun ham izchil, shiddatli davr talabiga hamohang tarzda davom ettirilmoqda. Ta'lim tizimini yanada isloh qilish, amalga oshirilayotgan islohotlarni izchillik bilan davom ettirish orqali tizimning samaradorligini yanada oshirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan birihisoblanadi.

“Biz professional ta'lim tizimini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, shuningdek, yuqori malakali mutaxassislarni zamon talablaridan kelib chiqib, iqtisodiyotimiz ehtiyojlari uchun IT va muhandislik yo'nalishlariga ixtisoslashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgiladik. Masalan, Birlashgan Arab Amirliklari hukumati bilan birgalikda amalga oshirilayotgan “Bir million dasturchi” loyihasi ushbu yo'nalishdagi amaliy harakatlarimiz namunasi. Maqsadimiz – iqtisodiyotimizning “drayver” tarmoqlarini yetuk va malakali mutaxassislar bilan to'liq ta'minlashdan iborat.

Birlashgan Arab Amirliklarida ta'lim davlatning rivojlantirish siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Davlat tashkil etilgandan buyon mamlakatda milliy ta'lim masalalari eng ustuvor maqomga ega. Davlat budjeti xarajatlari jihatidan ta'lim harbiy-sanoat kompleksidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Amaldagi qonunchilik har bir fuqaroning o'rta ta'lim olishini ta'minlash majburiyatini nazarda tutadi. BAA ta'lim tizimi ko'pgina yevropa mamlakatlari qatori tizimlashgan va bir necha bosqichlarni o'zi ichiga oladi. O'rta ta'lim majburiy ta'lim sifatida o'qitiladi va qonuniy tarzda asoslangan bo'lib, 12 yil davom etadi.

## **ADABIYOTLAR SHARHI**

Birlashgan Arab Amirliklari majburiy talim tizimi bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- \*Maktabgacha ta'lim muassasasi;
- \*Boshlang'ich maktab;
- \*Tayyorlov maktabi;
- \*O'rta yoki bitiruv maktabi;
- \*Professional- texnik o'quv yurtlari;
- \*Oliy o'quv yurtlar.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Boshlang'ich ta'limdan so'ng bitiruvchilar oliy yoki o'rta ta'limni ixtiyoriy tanlashlari mumkin. Ushbu maqsadlar uchun maxsus maktab va universitetlar mavjud. Malaka oshirish yoki qo'shimcha ta'lim olishni xohlovchi fuqarolar maxsus o'quv markazlarida o'qitiladi. Ta'kidlash joizki, mamlakat fuqarolari uchun boshlang'ich, kasbiy va oliy ta'limning barcha turlari bepul. Birlashgan Arab Amirliklari ta'lim tizimi endigina shakllanayotganiga qaramasdan so'nggi yillarda ijobiy suratda jadal rivojlanmokda.

Bugungi kunda Amirlik mintaqada oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirayotgan bitiruvchilar borasida eng yuqori ko'rsatkichlar ulushini egallamoqda. Mamlakat xukumati yaxshi ta'limni professional va barcha sohalarda yetuk, raqobatbardosh mutaxassislarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratib keladi. Shuningdek, BAA hududida joylashgan xalqaro oliy ta'lim muassasalariga ham alohida e'tibor qaratiladi. Dubay va Abu Dabi universitetlari o'zlarining yuksak me'yorlar va ulkan salohiyati bilan tanilib ulgurgan univeritetlardan hisoblanadi. Mamlakat ta'lim tizimi sohadagi istiqbolli tadqiqotlarni moliyaviy bazasini shakllantirish va rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Ular orasida texnik fanlar va korporativ boshkaruv, farmakalogiya va tibbiyot sohalari bor.

BAA universitetlarida eng mashhur yo'nalish va fakultetlar quyidagilar:

- \*Bank ishi;
- \*Arxitektura;
- \*Turizm;
- \*Neft qazib olish;
- \*Iqtisodiyot;
- \*Biznes;
- \*Medejment;
- \*Marketing;
- \*Informatsion texnologiyalar va hakazo.



Bundan tashqari, ushbu oliy o'quv yurtlarining diplomlari butun dunyo bo'yicha qabul qilinadigan standartlar darajasini olgan. Birlashgan Arab Amirliklari Osiyo mamlakatlari orasida sivilizatsiyalashgan, dunyoning ilg'or tajribalarini o'zlashtirayotgan davlat bo'lib kelmoqda. Hozirgi kunda mamlakat aholisining bilim darajasi rivojlangan mamlakatlardan kam emas. Xukumat mamlakat axolisining keng miqyosli ta'lim olishi bilan birga o'z madaniy qadriyatlarini asrab-avaylashini ta'minlash uchun ko'plab yirik loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.

Arab mamlakatlari orasida Saudiya Arabistoni ta'lim tizimi alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston tomonidan ushbu mamlakat bilan ta'lim tizimidagi aloqalar yo'lga qo'yilgan. Jumladan 2022-yilda O'zbekiston Respublikasining Jidda shahridagi Bosh konsulxonasi vakillari Jidda shahridagi Podshoh Abdulaziz nomidagi universitet rektori Abdurrahmon bin Ubayd al-Yubi bilan uchrashdi. Suhbat chog'ida Saudiya tomoniga O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ta'lim tizimini takomillashtirish, professor-o'qituvchilarga munosib sharoitlar yaratish borasida olib borilayotgan izchil ishlar haqidagi ma'lumotlar taqdim etildi.

Uchrashuv doirasida Saudiya tomoniga O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari, xususan Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti bilan Podshoh Abdulaziz nomidagi universitet o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish, o'qituvchi va talabalar almashuvini yo'lga qo'yish taklif etildi. Bunga javoban rektor A.al-Yubi turli sohalarda mamlakatimiz oliygohlari bilan hamkorlik o'rnatishga qiziqish bildirdi.

Muloqot yakunida Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti va Podshoh Abdulaziz nomidagi universitet o'rtasida o'zaro hamkorlik yo'nalishlarini muhokama etish maqsadida ikki oliy ta'lim muassasalarining mas'ullari o'rtasida onlayn uchrashuvlar tashkil etishga kelishib olindi.

Saudiya Arabistonga chetdan o'qish uchun borganlarga birinchi navbatda ingliz tilini bilgani muhimroq. Sababi ko'pincha ularni ishga yollash vaqtida, ayniqsa oliy ma'lumotli insonlar chaqirilayotganida ularning ingliz tilisiga e'tibor beriladi. Qolaversa, arab tilini bilgani ham foydadan xoli emas, bu ular uchun ijobiy natija olishida ko'mak beradi.

Saudiya Arabistonida o'qishning salbiy ko'ringan bir jihati bor. Bilamiz, u yerdagilar hanbaliya mazhabiga amal qiladi. Saudiya Arabistoniga borganlar bu mazhabni yanayam chuqurroq va yaxshiroq o'rganishadi, yurtiga qaytganda esa shundan kelib chiqib, boshqalarga o'rgatishni, fatvo berishni boshlaydi. Aslida esa hanbaliya mazhabi ulamolari nazdida bu noto'g'ri hisoblanadi.

Yoki u yerdagi aqidaviy qarashlar bizning yurtimizdagidan farq qilishi ham mumkin. Bu ham muammoli nuqta sifatida ko'rilishi mumkin.

Ijobiy nuqtalarni ko'radigan bo'lsak, u yerga o'qish uchun borganlar payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam yashagan shaharda bo'lish

imkoniyatiga ega bo'ladi. Masjidi Nabaviyda namoz o'qiydi, istagan vaqtida Umra ziyoratini ham o'taydi, yaxshi ibodatlar qiladi, ko'plab olimlar bilan tanishadi.

Qolaversa, Saudiya Arabistoni universitetlarida, ayniqsa, Madina Islom universitetida hanafiylik mazhabi o'rgatiladi. Ya'ni universitetning asosiy kursi sifatida emas, qo'shimcha to'garaklarda o'rgatiladi.

Tolibi ilm ahli uchun barcha sharoitlar yaratilgan, buning uchun katta-katta olimlar ham jalb qilingan. Ya'ni o'qish vaqtida hanbaliylik, o'qishdan tashqarida hanafiylik mazhablarini o'rganishlari mumkin. Bu esa ularning ham ilmi yanada kengayishiga xizmat qiladi.

U yerda tahsil olishning yana bir ijobiy tomoni – Saudiya Arabistonining diplomlari O'zbekistonga ham o'tadi. O'qishni tamomlagach, vatandoshlar yana yurtiga qaytib, magistratura yoki doktoranturani ham davom ettirishlari mumkin.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Bugungi kunda arab mamlakatlari nafaqat diniy ta'lim, balki duynoviy ta'lim berishda ham yuqori o'rinlarda qayd etilmoqda. Ta'kidlash lozimki, bu darajaga erishishda davlatning qo'llab-quvvatlashi, yuqori darajali infrastruktura hamda izchil yangiliklar sabab bo'ldi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ta'limning xalqaro standart tasnifi (ISCED-2011)
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining sayti
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. Natlib.uz

УЎТ:631.8/635.21

**ҚОВУН, ТАРВУЗ ҲОСИЛДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ҚЎЛЛАНИЛГАН  
УРУҒДОРИЛАГИЧЛАРНИ, МЕВАЛАРНИ ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРИГА  
ТАЪСИРИ**

*Ахмедова Муниса Абдимажитовна*

*Сабзавот, полиз экинлари ва картошкачилик*

*илмий тадқиқот институти докторанти*

*zash.ras2018@mail.ru*

**Аннотация.** Ушбу мақолада қовун, тарвуз уруғларига уруғдорилагичлар билан ишлов берилганда, меваларни хўжалик белгилари кўрсаткичларига таъсирини аниқлаш лаборатория ва дала шароитида ўтказилган тажрибалар натижалари таҳлил қилинади.

**Калит сўзлар:** қовун, тарвуз, уруғ, препарат, мева вазни, мева эти, мева бўйи, таркибида эрувчан қуруқ модда, этининг тифизлиги.

**Кириш.** Ўзбекистонда сабзавот очик майдонда 344,8 минг/га, полиз 82,7 минг/га, картошка 115,5 минг/га, помидор 50,0 минг/гадан ортик майдонларга экилади. Аммо кейинги йилларга келиб олинадиган ҳосилдорлик касалликлар таъсирида бир мунча камайиши ва маҳсулотни сифатини бузилишига олиб келмоқда.

Мамлакатимизда 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида «...мева, сабзавот ва полиз экинларини етиштириш ва уларни қишдан сақлаш даврида пайдо бўладиган зараркунанда ва касалликлардан ҳимоя қилиш» бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилган. Бу муаммони тез суръатларда ижобий ҳал қилиш учун қишлоқ хўжалик экинларини зараркунанда ва касалликларга чидамли шу муҳитга мослашган янги навларни яратиш, қишлоқ хўжалик экинларида кенг тарқалган ва уларга кўп зарар етказадиган касаллик қўзғатувчи замбуруғ турларига қарши самарали кураш тадбирларини ишлаб чиқиш жуда муҳим ва долзарб муаммолардан ҳисобланади.

Бу борада, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2018 йил 29-30 ноябрдаги Хоразм вилоятига ташрифи давомида берилган топшириқлар ва 30 ноябрь куни Ҳалқ депутатлари вилоят кенгашининг навбатдан ташқари сессияси йиғилиш баёнининг 47-бандида қовуннинг очик майдонларда ва иссиқхоналарда етиштиришга мўлжалланган экспортбоп навлари уруғларини етарли миқдорда етиштиришни таъминлаш борасида топшириқлар берилди.

Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш борасидаги қарорлари ва комплекс чора-тадбирлари – аҳолининг соғлом турмуш тарзини таъминлайдиган даражада ҳаётий зарур озиқ-овқатларга бўлган эҳтиёжларини кафолатли таъминлашга йўналтирилган.

**Тадқиқот услуги.** Очиқ майдондаги тажрибалар асосан институтнинг Тошкент вилоятида жойлашган тажриба хўжалигида, кичик майдонларда ўтказилди. Бунда Белик В.Ф.нинг “Сабзавотчилик ва полизчиликда тажрибаларни олиб бориш методикаси” (1992) асосида қовун, тарвуз меваларини хўжалик белгилари аниқланди.

**Тадқиқот натижалари.** Тажрибада қовун, таруз экинлари вариантлар бўйича I-III-қайтариқдаги ҳосили ҳисоб-китоб қилинганда ҳар бир вариантдаги 5 та ўсимликдан мевалари олиниб, қўлланилган уруғдорилагичларни хўжалик белгиларига таъсири аниқланди.

Тарвуз экинлари вариантлар бўйича I-III-қайтариқдаги ҳосили ҳисоб китоб қилинганда қўлланилган уруғдорилагичларни хўжалик белгиларига таъсирига кўра тарвуз уруғларига кимёвий препаратлардан Максим 3.5% сус.к. 5-мл/кг ҳисобида қўлланилганда I-III қайтариқдаги меваларни ўртача вазни 2,4, - 2,8 кг., мева бўйи 16,6-16,4 см., мева эни 15,5-16,6 см., таркибида эрувчан қуруқ модда миқдори 8,7-8,6%, мева этининг тиғизлиги донадор ва мева пўсти ўртача 0,9-0,8 см. гача бўлганлиги кузатилди. Селест Топ 31,2% с.к 5 мл/кг ҳисобида қўлланилганда I-III қайтариқдаги меваларни ўртача вазни 2,3 - 2,8 кг., мева бўйи 16,3-17,2 см., мева эни 15,6-17,1 см., таркибида эрувчан қуруқ модда миқдори 10,3-7,8%, мева этининг тиғизлиги донадор ва мева пўсти ўртача 0,9-0,8 см. гача бўлиб, кимёвий препаратларнинг таъсири бўлмади.



Микробиологик препаратлардан Триходермин 1гр/кг ҳисобида қўлланилганда I-III қайтариқдаги меваларни ўртача вазни 2,3 - 2,6 кг., мева бўйи 16,1-17,3 см., мева эни 16,3-17,4 см., таркибида эрувчан қуруқ модда миқдори 7,8-7,9%, мева этининг тиғизлиги донадор ва мева пўсти ўртача 0,8-0,9 см. гача бўлди. Наномикрозаррача Нано Кремний 1гр/10 литр ҳисобида қўлланилганда I-III қайтариқдаги меваларни ўртача вазни 2,6 - 2,7 кг., мева бўйи 17,1-17,3 см., мева эни 17,5 см., таркибида эрувчан қуруқ модда миқдори 9,8-7,4%, мева

этининг тиғизлиги донадор ва мева пўсти ўртача 1,0-0,8 см. гача бўлиб ушбу препаратларнинг тарвузни хўжалик белгиларига салбий таъсири бўлмаганлиги кузатилди

Назорат вариантимида I-III қайтариқдаги меваларни ўртача вазни 2,1 - 2,6 кг., мева бўйи 16,7-17,2 см., мева эни 16,6-17,2 см., таркибида эрувчан куруқ модда миқдори 9,0-7,4%, мева этининг тиғизлиги донадор ва мева пўсти ўртача 0,8-0,7 см. гача бўлди.

Олинган маълумотлардан кўриниб турибтики қўлланилган кимёвий ва микробиологик препаратларнинг тарвузнинг хўжалик белгиларига салбий таъсири бўлмади. Лекин биологик Наномикрозаррача Нано Кремний препарати 1гр/10 литр ҳисобида қўлланилганда назоратга нисбатан хўжалик белгилари юқори бўлганлиги кузатилди.

Қовун экинлари вариантлар бўйича I-III-қайтариқдаги ҳосили ҳисоб китоб қилинганда, кимёвий препаратлардан Максим 3.5% сус.к. 5-мл/кг ҳисобида қўлланилганда I-III қайтариқдаги меваларни ўртача вазни 0,8 – 0,6 кг., мева бўйи 15,3-11,7 см., мева эни 15,0-12,1 см., таркибида эрувчан куруқ модда миқдори 10,2-8,3%, мева этининг тиғизлиги донадор ва мева пўсти ўртача 0,4 см. гача бўлганлиги кузатилди. Селест Топ 31,2% с.к 5 мл/кг ҳисобида қўлланилганда I-III қайтариқдаги меваларни ўртача вазни 0,7 - 0,6 кг., мева бўйи 12,0-12,2 см., мева эни 12,6-13,0 см., таркибида эрувчан куруқ модда миқдори 10,5-7,9%, мева этининг тиғизлиги донадор ва мева пўсти ўртача 0,4-0,5 см. гача бўлиб, кимёвий препаратларнинг таъсири бўлмади.

Микробиологик препаратлардан Триходермин 1гр/кг ҳисобида қўлланилганда I-III қайтариқдаги меваларни ўртача вазни 0,7 - 0,6 кг., мева бўйи 14,8-15,0 см., мева эни 15,4-15,2 см., таркибида эрувчан куруқ модда миқдори 7,5-8,2%, мева этининг тиғизлиги донадор ва мева пўсти ўртача 0,7-0,4 см. гача бўлди. Наномикрозаррача Нано Кремний 1гр/10 литр ҳисобида қўлланилганда I-III қайтариқдаги меваларни ўртача вазни 0,7 - 0,6 кг., мева бўйи 12,0-13,1 см., мева эни 12,4-12,6 см., таркибида эрувчан куруқ модда миқдори 10,6-9,4%, мева этининг тиғизлиги донадор ва мева пўсти ўртача 0,5 см. гача бўлиб ушбу препаратларнинг қовунни хўжалик белгиларига салбий таъсири бўлмаганлиги кузатилди.

Назорат вариантимида I-III қайтариқдаги меваларни ўртача вазни 0,5 - 0,6 кг., мева бўйи 10,4-14,3 см., мева эни 11,0-13,6 см., таркибида эрувчан куруқ модда миқдори 8,3-7,9%, мева этининг тиғизлиги донадор ва мева пўсти ўртача 0,4-0,5 см. гача бўлди.

Олинган маълумотлардан кўриниб турибдики қўлланилган кимёвий ва микробиологик препаратларнинг қовуни хўжалик белгиларига салбий таъсири бўлмади. Биологик Наномикрозаррача Нано Кремний препарати 1гр/10 литр



ҳисобида қўлланилганда назоратга нисбатан хўжалик белгилари юқори бўлганлиги кузатилди.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 29 декабридаги “2016-2020 йилларда қишлоқ хўжалигини янада ислох қилиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2460-сон қарори.
3. Белик В.Ф.нинг “Сабзавотчилик ва поллизчиликда тажрибаларни олиб бориш методикаси” (1992)
4. Хакимова Н.Т., Саггарова Р.К, Илдиз чиришга қарши уруғ дорилагичлар. - Защита и карантин растений. 2003. №3. С.18.



O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHIT: MUAMMO VA YECHIMLAR

*Ahror Hakimov*

*O'lmasjon Elmurodov*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Tel: +998975520012*

*+998976942824*

**Annotatsiya:** Kundan kunga mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularni huquqiy himoya qilishning amaliy mexanizmlarini joriyetish va investitsion muhitni yanada yaxshilash iqtisodiy rivojlanish sohasidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Investitsiya, kapital, foyda, pul, eksport, infratuzilma, servis, kredit, bank, aksiyadorlik, subsidiya, loyiha, tadbirkorlik, sanoat, mablag', agentlik, korxonalar, bozor.

“O‘zbekiston Respublikasining 2025 yilgacha investitsiya siyosati strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan xalqaro tajriba, respublika iqtisodiyoti, uning tarmoqlari va hududlari investitsiya jarayonlari rivojlanishidagi tendensiyalar va muammolar tahlili asosida tayyorlangan.

Ko'rsatgichlar	2018 yil	2019-2025 yil	2025 yil
YaIM	407.5	106%	1298.9
Investitsiyalari	30.5 %		37.5
Chet el investitsiyalari va kreditlari mlrd.so'm		30.8	11
Markazlashmagan investitsiyalar mlrd.so'm		1002.5	
Asosiy kapitalga investitsiyalar	103.9	110.8	

2025 yilgacha investitsiya siyosatining maqsadi iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va muvozanatini oshirish, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirish, hududlarni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish hisoblanadi.<sup>1</sup>

2021 yilda 6 milliard 500 million dollarlik loyihalar ishga tushiriladi.

24 iyun kuni Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida o'tkazilgan videoselektor

<sup>1</sup> 1.A.E.Ishmuhammedovning "O'zbekiston milliy iqtisodiyoti" kitobi.

yig'ilishida investitsiya va eksport sohalaridagi ishlar natijadorligi tahlil qilindi. Shuningdek, yilyakunigacha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar muhokama qilindi.<sup>2</sup>

Mamlakatimizda iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish, dolzarb loyihalarni mablag' bilan ta'minlash maqsadida faol investitsiyaviy siyosat olib borilmoqda. 2017 yildan boshlab barcha manbalar hisobidan 716 trillion so'm (83 milliard dollar) yoki oldingi davrga nisbatan 2 baravardan ziyod investitsiyalar o'zlashtirilgan. Shundan qariyb 27 milliard dollarini xorijdan jalb qilingan mablag'lar tashkil etadi.

O'zlashtirilgan investitsiyalarning deyarli 65 foizi sanoat va infratuzilma loyihalariga to'g'ri keladi. Natijada, so'nggi 4 yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 25 foizdan 33 foizga, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi esa 1,3 baravarga o'sgan. Ushbu davrda 441 trillion so'mlik 47 mingdan ziyod yirik, o'rta va kichik loyihalar ishga tushirilib, 680 mingdan ortiq doimiy yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Shuningdek, so'nggi 4 yilda mahalliy sanoat, qishloq xo'jaligi va servis sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun 100 trillion so'm investitsiya yo'naltirilgan.

Tahlillarga ko'ra, ajratilgan har bir milliard so'm evaziga Namanganda 12 ta, Andijonda 11 ta, Navoiy va Sirdaryoda 8-9 tadan yangi ish o'rni yaratilgan. Bu ko'rsatkich Buxoro, Samarqand va Xorazmda 6-7 ta, Qashqadaryo va Farg'onada 5 taga to'g'ri kelgan. Qoraqalpog'iston, Jizzax, Surxondaryo, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida esa atigi 3-4 tani tashkil etgan. Toshkent viloyatiga so'nggi 4 yilda yo'naltirilgan 950 million dollar xorijiy investitsiyava bank kreditlari hisobiga atigi 40 mingta yangi ish o'rni yaratilgan. Ya'ni bir ish o'rni 24 ming dollarga to'g'ri kelmoqda. Vaholanki, Namangan viloyatida 2 baravar kam mablag' sarflanib, 52 mingta ish o'rni ochilgan. Shuningdek, 2 mingdan ziyod korxonalar past quvvatda ishlayotgani, ayrim tumanlarda ishlab chiqarish hajmi kamaygani qayd etib o'tildi. Prezidentimiz tarmoq va hudud rahbarlarining asosiy vazifasi investitsiyaviy faollikni kuchaytirish bilan birga, ularning samaradorligini oshirish bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga viloyat hokimlari bilan birga, har bir tuman va shaharda sanoat bo'yicha ishga solinmagan imkoniyatlarni aniqlab, manzilli investitsiya loyihalarini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.<sup>3</sup>

---

<sup>2</sup> Xudoyberdiyev, H. Hodjiddinova, T. Xodjiddinovning "Iqtisodiy bilim asoslari" kitobi.

<sup>3</sup> Z. T. Gaibnazarova, Sh. A. Isamuhametovning "Iqtisodiyot nazariyasi" kitobi

Hamma joyda mebellarga talab, ularni tayyorlashga sharoit bor. Nukus, Andijon, Oltinko‘l, Romitan, Qarshi, Karmana, Pstdarg‘om, Uzun, Bag‘dod, O‘rta Chirchiq va Xonqa tumanlari, Jizzax, Qarshi, Namangan va Yangier shaharlari mebelsozlikka moslashtirildi. Ularda mebelsozlikka ixtisoslashgan kichik sanoat zonalari tashkil etilib, 200 million dollarlik 450 ta loyiha joylashtiriladi va kamida 7,5 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi. Yurtimizdagi 5 mingdan ziyod mebel korxonasi 1 ming 500 tasi xonadonlarda joylashgan. Endi ularni sanoatlashtirish, mahsulotlarni va ish o‘rinlarini yanada ko‘paytirish mumkin. Bunday ishlarni charm-poyabzal, elektr texnikasi, to‘qimachilik, farmasevtika, zargarlik, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoati sohalarida ham amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Joriy yilda charm-poyabzal sanoatida 202 million dollarlik 112 ta loyiha, elektr texnikasi tarmog‘ida 140 million dollarlik 45 ta loyiha, farmatsevtika yo‘nalishida 146 million dollarlik 36 ta loyihani o‘z vaqtida ishga tushirish zarurligi ta’kidlab o‘tildi. Sobiq “Andijon Mash” korxonasi negizida kichik sanoat zonasi tashkil etilib, 24 ta yangi korxonada mingdan ziyod ish o‘rni yaratildi. Toshkent shahridagi “Texnopark”, Farg‘onadagi “Mexanika zavodi”da ham bunga misol bo‘la oladi. Bugungi kunda bo‘sh turgan va past quvvatlarda ishlayotgan yana 19 mingta ob‘ekt bor. Joriy yilda umumiy qiymati 6 milliard 500 million dollarlik 226 ta yirik tarmoq va hududiy loyihalar ishga tushirilishi, 35 mingta yangi ish o‘rni tashkil etilishi mo‘ljallangan. Ma’lumki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar iqtisodiyot rivojida juda muhim o‘rin tutadi. Joriy yilda 756 ta loyiha doirasida 7 milliard 700 million dollar miqdoridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlarni o‘zlashtirish belgilangan.

Farg‘ona viloyatida 2021-2022 yillarda umumiy qiymati \$1,6 mlrd. 949 tainvestitsiya loyihasi amalga oshirilishi ta’kidlandi. Muhokamalar: Bunda kimyo, to‘qimachilik, charm-poyabzal, qurilish materiallari, elektrotexnika sanoati “drayver” bo‘ladi. Shahar va tumanlarni mahallabay tizimda rivojlantirish maqsadida viloyatdagi 76ta sektorning har birida iqtisodiy kompleksning malakali xodimlaridan iborat boshqaruv ofislari tashkil etilishi aytili. Bu mutaxassislar mahallaga biriktirilgan bank xodimlari bilan birga, joylardagi sharoitni o‘rganib, loyihalarni shakllantiradi va amalga oshirishga ko‘maklashadi. Zarur bo‘lsa, ishsiz aholi, yoshlar va ayollar kasb-hunarga o‘rgatiladi. Farg‘ona viloyatida 2021-2022 yillarda umumiy qiymati 17 trillion so‘mlik 949 tainvestitsiya loyihasi amalga oshirilishi ta’kidlandi. Bunda kimyo, to‘qimachilik, charm-poyabzal, qurilish materiallari, elektrotexnika sanoati “drayver” bo‘ladi.

Xususan, “Farg‘ona azot” aksiyadorlik jamiyatida jami 537 million dollarlik 3 ta loyiha, to‘qimachilikda 154 million dollarlik 14 ta loyiha amalga oshiriladi.

Viloyatda yer resursi cheklangani sababli cho‘l joylar, yaylov va adirliklarda 33 ming gektar yer o‘zlashtiriladi. Bunga sarflanadigan 350 milliard so‘mlik xarajatlarning 110 milliard so‘mi subsidiya hisobidan qoplab beriladi.<sup>4</sup>

	2019	2020 yil yanvar dekabr	2021 yil yanvar mart
Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar jami mlrd so‘m	195927,3	202000.1	35592.4
Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning YaIM ulushi % da	38.9	12677	27.7
Uy-joylarning umumiy maydoni minh. m <sup>2</sup>	15501,5	112.3	252.3
Kasalxonalar, ming yotoq	7.4	4.1	
Poliklinika muassasalari, shu jumladan qishloq vrachlik punktlari smenada ming qatnov	20.7	5.1	
Qurilish ishlari	71156.5	87823.8	19547.4

### **Investitsiyalar va qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari**

Mamlakatimizda investitsiya va qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili quyidagicha. Asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmi 19,5927,3 milliard so‘mni, 2020 yilning yanvar-dekabrda 202,000,1 milliard so‘mni va 2021 yilning yanvar-martida 35,592,4 milliard so‘mni tashkil etdi. Asosiy fondlarga investitsiyalarning YaIMdagi ulushi 2019 yilda 38,3%, 2020 yilning yanvar-dekabrda 34,8% va 2021 yilning yanvar-martida 27,7% ni tashkil etdi. Uy-joylarning umumiy maydoni 2019 yilda 15501,5 ming kvadrat metr, 2020 yil yanvar dekabrda 12677,4 ming kvadrat metr va 2021 yil yanvar-mart oylarida 2523,0 ming kvadrat metrni tashkil etadi. 2019 yilda qurilish ishlari 71 156,5 milliard so‘m, 2020 yil yanvar-dekabr oylarida 87823,8 milliard so‘m, 2021 yil yanvar -mart oylarida esa 19 547,4 milliard so‘mni tashkil etdi.

Ijtimoiy sohalarni, infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlari belgilandi. Joriy yilda viloyatning 11 ta joyida 105 ta ko‘p qavatli uylar barpo etilishi ta’kidlandi. 312 milliard so‘m markazlashgan mablag‘lar hisobidan 503 kilometr yo‘llarni ta’mirlash bo‘yicha vazifa qo‘yildi. Joriy yilda Farg‘ona viloyatidagi 19 ta tuman va shaharlarda bittadan Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi tashkil etilishi,

“Yoshlar: 1+1” loyihasi doirasida 8 mingdan ziyod ishsizlar tadbirkorlik va kasb-hunarga o‘qitilishi belgilandi. Xotin-qizlarning o‘z ishini ochishigako‘maklashish, muhtojlarning uy sotib olishi uchun boshlang‘ich badal pullarini to‘lab berish, ajralishlarning oldini olish muhimligi ta’kidlandi.

<sup>4</sup> A.Ölmasov, A. Vahobovning "Iqtisodiyot nazariyasi" kitobi



O‘zbekiston va Janubiy Koreya rahbarlari EDCF bilan hamkorlik bo‘yicha 1 milliard dollarlik bitimni imzoladi.

Sammit yakunida “To‘rtinchi sanoat inqilobi”ga ko‘maklashish maqsadida raqamlashtirish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida memorandum, EDCF bilan hamkorlik bo‘yicha uch yilga mo‘ljallangan bitim, zamonaviy ko‘p tarmoqli klinika va loyihaviy institut – Kimyoviy texnologiyalar markazini qurish loyihalari bo‘yicha zayom bitimlari imzolandi.

Joriy yilda janubiy koreyalik hamkorlar ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida jami 400 million dollargacha investitsiyalarni o‘zlashtirish kutilmoqda.

Bundan tashqari, yuqori texnologik sohalarda, shu jumladan energetika, neft-gaz, kimyo va neft-kimyo, farmatsevtika, qayta ishlash sanoati, qishloq xo‘jaligi, infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport va logistika, turizm va ko‘plab boshqa tarmoqlarda qiymati jami 3,4 milliard dollardan ziyod bo‘lgan 55 ta yangi loyiha tayyorlanmoqda.

Ikki tomonlama ustuvor dasturlarni amalga oshirishda Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish fondi (EDCF) va Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan samarali sheriklik olib borilayotgani yuksak baholandi.

Prezident Mun Chje In O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi masalasiga har tomonlama ko‘maklashishini yana bir bor.

### **Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining 2021 yilga mo‘ljallangan hisobotiga ko‘ra, xorijiy investitsiyalar hajmi 10,5 mlrd dollarni tashkil etadi**

Shundan 7,6 mlrd dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bo‘ladi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, 2020 yilning yakunlari bo‘yicha asosiy vositalarga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2019 yilning shu davriga nisbatan 101,5%ni yoki 6,6 mlrd dollarni tashkil etdi. Investitsiya dasturi doirasida 197 loyiha amalga oshirildi va shuning hisobiga 38 ming ish o‘rni yaratildi. Bundan tashqari, hududiy investitsiya dasturlari doirasida jami

59,1 trln so‘mlik 10 586 loyiha amalga oshirildi va bu 131,5 mingta yangi ish o‘rni tashkil etilishiga imkon berdi. Tashqi savdo faoliyati ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqildi – jumladan, 2020 yil yakunlariga ko‘ra, eksport hajmi 15,1 mlrd dollarni tashkil etgani ta’kidlandi. Shu bilan birga, 47 turdagi yangi mahsulotlarni eksportga yetkazib berish yo‘lga qo‘yildi va bir qator mamlakatlarning yangi istiqbolli bozorlariga chiqishga erishildi.

Asosiy fondlar tarkibiga kiritilgan aktivlar miqdori, O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha % da, quyidagicha o‘zgardi. Umuman olganda, O‘zbekistonda 2019 yilda vaziyat 138,1%ni tashkil etib, 38,1%ga o‘sdı. 2020 yilning yanvar-dekabrida bu 91,8%ni, 2021 yilning yanvar-martida- 96,5%ni tashkil etdi. Pandemiya sharoitida

2020 yilda 8,1 foizga, 2021 yilda esa 3,5 foizgakamaydi. Mamlakat hududlarida, 2019 yilga kelib, asosiy fondlarga kiritilgan aktivlar miqdori,% Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatida, 2019 yilda - 194,9%, engkichik - Jizzax viloyatida kuzatilgan. 95,9%.

	2019	2020 yil Yanvar-dekabr	2021 yil Yanvar-mart
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>138.1</b>	<b>91.8</b>	<b>96.5</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>100.3</b>	<b>80.4</b>	<b>99.6</b>
<b>Viloyatlar</b>			
<b>Andijon</b>	<b>129</b>	<b>100.5</b>	<b>138.2</b>
<b>Buxoro</b>	<b>95.9</b>	<b>96.7</b>	<b>151.6</b>
<b>Jizzax</b>	<b>194.9</b>	<b>152.5</b>	<b>103.2</b>
<b>Qashqadaryo</b>	<b>131.2</b>	<b>74.1</b>	<b>52.7</b>
<b>Navoiy</b>	<b>144.3</b>	<b>78.7</b>	<b>73.4</b>
<b>Namangan</b>	<b>131.2</b>	<b>87.9</b>	<b>93.1</b>
<b>Samarqand</b>	<b>134.5</b>	<b>117.9</b>	<b>141.1</b>
<b>Surxondaryo</b>	<b>144</b>	<b>76.3</b>	<b>97.2</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>186</b>	<b>111</b>	<b>108.5</b>
<b>Toshkent</b>	<b>158.5</b>	<b>82.8</b>	<b>122.6</b>
<b>Farg'ona</b>	<b>132</b>	<b>116.4</b>	<b>108.2</b>
<b>Xorazm</b>	<b>150.7</b>	<b>114.5</b>	<b>102</b>
<b>Toshkent.sh</b>	<b>145.8</b>	<b>96.5</b>	<b>96</b>

### **Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar**

Yanvar -dekabr holatiga ko'ra, asosiy vositalarga kiritilgan aktivlar miqdori% bilan Qashqadaryo viloyatida eng katta - 152,5%, eng kichik - Navoiy viloyatida

74,1%ni tashkil etdi. 2021 yil yanvar -mart oylarida asosiy vositalarga kiritilgan aktivlar miqdori bo'yicha,% bo'yicha, mintaqalarda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax viloyatida kuzatildi - 151,6%, eng past - Navoiy viloyatida 52,7. %.

So'nggi yillarda O'zbekistonda birinchi chorakdan tashqari asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari tezlashmoqda. 2020 yil pandemiya oqibatlari tufayli biroz pasayish yuz bergan. Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining YaIMga nisbati, shu jumladan 2018 – 30,6%, 2019 – 37,1% da o'sish kuzatilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.E.Ishmuhammedovning "O'zbekiston milliy iqtisodiyoti" kitobi
2. Xudoyberdiyev,H.Hodjiddinova,T.Xodjiddinovning "Iqtisodiy bilim asoslari" kitobi
3. Z.T.Gaibnazarova,Sh.A.Isamuhametovning"Iqtisodiyot nazariyasi" kitobi
4. A.O'lmasov,A.Vahobovning "Iqtisodiyot nazariyasi"kitobi
5. milliycha.uz
6. imlo.uz
7. uz.wikipedia.uz
8. uz.text.com
9. hozir.org
10. uz.yellowpages.uz

**“QALQONSIMON BEZ FAOLIYATINI BUZILISHI TUFAYLI KELIB  
CHIQUADIGAN KASALLIKLAR”**

*Valijon Karimov*

*Farg‘ona davlat universiteti , b.f.n., dotsent*

*Rejapova Xayotxon Qodirali qizi*

*Farg‘ona davlat universiteti II-kurs magistranti*

**ANNOTATSIYA**

Qalqonsimon bez eng keng tarqalgan kasalliklaridan biridir. Organ to‘qimalarida o‘sadigan tugunlar mayda o‘smalar deb ataladi. Ko‘pincha ular mutlaqo xavfsizdir va hayot sifatiga hech qanday ta‘sir ko‘rsatmaydi, lekin taxminan 10 foiz hollarda ular o‘smalarga aylanishi mumkin. Bu holda shifokorlar qalqonsimon bezni to‘liq yoki qisman olib tashlashni tavsiya qiladi. Keling, bu qanchalik xavfli ekanligini va hayot sifatiga qanchalik ta‘sir qilishini [aniqlaylik](#).

**Kalit so‘zlar:** Bez, qalqonsimon, o‘sma, tuguncha, analiz, vitamin

**KIRISH**

Qalqonsimon bezning asosiy vazifasi – tanada sodir bo‘ladigan turli jarayonlarga va birinchi navbatda metabolizmni tartibga solishga katta ta‘sir ko‘rsatadigan o‘ziga xos gormonlar ishlab chiqarish. Shuningdek, qalqonsimon bez tana haroratini, xolesterin ishlab chiqarishni, vitaminlarning so‘rilishini va ishlab chiqarilishini tartibga soladi. Operatsiyadan keyin tananing normal ishlashini davom ettirish uchun gormonlarni almashtirish terapiyasi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, agar qalqonsimon bez xatarli o‘sma paydo bo‘lishi tufayli olib tashlangan bo‘lsa, gipofiz bezidan qalqonsimon bezni stimulyatsiya qiluvchi gormon ishlab chiqarishni to‘xtatish uchun gormon dozasi me‘yordan oshib ketadi.

Ko‘pgina bemorlar sintez qilingan gormonni qabul qilish, albatta, ortiqcha vaznga olib keladi, deb qo‘rqadi. Lekin shifokorlar bunday vaziyatda gormon dozasini o‘zgartirish kifoya, deb maslahat beradi. To‘g‘ri dozadagi zamonaviy dorilar bemorning vazniga umuman ta‘sir qilmaydi.

Har qanday jarrohlik aralashuvi singari qalqonsimon bez operatsiyasi bir qancha oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ulardan eng keng tarqalgani – gangrena, asabning shikastlanishi va gipoparatiroidizm – qondagi kalsiy darajasini tartibga soluvchi paratiroid bezlarini olib tashlash yoki ularning shikastlanishi. Agar bu sodir bo‘lsa, bemorga kalsiy va D vitaminini qabul qilish buyuriladi. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida davlat boshqaruvini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, mahalliy

davlat hokimiyati organlari amalga oshiradi. Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasida davlat boshqaruvi:


profilaktika va sanitariya-epidemiologiya tadbirlari o'tkazishni, yod yetishmasligi kasalliklariga tashxis qo'yish va ularni davolashni tashkil etishni;

yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi va ularni davolash uchun dori vositalari hamda preparatlarni, yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish hamda sertifikatlashtirishni;

tuz va oziq-ovqat mahsulotlarini yodlashni davlat tomonidan normalashtirishni;

davlat boshqaruvi organlarining, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib borishni;

yodlangan tuz va yodlangan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hamda ularning muomalasi ustidan davlat nazoratini o'z ichiga oladi.<sup>1</sup>



## ADABIYOTLAR

1. Qosimov E. Y. Ichki kasalliklar propedevtikasi T., 1995.
2. Lindenbraten L. D., K o r o m o k I. P. Meditsinskaya radiologiya i rentgenologiya (Osnovy luchevoiy diagnostiki i luchevoiy tyerapii). M., 1995.

<sup>1</sup>(5-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)



3. Gabuniya R. I., Kolesnikova YE. K. Kompyuternaya tomografiya v klinicheskoy diagnostikye;
4. Rukovodstvo. M., 1996. Obsheye rukovodstvo po radiologii. V 2-x.t. Pod redaktsiyoy X.Peterson. NiCER, 1995.
5. Russk. izdaniye. M., RA "Spas", 1996. Vlasov P. V., K o t l y a r o v R. M. Luchevaya diagnostika zabolevaniy podjeludochnoy jelezi //Vest, rentgenologii i radiologii. 1995 № 3.
6. Zubarev A. V. Myetody meditsinskoй vizualizatsii - UZI, KG, MRT - v diagnostike opuxolevoy i kist pecheni. M., 1996.
7. K o m a r o v F. I., A. N. A ya z i t s k i y P. O., S ye l ye z n ye v YU. K. i dr. Kompleksnaya luchevaya diagnostika zabolyevaniy organov bryushnoy polosti i zabryushinnogo prostranstva. Atlas. M., 1993.
8. LemeshkoZ. A. Ultrazvukovaya diagnostika boleyezney podjeludochnoy jelezi. Rukovodstvo po gastroenterologii. M., 1996, T.Z. TimakovS. I. Ultrazvukovaya diagnostika piloroduodyenalnogo stenoza //Xirurgiya. 1995.
9. Yudin L. A., Kondroshin S.A. Luchevaya diagnostika zabolyevaniy slyunney jelezi M., 1995.
10. Dyemidov V. N., 3 i k i n B. I. Ultrazvukovaya diagnostika v ginekologii. M., 1990.

TA'LIM RUS TILIDA OLIB BORILADIGAN BOSHLANG'ICH SINFLARDA  
O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA  
KLASTER METODINING AHAMIYATI

*Ilmiy rahbar: Shodmonov Bahodir Sherkulovich*

*Obidova Ma'rupa Shoergashovna*

*Toshkent viloyati, Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Ta'lim muassasining boshqaruv yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mualliflar ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning yangicha usullari haqida salmoqli fikrlarini berib o'tganlar.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Oripov, innovatsiya, samaradorlik, Smart Education, dars ishlanma, pedagogik texnologiya, Loyiha.

Dunyo bo'ylab yuz berayotgan o'zgarishlar, axborotga ega bo'lishning ochiqligi ta'lim sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, o'qitish usullari, mazmuni, uni tashkil etishning pedagogik-psixologik maqsadini ham o'zgartirish, o'quvchilarni mustaqil faoliyat ko'rsata olish, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishni talab etmoqda. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kun o'qituvchisi tayyor elektron resurslardan foydalanib dars o'tish bilan chegaralanmasdan, ta'limiy resurslarni yaratish hamda ularni amalda qo'llovchi o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanishi, fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini o'quvchilarga yetkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishi, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z ustida ishlash va bilimlarini takomillashtirishni o'rgatishi zarur. Chunki zamonaviy texnika bilan ishlash qobiliyatiga ega, zamonaviy ta'lim jarayonining mohiyatini to'laqonli tushuna olgan, faoliyati jarayonida ro'y beruvchi vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni hal eta oladigan, yetarlicha ko'nikmaga ega va zamonaviy mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj ta'lim jarayonini texnologik asosda tashkil etishni taqozo etadi. Buning uchun o'quv jarayoniga keys, WEB, kommunikatsion axborot, interfaol, multimedia, telekommunikatsiya yoki elektron o'qitish, Smart Education (aqlli ta'lim) kabi texnologiyalar joriy etilmoqda. Hozirda multimediya dasturlari hamda elektron darsliklar turli ishlarni tez va qisqa fursatda amalga oshirishi, turli tasvirlarni namoyish qila olishi, didaktik jihatdan ustunligi bilan bilimni axborotlashtirishning eng asosiy omillaridan biri bo'lib qolmoqda.

Axborot texnologiyalari va multimediali o'rgatuvchi dasturlardan foydalanish til o'rgatishning sifatini oshirish imkonini beradi, qolaversa, psixologik jihatdan o'quvchining qiziqishini orttirishga, o'z bilimni erkin qo'llashga sharoit yaratadi.

Bugungi kunda E-learning (elektron ta'lim)dan Smart Education (aqlli ta'lim)ga o'tish amalga oshirilmoqda Aqlli ta'lim barcha ta'lim jarayonlari, shuningdek, ushbu jarayonlarda qo'llaniladigan usul va texnologiyalarni keng qamrovli modernizatsiyalashni o'z ichiga oluvchi konsepsiya bo'lib ta'lim kontekstida Smart Board (aqlli taxta), Smart Screen (aqlli ekran), Smart Phone (aqlli telefon), Smart Table (aqlli stol) Smart TV (aqlli televizor), E-book (aqlli kitob), Wi-Fi zonasi kabi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bularning har biri o'rganuvchining darsdan tashqari faoliyati hamda darsni yangidan tashkil etish imkonini berish bilan bir qatorda o'quvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. [1].

Aqlli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari bo'lib, sinf muhitini jonlantirish, kayfiyatni ko'tarish, o'quvchilarni faollashtirish, darsdan tashqari ishlarni tashkil etishga yordamlashish (tarbiyaviy soatlar, mavzuli o'yinlar, konsertlar, bayramlar, adabiy kechalar, o'quv video va badiiy filmlarni tomosha qilish), loyihaviy faoliyatni amalga oshirish, onlayn-konferensiyalarni o'tkazish (vebsaytlar yaratish, elektron jurnallarni nashr etish, she'rlar, suratlar, fotosuratlarini joylashtirish) kabi afzalliklarga ega. Aqlli texnologiyalar ijodiy guruhlar faoliyati, iqtidorli bolalar bilan ishlash, o'quvchilarning shaxsiy kompetensiyalarini oshirish va nihoyat, gumanitar fanlar bo'yicha samarali o'qitishni amalga oshirishga ko'maklashadi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: zamonaviy dars qanday bo'lishi kerak? Shubhasiz, yorqin, ko'rgazmali va albatta, axborot bilan to'yingan hamda o'qitish vositalari va usullari ijodiy salohiyatni rivojlantirish, xarakterni shakllantirish, o'quv jarayoni ishtirokchilarining dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan bo'lishi kerak. Zamonaviy o'qituvchining asosiy vazifasi ma'lumotlarni tayyor holda berish va mashqlarning to'g'ri bajarilganligini tekshirish emas, balki o'quvchilarni kerakli ma'lumotlarni mustaqil ravishda turli manbalardan izlab topish (darslik, ensiklopediya, lug'at, Internet-resurs), tortishuvga sabab bo'lgan muammolarni hal etish, o'z pozitsiyasini himoya qilishga o'rgatishdir. Buni amalga oshirish uchun o'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lishi va o'z darsida nafaqat zamonaviy metod va usullarni qo'llashi, balki kompyuter texnologiyalari sohasidagi so'nggi ishlanmalardan ham foydalanishi kerak.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasiga mustaqillikning dastlabki yillaridanoq alohida e'tibor berib kelinmoqda. Ayniqsa, o'zbek tili fanini noo'zbek guruhlarida davlat tili sifatida o'qitishning yo'lga qo'yilishi «Davlat tili to'g'risidagi» Qonunning talablarini bajarishning muhim omili bo'lib xizmat qildi. Chunki, O'zbekistonda 130 dan ortiq turli xil millat va elat vakillari istiqomat qilishadi. Ularning milliy urfodatlarini,

madaniyatini hamda ona tillarini hurmat qilishni davlatimiz o'z zimmasiga olgan. Shuningdek davlatimiz bosh qomusida «O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir» degan moddaning kiritilishi o'zbek tilining nufuzi va davlat tili sifatida obro'sini yanada yuksakka ko'tarishga xizmat qildi desak aslo xato bo'lmaydi. [2].

Ushbu konstitutsiyaviy burch va vazifalardan kelib chiqib O'zbekistonda ta'lim 7 tilga olib boriladigan bo'ldi. Noo'zbek guruhlarda ularga o'z ona tilini o'qitish bilan birga o'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitish ham yo'lga qo'yilishi mamlakatimizda Asosiy qonunimiz hamda «Davlat tili to'g'risidagi» Qonun talablarini bajarishda muhim dasturamal bo'lib xizmat qildi. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili fanini davlat tili sifatida o'qitish, bu fandan o'quvchilarda ma'lum kompetensiyalarni shakllantirish uchun Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarida mazkur fanning maqsad va vazifalari belgilab olindi.

DTS talabiga ko'ra, o'zbek tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi- ikki kompetensiyada mujassamlashdi. 1. Nutqiy kompetensiya - tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozish ya'ni muloqot malakasini egallash. 2. Lingvistik kompetensiya- til materialini (fonetika, leksika, grammatika) va vositalarini nutqda qo'llay bilish uchun yetarli bilimlarni o'zlashtirish uchun, bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, o'qish, gapirish, yozish) egallashni nazarda tutadi. [3]

Standartda nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy ko'nikmalar belgilanadi.

Bunda o'rganilayotgan so'z va so'z shakllarini to'g'ri talaffuz qilish hamda yozish, so'zni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirish, so'zlarni o'rinli tanlash, sintaktik-uslubiy jihatdan to'g'ri baholay olish, jumla tuzishda va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish talab etiladi. [4]

Ushbu belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun o'zbek tili darsliklarida grammatikaga oid ma'lumotlar berish bilan birga, nutqiy kompetentlikni rivojlantirish uchun adabiy-badiiy matnlar, o'zbek shoir-u yozuvchilarining hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar ham berib boriladi. Bu ma'lumotlar bilan tanishgan o'quvchi o'zbek adabiy tilining hamda adabiyotining boy namunalarni ko'rib o'zbek tilidan nutqiy ko'nikmalari rivojlantirib boradi. Ya'ni lingvistik kompetensiyasi bilan birga nutqiy kompetensiyasi ham shakllantirilib fan bo'yicha zarur bilimlarni hosil qiladi.

Yuqoridagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib biz hozir ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning hayoti va ijodini o'rgatish orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda qo'l keladigan ba'zi bir metod va usullar haqida o'z tavsiyalarimizni o'rtoqlashmoqchimiz.

Ma'lumki, Abdulla Oripov haqiqiy ma'noda o'zbek adabiyotining darg'asi sifatida barchaga yaxshi tanish. Uning o'ziga xos she'riyati, takrorlanmas so'z qatorlari ko'pgina kitobxonlarni o'ziga mahliyo qilgan. Biz shoirni O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi sifatida ham yaxshi taniymiz. Noo'zbek guruhlarda tahsil oluvchi o'quvchilar, xususan rus sinflarida, o'zbek tili darsliklardagi shoirning ijod namunalaridan parchalar orqali tanishtirilib boriladi. Lekin, eng ko'p ma'lumotni 10-sinf o'zbek tili darsligida oladilar. [5].

Darslikda 4-chorak uchun ajratilgan qismda Adabiy o'qish uchun «Abdulla Oripov hayoti va ijodi» uchun 1 soat ajratilgan. Ammo, bu mavzu uchun berilgan ma'lumotlar nisbatan kamroq hamda to'liq shaklda berilmagan. O'qituvchining o'z pedagogik mahorati hamda fan bo'yicha yetarli nazariy bilimlarning bo'lishi ushbu mavzuni kengroq ochib berishida qo' keladi. Biroq faqat quruq nazariy ma'lumotlarni gapirib berish, yoki ma'ruza qilib yozdirish orqali o'quvchiga bilim berish o'zini oqlamasligi, tabiiy hol. Chunki bugunning o'quvchisi har tarafdin qiziquvchan va ko'rgazmalilik hamda yorqinlikni sevadi. Shuning uchun o'qituvchi mavzuni tushuntirishda qo'llagan metodlari bu borada muhim o'rin tutadi.

Interfaol metodlar: Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri. U orqali ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmagan holda, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish demakdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga yetkazib berish, ularda ma'lum bir faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilishdir, shuningdek, oquvchilarning faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash har bir o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat o'z navbatida ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. "KLAUSTER" METODI - Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. "Klaster" metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. "Klaster" metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi: Nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizning sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tug'ulguncha davom ettiring. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish



hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni, bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.


Biz hozir ushbu mavzuni o'qitishda qo'l kelishi mumkin bo'lgan bir nechta innovatsion texnologiyalar haqida fikrlarimizni bo'lishmoqchimiz.

1. «*Rasmi rebus*» usuli. Bu usulni ko'pincha darsning «Mustahkamlash» qismida qo'llasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bilamizki, 10-sinf o'quvchilarida psixologik jihatidan «o'tish davri»ning oxirgi bosqichlari kechayotgan bo'ladi. Ularni ma'lum bir o'yinlar yoki buyruq berish bilan dars jarayoniga tortish qiyin. Bu usul orqali o'quvchilar shoir ijodiga oid asarlarni rasmlarga qarab aniqlashi kerak bo'ladi. Masalan, rebusda baliqcha, hovuz, tilla tanga rasmlari aks etgan bo'lsa, demak bu yerda shoirning «Tilla baliqcha» she'ri tasvirlangan bo'ladi.

2. «*Tezkor savol-javob*» usuli. Mazkur usulni biz darsning «O'tilgan mavzuni takrorlash va uyga vazifa so'rash»qismida qo'llashni lozim ko'rdik. O'quvchilarga shoirning hayoti va ijodi bo'yicha savollar beriladi. O'quvchilar esa savollarga tezkorlik bilan javob berishlari kerak bo'ladi. Bunda o'quvchilar javoblarini yozma tarzda berganlari maqsadga muvofiq, chunki bunda ularning o'z sheriklarining javoblarini o'zlashtirishi inobatga olinadi.

3. «*Qiziqarli krossvord*» texnologiyasi. Ushbu texnologiya orqali o'quvchilar darsning «Yangi mavzu bayoni» qismida olgan bilimlarini mustahkamlashda qo'l kelishi mumkin. Ya'ni, bunda sinfdagi o'quvchilar guruhlariga bo'lingan holda ishlasalar samaraliroq bo'ladi.

## QIZIQARLI KROSSVORD



Abdulla Oripov hayoti va ijodiga oid savollar o'qituvchi tomonidan alohida qog'ozlarga yozilgan tarzda beriladi. O'quvchilar esa, ma'lum bir belgilangan vaqt davomida krossvordni to'ldirishlari kerak bo'ladi.

4. *«Loyiha» metodi.* Mazkur metodni biz darsning «Yakuniy qismi»da qo'llashni lozim topdik. Chunki, darslikdagi adabiy o'qish uchun berilgan ma'lumotlar nisbatan kam hajmda hamda dars vaqtining chegaralanganligi bois, o'quvchilar keng va to'liq ma'lumotlar olishi qiyin bo'lishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda ushbu metod yaxshi samara berishi mumkin. » Loyiha» metodi o'quvchilarni mustaqil o'rganishga va izlanishiga turtki bera oladigan metoddir. O'qituvchi dars yakunida o'quvchilarga shoirning hayoti va ijodiga oid bo'lgan qiziqarli mavzuni o'rtaga tashlaydi. Sinfidagi o'quvchilar guruhlariga bo'linadi, guruh sardori tayinlanadi. Masalan», Abdulla Oripov mohir tarjimon». Bilamizki, shoir o'zbek adabiyotiga mashhur tarjima asar Dante Aligerining «Ilohiy komediya» sini mahorat bilan o'girib nom qozongan edi. Tarjimashunoslikning qiyinchiligi va mas'uliyati o'quvchilarga tushuntirilgan holda, ularga shoirning boshqa tarjima asarlarini aniqlash va bu boradagi qiyinchiliklar haqida ma'lumotlar topish topshiriladi. Ularga foydalanish lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati beriladi. Keyingi darsgacha ularga berilgan topshiriqlar bo'yicha ma'lumotlar topish, so'ngra taqdimot loyihasini tayyorlash vazifasi yuklatiladi. Metodning ahamiyati shundaki, bu bir nechta bosqichni qamrab olganligi hamda o'quvchilarda mustaqil tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'l keladi.

Yuqoridagi, o'zida innovatsion pedagogik ruhni singdirgan bunday dars usullari o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini oshiribgina qolmasdan, ulardan mustaqil tadqiqotchilik hamda intiluvchanlik xislatlarining chuqur tomir otishida yordam berishiga ishonchimiz komil. Lekin, mazkur usul va metodlarni qanday vaziyatda yoki qaysi sharoitda qo'llash, ularni o'quvchilarga qay tarzda tushuntirib yetkaza olishi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liqligini unutmasligimiz kerak.

Umumta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim asosida o'tiladigan bunday dars texnologiyalari o'quvchilarni har taraflama o'z qobiliyatlarini namoyon qilishda, eng asosiysi o'zbek tilidan nutqiy ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda qo'l kelishi mumkin. Bu usuldagi darslar yangi davr kishisini tarbiyalashda kamolga keltirishda yordam berishi shubhasiz.

#### **Foydalaniladigan adabiyotlar**

1. Daniyarov B. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalar// Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish: muammo va yechimlar to'plami Toshkent 2012.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2017, T; Ma'naviyat 7 b.
3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori. «Umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standarti» to'g'risida.
4. «Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standarti» to'g'risida. 2017 y, O'zb. Resp. qonun hujjatlari to'plami 14-son 280 modda
5. X.Muhitdinova va boshqalar. 10-sinf O'zbek tili darsligi 2017, T; «Davr Nashriyoti» 142 b.

**KORXONA BOSHQARUVIDA YORDAM BERUVCHI KPI VA  
INVENTARIZATSIYA TIZIMLARINING ALGARITMLARI**

*Nasirullayev Fathullo Valilulla og'li*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti*

*Kompyuter injiniring (Amaliy dasturiy vositalarni loyihalash) magistri*

*Telefon: +99894 038 51 50*

*E-pochta: [n.f.v.0417@gmail.com](mailto:n.f.v.0417@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatdagi barcha sohalar va tarmoqlarda savdo xizmatlarining o'рни va roli, kolaversa, savdo xizmatlari tushunchasiga turli olimlarning ta'riflari, belgilangan maqsadlarning murakkabligi mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida tarmoqning bozor mexanizmida asosiy bo'g'inga aylanib borayotgan savdo xizmatlarida yordam beruvchi KPI va inventarizatsiya tizimlarini har tomonlama chuqur o'rganish maqolaning asosiy maqsadi sifatida urganilgan.

**Kalit so'zlar:** raqobat, modernizatsiya, boshqaruv vektori, sub'ektiv ko'rsatkichlar, korxonalar, savdo xizmatlari.

### **KIRISH**

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga qaratilgan. Uning tarkibiy qismi bo'lib hisoblangan savdo xizmatlari sohasini rivojlantirish – aholiga ko'rsatilayotgan savdo xizmatlari sifatini oshirish hamda turli xildagi talablarini qondirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda milliy iqtisodiyotni tubdan modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida qator choratadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF4947sonli «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish, davlat va xususiy sektorlarning o'zaro foydali hamkorligining zamonaviy shakllarini, «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish bo'yicha choratadbirlarni amalga oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Zamonaviy tadqiqotlarda samaradorlik ko'rsatkichlarini attestatsion va xarajatli ko'rsatkichlarga ajratilmoqda. Attestatsion samaradorlik ko'rsatkichlari umumiy natijalarni va korxonaning yalpi rivojlanishini aniqlashni maqsad qiladi. Xarajatli samaradorlik ko'rsatkichlari esa korxonaning ma'lum bir faoliyat turida xarajatlari va ularning qoplanish darajasini o'lchashni maqsad qiladi.

### 2-jadval. Savdo korxonalaridagi samaradorlik ko'rsatkichlari turlari

Samaradorlik ko'rsatkichlari turlari	Izoh
Ob'ektiv ko'rsatkichlar	Korxonaning ob'ektiv moliyaviy va iqtisodiy holatini baholash uchun ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar
Sub'ektiv ko'rsatkichlar	Korxonada xodimlarining psixologik va jismoniy resurslarini baholashga qaratilgan ko'rsatkichlar
Attestatsion ko'rsatkichlar	Korxonaning umumiy rivojlanish holatini aniqlashni maqsad qilgan ko'rsatkichlar
Xarajatli samaradorlik ko'rsatkichlari	Korxonaning ma'lum bir tovar yoki xizmatni ishlab chiqarish va sotish g'ajetgan xarajatlarni baholashni maqsad qiladi
KPI (key performance indicators) Asosiy faoliyat ko'rsatkichlari	Korxonaning oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishini ta'minlanganligini baholashga yo'naltirilgan ko'rsatkichlar

Bugungi kunda KPI asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini ko'plab tashkilotlarda tobora ko'proq qo'llanilmoqda. KPI ko'rsatkichlar tizimini yaratish orqali nafaqat individual korxonalar, balki butun sanoat turlarini ham baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Masalan, Biletix.ru onlayn savdo agentligining bosh direktori A.Siznitsevgaga ko'ra onlayn savdoda oflayn savdoda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarning ko'pi samaradorlikni aniqlashda qo'llanilmaydi. Siznitsevgaga ko'ra onlayn savdo bozorida bozorning o'sishi savdo hajmlari o'sishidan sekinroq bo'lgani sababli odatda onlayn savdo do'konlari samaradorlik normasini onlayn savdo bozorining o'sish tezligini belgilab olinadi. Agar savdo hajmlarining o'sishi umumiy bozorning o'sish tezligidan pastroq bo'lsa, demak samaradorlik pasaygan degan xulosani beradi. Bu holatda veb-sayt reklamasini ko'paytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, onlayn savdoda qo'shilgan qiymati yuqoriroq tovar va xizmatlarning jami sotilgan tovar va xizmatlardagi ulushining o'sishi samaradorlikning o'sishini anglatadi.

Onlayn savdoning muhim jihatlardan yana biri bu rentabelligi yuqori bo'lgan savdo kanallari orqali sotuvlar hajmini oshirish hisoblanadi. Ya'ni yuqori darajada mashhur bo'lgan platformalar orqali savdo hajmlarini ko'paytirish daromadlarni tezda

yuqorilashiga olib keladi. Yana bir muhim samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri bu sodiq mijozlar sonining ko'payishi hisoblanadi. "Sodiq" mijoz deganda ikki martadan ko'p marta tovar va xizmatlarni sotib olgan mijozlar nazarda tutiladi. Yuqorida keltirilgan samaradorlik ko'rsatkichlar o'ziga xos KPI bo'lib xizmat qiladi. KPI yordamida xodimlarning natijaviyligini samarali baholash imkoniyati paydo bo'ladi. KPI ni qamrov darajasiga qarab operatsion va global turlarga ajratish mumkin. Operatsion KPI deganda korxonaning joriy holatida yuz berayotgan tashqi o'zgarishlarni vaqtida aniqlash va rejali choralar ko'rishni nazarda tutadi. Aynan shu turdagi KPI asosida korxonada mahsulot sifatligi darajasini ham aniqlash mumkin. Global KPI esa korxonaning umumiy rivojlanishida muammolarni aniqlash va bartaraf etishga yo'naltirilgan bo'ladi.

### XULOSA VA MUNOZARA

Umuman olganda, KPI korxonalar rahbariyati tomonidan xodimlarga aniq vazifalarni qo'yishi va ushbu vazifalarning bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi bilan bog'liq hisoblanadi. Ushbu usul korxonalar natijalarini oldindan hisoblash imkonini beradi va bosh strategiyani vaqt davomida to'g'rilab borish imkonini beradigan asoslangan gipotezalar qurilgan hisoblanadi. KPI ning boshqa samaradorlik ko'rsatkichlaridan ustunligi shundaki, ushbu ko'rsatkichlar tizimi har bir korxonalar uchun faoliyat turiga qarab individual tuziladi hamda yuqori natijadorlikka erishgan xodimlarni aniqlash va ularni rag'batlantirishga zamin yaratadi. Savdo xizmatlarida KPI quyidagilarga asoslanadi: mahsulot realizatsiyasi, foyda, tannarx, aylanma kapital va korxonalar rezervlari hajmi kabilar hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi «Innovatsion loyihalarni va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi PQ916son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/1372342>
2. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O'quv qo'llanma. // G'.H.Qudratov, B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardaev, A.Bektemirov, Sh.A.Sultonov, F.B.Abdukarimov, U.N.Normurodov, Z.S.Artikov, O.M.Pardaeva, Sh.Sh.Negmatova; // I.f.d., professor M.Q.Pardaevning umumiy tahriri ostida.  
– T.: "IQTISODMOLIYA" nashriyoti, 2016. – 430 bet.
3. Xaydarov M.T., Muminov N.G. Davlat xaridlari bo'yicha axborot portalini amal qilishini tashkil etish tamoyillari // *Ekonomika i finansy (Uzbekistan)*. 2011. № 3. B.8995.
4. Samuelson P., «Ekonomika» T., INAO, «ALGON» VNIISI, 1992, s.36.
5. Kotler F. «Основы маркетинга». М., Progress, 2010 s. 54



**KORXONA MA'LUMOTLARINI XAFSIZLIGNI TAMINLASH  
YO'LLARI VA VOSITALARI**

*Nasirullayev Fathullo Valilulla og'li*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti*

*Kompyuter inqiniring (Amaliy dasturiy vositalarni loyihalash) magistri*

*Telefon: +99894 038 51 50*

*E-pochta: [n.f.v.0417@gmail.com](mailto:n.f.v.0417@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada korxonalar ma'lumotlari iqtisodiy xavfsizligini baxolashning ko'rsatkichlar tizimi yoritib berilgan. Shuningdek iqtisodiy xavfsizlik mezonlari to'plami va ularni tashkil yetuvchi ko'rsatkichlar o'rganilgan. Bundan tashqari korxonaning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar darajasini aniqlash uchun yekspert baholash usullaridan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ham bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy xavfsizlik, foyda funksiyasi, iqtisodiy xavfsizlik koeffitsienti, moliyaviy mustaqillik koeffitsienti.

### **KIRISH**

Xavfsizlik muammolarining dolzarbligiga qaramay, korxonalarining iqtisodiy xavfsizligi va uni baholash ko'rsatkichlari tizimi yetarlicha o'rganilmaganligi va uning darajasini hozirgi zamon talablariga qanchalik darajada javob berish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda bunday baholashning umume'tirof yetilgan metodologiyasi mavjud yemas.

### **TADVIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Ma'lumki, mezo, makro- va mikro darajada iqtisodiy xavfsizlik darajasining mohiyati tegishli mezonlar va ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi.

Iqtisodiy xavfsizlik mezonlari to'plami va ularni tashkil yetuvchi ko'rsatkichlar o'rganilayotgan sub'ektning faoliyatiga, uning iqtisodiy holatiga ta'sir ko'rsatadigan barcha tarkibiy qismlarini aks yettirish uchun imkon qadar ma'lumotlar aniq bo'lishi shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikka munosib tahdidlarni aniqlashga ye'tibor qaratish lozim bo'ladi. Iqtisodchi olim V.k. Senchagov ta'kidlaganidek, iqtisodiy xavfsizlik mezoni bu – iqtisodiy xavfsizlik mohiyatini aks yettiruvchi yeng muhim jarayonlar nuqtai nazaridan iqtisodiyotning holatini baholashdir.<sup>1</sup> Iqtisodiy xavfsizlikni baholash mezonlari bo'lishi mumkin, bular: resurs salohiyatiningholati va uni rivojlantirish imkoniyati, resurslar, kapital, mehnat omillari-dan samarali foydalanish darajasi,



iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyati va ijtimoiy nizolarni hal qilish imkoniyati kabi omilarni keltirish mumkin.

shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash uchun iqtisodiy xavf-sizlik darajasini iqodalovchi ko'rsatkichi,  $E$  multiplikativ taklif qilingan

$$E = d_m * k_{ma} * k_{me}$$

Ushbu ko'rsatkichni baholashning eng yuqori qiymati bitta. Agar  $E$  birlikdan katta yoki teng bo'lsa, unda iqtisodiy daraja xavfsizlik nafaqat yuqori darajada, balki tashqi muhitda yuzaga keladigan iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun korxonaga o'z resurslariga yetga bo'lishi lozim. Agar  $E$  ning qiymati birlikdan kam bo'lsa, unda iqtisodiy xavfsizlik tizimidagi determinantlarni batafsil tahlil qilish kerak.

$k_{ma}$  – tizimdagi makro daraja determinantlarining ta'siri koeffitsienti yekspert baholash natijasida olingan parametrlarning o'rtacha qiymati sifatida olingan korxonaning iqtisodiy xavfsizligini belgilaydi;

$k_{me}$  – tizimdagi mezoskalning determinantlarining ta'siri koeffitsienti yekspert bahosi natijasida olingan parametrlarning o'rtacha qiymati sifatida olingan korxonaning iqtisodiy xavfsizligini belgilaydi.

Mavjud resurslarning zarur miqdoriga muvofiqligini aniqlash tartibi iqtisodiy xavfsizlikni baholashning keng qamrovli metodologiyasining yelementlaridan biridir. Muvofiqlikni baholash uchun tavsiya yetilgan hisoblash kattaliklar  $d_{mi}$  – korxonaga tarkibiy qismlari uchun mavjud resurslarning yetarliligini tavsiflovchi o'rtacha qiymat;

**Maqola mazmuni:** Buyrak usti bezi ichki sekiritsiya bezlar guruhiga kirib organizmda ma'hum funksiyalarni bajaradi. Lotincha nomlanishi – glandula suprarenalis deb ataladi. Buyrak kabi juft bo'ladi yaniy har bir buyrakning ustida joylashgan. Buyrak usti bezi qalin yog qatlam bilan qoplangan bo'lib uni xarhil mexanik tasirlardan himoya qiladi. Buyraklarning joylashishi bir biridan farq qilganligi uchun buyrak usti bezlarining shaklini ham o'zgarishiga sabab bo'lgan. O'ng buyrak usti bezining shakli uch burchak shaklini olgan bo'lsa, chap buyrak yarim oysimon shakilni olgan. Buyrak usti bezining ikkita miya va po'st qismlari mavjud. Bu qismlar tuzulishi va vazifasi jixatdan bir biridan farq qiladi. Shu bilan birga ulardan ishlab chiqariladigan garmonlar ham katta farq qiladi. Buyrak usti bezining hujayralari genetik jihatdan po'stloq qismi epeteliy hujayralariga juda yaqin turadi. Ular uchta qismli sohadan tashkil topgan bular: tashqi - kaptokchali soha, o'rta – tutamli sohani va ichki – to'rli soha. Koptokchali sohada mineralokortikoidlar sintizlanadi. Tutamli sohasida glyukokortikoidlar sintiz bo'ladi. Buyrak usti bezi taraqqiyoti homlaning 4-5 haftasida ichki tutqich asosidagi ikkita selomik epeteliyning qalinlashgan sohasidan paydo bo'la boshlaydi. Shundan so'ng asta sekin buyrak usti bezining takomlashishi boshlanadi. Bunda barcha qon- tomir ,nerv sistimalari paydo bo'la boshlaydi.

Buyrak usti po'stloq qismidandan ishlab chiqarilgan garmonlar yuqoridagi ko'rsatilgan guruhlarni tashkil qiladi. Bu garmonlar ichida glyukokortikoidlar katta faolyatni amalga oshiradi.

### **Garmonlarning vazifalari.**

**Mineralokortikoidlar:** Na ni organizmda saqlanishi ,K ni organizmdan chiqarilishi, yalig'lanishga olib keluvchi ta'siri.

**Jinsiy garmonlar:** Ikkilamchi jinsiy belgilarni rivojlantiradi, jinsiy funksiyalarning normallasuvi. Bu garmon yosh o'smir organizmlarini voyaga yetqazishda muhim hisoblanadi. Bugarmonning yetishmovchiligi bolani voyaga yetishini sekinlashtirib yuboradi.

**Glyukokortikoidlar:** Adabtatsiyaning faollashuvi, glikozani to'qimalar orqali tutulishi, muskullarda oksidlanishning faollashuvi, limfosillarning parchalanishi, antitelolarning ajralishi, oqsillar parchalanishining faollashuvi, yalig'lanishlarga qarshi tasir, glikoneogenez, jigarda oqsillar sintezi.

Buyrak usti bezining mag'iz qismidan adrenal va noradrenalin garmonlar ishlab chiqariladi. Bu ikkala garmon birgalikda katexolamin deb nomlanadi. Garmonlar ishlab chiqarilishida har hil mag'iz hujayralari ishtirok etadi. Vena qontomrlariga quyiladigan katexolaminlarning 80% ni adrenal tashkil qiladi, qolgan 20% zi esa boshqa garmonlar tashkil qiladi. Bular quyidagi funksiyalarni bajaradi: qorachiq kengayishi, gipertenziya, yurak ishini faollashtirish, giperglikeniya, yurakqisqarishlar energiyasini ortishi, bronxlarni kengaytiradi, teri tukchalarini to'g'irlanishi kabi hayotiy muhim vazifalarni amalga oshiradi. Hozirgi kunda buyrakning shamolashi tufayli buyrak usti bezi ham zarar ko'rishni aniqlangan. Natog'ri ovqatlanish, shaxsiy gigenaga roiya qilmaslik oqibatlaridaha bunday kasaliklar yuzaga kelib chiqadi. Buyrak usti bezining har bir qavatini kasalliklari mavjud. Buyrak usti bezining po'stloq qavatini surunkali yetishmovchiligi Adisson kasaligi deb ataladi. Bu kasallikdan sababli bu bezning po'stloq qavatini garmon ishlab chiqarmay qo'yadi. Barcha yoshdagi va barcha jinsdagi odamlarda bir hil uchraydi. Adisson kasaligi to'sadan paydo bo'lib qoladigan kasalik hisoblanadi. Xalq orasida bu kasalik «Bronza kasaligi» name bilan ataladi. Bu kasalikni davolashda garmonlar o'rnini egalaydigan preparatlar buyuriladi va ular organizmga yetmayotgan garmonlarni qoplab beradi. Bu kasallikning belgilari: 1. mushaklar kuchsizligi, holsizlik alomatlari 2. ishtahaning pasayishi, vazinining yo'qolishi 3. arterial qon bosimning ko'tarilishi, xushdan ketish 4. tuzlarga bo'lgan extiyoj ning ortishi va boshqa belgilari mavjud. Ko'pchilik shamollash kasalliklari buyrak usti bezining faolyatini buzib yuboradi bu esa organizmning har hil kasaligiga sabbachi bo'lib odam saloomatligiga jiddiy tasir qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.X Shagzatova « Endokrinologiya»
2. I Ismailov « Endokrinologiya»
3. Mark S. *Nyu-York: Thieme Medical Publishers. 7 2010.*
4. Greenberg. »Neyroxirurgiya bo'yicha qo'llanma.«
5. Internet tarmoqlari.
6. «Qandli diabet sabablari»
7. «Qandli diabet turlari»

## MADANIYATNI SHAKLLATIRISHDA TILLARNING O'RNI

*Gulhayo Tog'ayeva Orzumurodovna*  
*Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani*  
*12-maktab ingliz tili o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** E.Sepir fikricha, madaniyatni muayyan jamiyat bajarayotgan va o'ylayotgan narsalar yig'indisi deb belgilash mumkin. Til esa shu narsalarni qanday o'ylayotganidir. Bundan kelib chiqadiki, til madaniyatni namoyon etishning ichki shaklidir. Madaniyatning asosiy belgisi shaxsning ruhiy-ma'naviy jihatdan boy bo'la olishidir. Inson material va ruhiy madaniyatga tegishli bo'lgan tilni o'zlashtirish jarayonida «madaniyat dunyosi»ga sho'ng'iydi. Madaniyatning milliy xarakteri turli millatlararo til va madaniyat aloqalari, insoniyat taraqqiyotida shakllangan dunyo madaniyatidagi «fundamental asoslar»da boyib borishini taqozo qiladi. Madaniyat millat mahsuli bo'lib, milliy (maxsus, xususiy) va umumiy (internasional) birlik hisoblanadi. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va ularning nisbati, muammosi necha asrlardan beri bir qator taniqli olimlarning diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Ammo, hozirgacha bu masala bahstalabligicha qolmoqda: ba'zilarning nazarida til madaniyatga xuddi uning bir bo'lagiday qarashli, ikkinchi toifaning qarashicha, til asosan madaniyatni ifoda etish shaklidir, xolos, uchinchi guruh fikricha, til madaniyatni ifodalovchi shakl ham emas va madaniyatning unsuri ham bo'la olmaydi. 1 Misol tariqasida ikki buyuk olim, Amerika va Rossiya etnik tilshunoslik maktablari asoschilarining so'zlarini keltirishimiz mumkin. E. Supruning fikriga binoan «Madaniyatga ma'lum jamiyat nima bilan mashg'ul va nima haqida o'ylamoqda, deb ta'rif berilsa, til ularni qay tarzda o'ylayotganliklaridir». 2 N.I.Tolstoyning yozishicha, «Madaniyat va tilning munosabatiga, biror bir butun buyum va uning bir qismi munosabati sifatida qaralishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Fenomen, lingvistik nisbiylik gipotezasi, devoni shams, Shams shuehi, masnaviy

**Kirish: TIL – MADANIYAT FENOMENI** Til hodisalarida muayyan ijtimoiy madaniyat yotadi. Dunyoning siyosiy qiyofasida dunyoning ijtimoiy-madaniy surati aks etadi. So'zlashuv tilidan real foydalanishda tildan tashqari omillar mohiyatini, tilda nima ifodalanayotganini bilish kerak bo'ladi. Lingvokulturologiya masalasida eng asosiy e'tibor uning terminologiyasiga kiruvchi tushunchalar, ularning tadqiq metodlari, manbalarini aniqlashga qaratilgan. «Til va madaniyat» konsepsiyasi inson, uning tafakkurini o'rganuvchi barcha fanlardan kelib chiqadi. Insonni uning tilisiz o'rganishning iloji yo'q. Til o'zida milliy madaniyat va uning mohiyatining asosiy ko'rinishini aks ettiradi. E.Sepir fikricha, madaniyatni muayyan jamiyat bajarayotgan

va o'ylayotgan narsalar yig'indisi deb belgilash mumkin. Til esa shu narsalarni qanday o'ylayotganidir. Bundan kelib chiqadiki, til madaniyatni namoyon etishning ichki shaklidir. Madaniyatning asosiy belgisi shaxsning ruhiy-ma'naviy jihatdan boy bo'la olishidir. Inson material va ruhiy madaniyatga tegishli bo'lgan tilni o'zlashtirish jarayonida «madaniyat dunyosi»ga sho'ng'iydi. Madaniyatning milliy xarakteri turli millatlararo til va madaniyat aloqalari, insoniyat taraqqiyotida shakllangan dunyo madaniyatidagi «fundamental asoslar»da boyib borishini taqozo qiladi. Madaniyat millat mahsuli bo'lib, milliy (maxsus, xususiy) va umumiy (internasional) birlik hisoblanadi. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va ularning nisbati, muammosi necha asrlardan beri bir qator taniqli olimlarning diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Ammo, hozirgacha bu masala bahstalabligicha qolmoqda: ba'zilarning nazarida til madaniyatga xuddi uning bir bo'lagiday qarashli, ikkinchi toifaning qarashicha, til asosan madaniyatni ifoda etish shaklidir, xolos, uchinchi guruh fikricha, til madaniyatni ifodalovchi shakl ham emas va madaniyatning unsuri ham bo'la olmaydi.<sup>1</sup> Misol tariqasida ukki buyuk olim, Amerika va Rossiya etnik tilshunoslik maktablari asoschilarining so'zlarini keltirishimiz mumkin. E. Supruning fikriga binoan «Madaniyatga ma'lum jamiyat nima bilan mashg'ul va nima haqida o'ylamoqda, deb ta'rif berilsa, til ularni qay tarzda o'ylayotganliklaridir».<sup>2</sup> N.I.Tolstoyning yozishicha, «Madaniyat va tilning munosabatiga, biror bir butun buyum va uning bir qismi munosabati sifatida qaralishi mumkin. Til – madaniyatning tashkiliy qismi yoki madaniyatning quroli (aytish joizki, bu ikki tushuncha bir xil ma'noga ega emas) deb qabul qilinishi mumkin, xususan, gap agar adabiy til yoki folklor tili haqida borayotgan bo'lsa. Lekin ayni paytda til umumiy holda madaniyatga nisbatan muxtor(erkin, mustaqil) hisoblanadi va unga madaniyatdan alohida holda ham qarash mumkin yoki til madaniyat qatori teng baholi va teng huquqli mo'jiza sifatida baholanadi». XXI asr boshiga kelib tilshunoslik tilga bog'liq bo'lmagan ta'sir kuchlarini to'liq inkor etishdan - «til faqat o'zining ichida va faqat o'zi uchun» - to til muammosining ijtimoiy-madaniy, aloqaviy, ruhiy, muayyan holati o'ram (kontekst) sharoitlarni chuqur tahlil qilish zarurati va ularni «tilshunoslik ongining eng nurli nuqtasiga» (L.V. Sherba) joylashgacha bo'lgan masofani bosib o'tdi. Ta'kidlash joizki, XX asrning 70-yillari uchun «semantik hujum» xarakterli bo'lsa, 80-yillarda asosiy e'tibor tilning aloqaviyligiga qaratilgan edi. XX asrning oxirgi yillari «kognitiv jazava davri» bo'lsa, asrimizning dastlabki yillaridan boshlab tilshunoshlikning mazkur chegaralari kengaytirildi. Birinchi o'rinda hozirgi zamon tilidagi «ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'zgarishlar» davlatlardagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar va boshqa tashqi, tilshunoslikka doir o'sha zaruriy omillar bilan bog'liq o'zgarishlardan chiqib keldi. Mazkur o'zgarishlar ko'pincha tildagi o'zgarishlarni belgilovchi omillar hisoblanadi. O'z navbatida, tildagi yangi o'ramlar jamiyatda yangi madaniyatning tug'ilishiga asos bo'ladi. V.fon. Gumboldt o'z vaqtida til va

madaniyatning o'zaro munosabatlari muammosini echishga uringan va, jumladan, «ashyoviy va ma'naviy madaniyat tilda mujassamlanadi. Har bir madaniyat milliydir, uning milliy xarakteri dunyoni turlicha talqin qilish orqali til bilan ifodalanadi. Tilda har bir xalq uchun xos bo'lgan ichki shakl mavjud, ana shu ichki shakl milliy ma'naviyat va madaniyatning ifodasi sanaladi; til insonni tashqi muhit, tashqi dunyo bilan bevosita bog'lovchi vosita hisoblanadi»<sup>4</sup> degan fikrni olg'a surgan edi. Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro zaruriy sharoitlar xarakterini alohida ta'kidlash lozim. Til tilshunoslik va madaniyatshunoslik mo'jizasi sifatida barcha madaniy boylklarni o'zida mujassamlashtiradi, o'z navbatida, har qanday milliy madaniyat muayyan bir tilning xarakteri va o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Til, D.S.Lixachev ta'biri bilan aytganda, turli madaniy til hamjamiyatda mujassamlashgan milliy madaniyatlarni jamlovchi vazifasini bajaradi.<sup>5</sup> Shu bilan birgalikda, til lug'aviy va ma'noviy tarzda madaniyatning jami qirralarini, murakkab bo'lgan butun jamiyatni qamrab olish qudratiga ega bo'lgan olam hisoblanadi. Shuning uchun amerikalik madaniy ijtimoiyot mutaxassisi N. Silazer aytganidek, «Madaniyatning jami unsurlari tilda ifodalanishi mumkin». U tilga odamlarning tajribasini shakllantiruvchi va tashkil etuvchi muhim ijtimoiy-madaniy omil sifatida qarar ekan, bu holatni quyidagicha izohlaydi: «Til xuddi madaniyat singari umummaqbul tushunchalarga ega. Aloqa faqatgina barcha qatnashchilarga tushunarli, ular tomonidan qabul qilinuvchi va foydalanuvchi tushunchalar mavjud bo'lgan holatga ega». Ammo bunday «umummaqbul tushunchalar» imkoniyati, asosan, bir til doirasida mavjud bo'ladi. Bu erda falsafiy-ijtimoiy planda tilning yana bir muhim vazifasi – odamlarni ma'lum bir ijtimoiy guruh, etnik jamiyat doirasida shaxsni taqqoslash vazifasi ko'zga yaqqol tashlanadi. «Bir jihatdan muloqot qilish imkoniyati ijtimoiy guruh a'zolarini jipslashtiradi. Umumiy til odamlarni birlashtiradi. Boshqa jihatdan esa – umumiy til shu tilda gaplashmaydiganlarni inkor etadi». V.I.Karasikning fikriga ko'ra, “til va madaniyat – gumanitar bilimlarning muhim tushunchasidir. Tilning ijtimoiy mohiyati shundan iboratki, u dastavval individual va kollektiv til ongida mavjud bo'ladi. Shu sababli til kollektivi (bir tilda so'zlashuvchi) bir tomondan alohida shaxsiyat, ikkinchi tomondan esa, tilda madaniyatni tashuvchi hisoblanadi”.<sup>6</sup> M.M.Baxtin milliy madaniyatni boshqa milliy madaniyatlar bilan dialog (hamkorlik)ga qarab o'zidagi ayrim xususiyatlarga chuqurroq e'tibor qaratishi xususida yozar ekan, jumladan, shunday deydi: «Biz begona madaniyat oldiga yangi savollarni qo'yamiz. Bunday savollar o'sha madaniyatga o'zinikilar tomonidan qo'yilmagan. Begona madaniyat bizning savollarimizga javob berar ekan, o'zida yangi qirralarni tuyadi, yangi ma'noviy chegaralarni namoyish etadi». Agar tilga madaniyatning tizimlovchi unsuri sifatida qaraladigan bo'lsa, unda madaniyatni ma'noviy tizim sifatida talqin etish mumkin. Y.M.Lotmanning so'zlariga binoan, boshqa madaniyat – bu muayyan bir til bilan



tilsimlangan xotiradir: “Til – bu tilsim (kod) hamda uning tarixidir”. Garchand til va madaniyat turli lug'aviy-ma'noviy tizim bo'lsa ham, ular ba'zi bir umumiy jihatlarga ega, masalan, bu inson dunyoqarashini ifodalaydigan anglash shakllari bo'lishi mumkin. Bu shakllar o'zaro muloqotda mavjuddir; ham til va ham madaniyat uchun me'yoriylik va tarixiylik xos, ularning subekti – bu alohida hodisa yoki ijtimoiy uyushma, shaxs yoki jamiyat sanaladi. Zero, til haqiqatni ifodalaydi, madaniyat esa shu haqiqatning ajralmas qismidir. Demak, inson shu haqiqat bilan ro'baro' bo'lar ekan, til ham madaniyatning oddiy ifodalanishidir. Boshqacha qilib aytganda, til inson borlig'ining muhiti bo'lib, insondan tashqarida mavjud bo'la olmaydi, u insonning o'zida, ruhida, xotirasida va ongida o'zining shaklini fikrlar va aytiladigan so'zlarda o'zgaruvchan holatda namoyon etadi. Mazkur muammo E.Sepir va B.Uorf hamda yangi gumboldtchilar maktablari namoyondalari tomonidan ham tadqiq etilgan va “lingvistik nisbiylik gipotezasi” deya nomlangan farazlar ishlab chiqilgan. Mazkur gipoteza asosida odamlar dunyoni turlicha, o'z ona tillari oynasida ko'radilar, degan g'oya yotadi. Bu g'oya tarafdorlari uchun real dunyo tilda ifodlangani uchun ham mavjuddir. Ammo har bir til borliqni o'ziga xos usulda ifodalagani sababli tillar o'zlarining “borliqning lisoniy manzarasi”ga egadirlar. Tillarning «borliqning lisoniy manzasi»ni aks ettirishida madaniyat, milliylik, qadriyat va an'analar muhim rol o'ynaydi. Biz dunyoni turlicha ko'ramiz va turlicha qabul qilamiz, lekin faqat til tashqi dunyoni ko'rishimiz va uni his etishimiz usulini belgilaydi. Uorf yozadi: “Aniqlanishicha, har bir til tizimining asosi faqatgina fikrlarni ifodalab berishgina emas. Aksincha, grammatikaning o'zi fikrni shakllantiradi, har bir individiumning fikrlash faoliyatida dasturilamal hisoblanadi, uning taassurotlarining tahlili va ajratib olishining vositasiga aylanadi. Biz borliqni ona tilimiz ko'rsatgan yo'nalishda qabul qilamiz. Biz ro'yodagi u yoki bu kategoriya yoki tamoyilni uning yaqqol ifoda etilayotgani uchun ajratib qabul qilmaymiz, aksincha, dunyo ko'z oldimizda bizning ongimiz shakllantirgan holatda paydo bo'ladi. Demak, holat bizning ongimizda saqlanadigan til tizimi orqali namoyon bo'ladi. Biz dunyoni tushunchalarda shakllantiramiz va mohiyatini boshqacha emas, aynan shu tariqa belgilaymiz. Bu holat ma'lum til jamoasi uchun kuchga ega va bizning tilimiz modeli va tizimida tasdiqlangan”.<sup>9</sup> Bu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, Sepir-Uorf farazlarida til shu tilda so'zlashuvchi xalqning fikrlash qobiliyatini belgilab beradi. Dunyoni anglash qobiliyati fikrlovchi subekt qaysi tilda fikrlashiga ham bog'liq, degan fikr oldinga suriladi. Demak, olimning fikriga ko'ra, xalqning fikrlash qobiliyati ma'lum ma'noda uning madaniyatlik darajasi bilan bog'lanadi. Ya'ni, agar xalq madaniy jihatdan etuklikka erishgan bo'lsa, bu uning tilida ham o'z aksini topgan bo'ladi. D.Olford, D.Seroll, D.Xayms tadqiqotlarida lingvistik nisbiylik gipotezasi o'zining dolzarb ifodasini topdi va sezilarli tarzda boyitildi. Misol uchun, D.Xayms tomonidan ilova qilingan tillarning funksional nisbiyligi

prinsipiga asosan tillarning aloqaviy amaliyotida farqlanishlar mavjud. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, bir qator olimlar (D.Dodd, G.V.Kolshanskiy, B.A.Serebrennikov, R.M.Uayt, R.M.Frunkina, E.Xollenshten) lingvistik gipotezani keskin tanqid ostiga olishadi. Masalan, B.A.Serebrennikov o'zining mazkur gipotezaga bo'lgan munosabatini quyidagi shartlarda ifodalaydi:

1. Anglash asosini atrofdagi, dunyodagi predmetlar va holatlar tashkil etadi, har bir til o'z shakllanishida dunyoni paydo etuvchi asosiy kuch emas, balki inson tomonidan atrofdagi dunyoning aks ettirilishi natijasidir; 2. Til ko'proq insonning fiziologik shakllanish xususiyatiga moslashgan, ammo bu xususiyatlar tirik jonning atrof-muhitga uzoq vaqt moslashishi natijasida paydo bo'lgan; 3. Tildan tashqari bo'lgan kontiumning notekis taqsimlanishi ilk yo'nalishlar davriga to'g'ri keladi. Bu holat tushunchalarning (ehsoslarning) har xilligi va oldingi asrlardan qolgan til zaxiralarining bir xil emasligi bilan izohlanadi.<sup>10</sup> Hozirgi zamon olimlari tomonidan lisoniy nisbiylik farazi turlicha baholanadi. Ayni paytda til va madaniyat muammolari bilan jiddiy tarzda shug'ullanadigan barcha tadqiqotchilar bu gipotezaga murojaat etishadi. Zero, tilshunoslikda boshqa usullar yordamida anglashishining imkoniyati bo'lmagan masalalarni shu farazlar orqali tushunish engilroq kechadi. Masalan, ijtimoiy lingvistika asoschilaridan biri B.Bernstein madaniyatni grammatikaning ma'lum shakllarining paydo bo'lishiga, bu shakllarning ma'noviy va ta'limiy ahamiyatlariga saylovchi ta'siriga olishini aniqlashda Uorf asarlarining ahamiyati jiddiy bo'lganligini ta'kidlab o'tgan<sup>11</sup>. M.Koul gipoteza g'oyalarini "bu tadqiqotlarning navqiron va muvaffaqiyatli sohasi – inson tildan ijtimoiy aloqa uchungina emas, balki fikrlash quroli vositasida ham foydalanishi darajasini o'rganish jarayonida yashab kelmoqda».<sup>12</sup> Til va madaniyat o'rtasidagi munosabat xususidagi fikrlar buni asta-sekin til madaniyatning faktori, degan xulosaga olib keladi: Birinchidan, til ajdodlar merosining ajralmas bo'lagi hisoblanadi; ikkinchidan, til – bu madaniyatni o'rganish va o'zlashtirishning muhim jihozidir; uchinchidan, til madaniy tartibning eng muhim ifodasidir, zero, agar biz madaniyatning mohiyati – ilm, din va adabiyot deb olmoqchi bo'lsak, ularni tilsim, tilni esa, kalit deb qabul qilishimiz lozim. Shu bilan birgalikda, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni bir butun buyum va uning bo'lagi orasidagi munosabat sifatida baholash mumkin. Til madaniyatning unsuri va uning quroli tarzida qabul qilinishi mumkin. Aslida bu ikkala tushuncha bir xil ma'noga ega emas. Ammo ayni damda til madaniyatga nisbatan muxtor maqomga ega va umumiy tarzda mustaqil, muxtor lug'aviy-ma'noviy tizim ko'rinishida namoyon bo'ladi. Keyinchalik dialektika maktabi nazariyotchisi va faylasufi Georg Viligelim Fridrix Gegeli (1770-1831) Touluk asarlarini mutolaa qiladi. Toulukni hayron bo'lishiga sabab bo'lgan narsalar, uni xursand qildi. Gegeli shu darajada Mavlaviy qarashlarining ta'siriga tushib qoladiki, uning "vahdati vujud" nazariyasini o'zining "Falsafiy fanlar ensiklopediya"sida keltiradi.

Rumiy “aql”ni “aqli kull” va “aqli juz”ga bo'ladi. “Aqli kull” Rumiy nazarida ilohiy Mutlaq vujudning payg'ambarlikni yuzaga keltiradigan birinchi ayonlashuvi (ta'ayyuni avval)dir In jahon yak fikrat ast az Aqli kull, Aql chun shoh astu suvratho rusul. Mazmuni: Bu jahon Aqli Kulldan bir fikratdir Aql – shoh, suvratlar esa elchilar kabidir. Rumiy singari, Gegel falsafasida ham aql va tafakkur mutlaqlashtiriladi, ular inson va insoniyatga bog'liq bo'lmagan, tabiat, jahon tarixidan tashqaridagi absolyut mohiyat sifatida talqin etiladi (G'arb falsafasi. – T.: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati, “Sharq”,2004.- B. 487). Gegelning dialektika haqidagi ta'limoti – miqdor va sifat o'zgarishlari, ayniyat va ziddiyat haqidagi qarashlari ham Rumiy tafakkuridan sarchashma oladi. Rumiy ham, Gegel ham dunyoni harakatlantiradigan va taraqqiyotga sabab bo'ladigan narsa ziddiyatdir, degan xulosaga keladilar. Benson tillar bir asliy manba'dan vujudga kelgan degan fikr va tushunchalar tarafdori edi. U fors va arab tillarini Fransiya sharqshunosi Silivester De Sasidan o'rganadi va “Masnaviy”ni o'qib, do'stlari bilan suhbat jarayonida Mavlononing metafizikaga oid fikrlarini muhokama qiladi. Annemarie Shimmel bergan ma'lumotga qaraganda, Yozef fon Hammer (1774-1856) o'zining fundamental asari – “Eronda badiiy so'z san'ati tarixi” kitobida Olmoniyada birinchilardan bo'lib Rumiy hayoti, ijodi va qarashlari atrofida alohida to'xtalib o'tadi. Uning “Devoni Shams” g'azallaridan amalga oshirgan tarjimalarini o'qib chiqqan shogirdi - Fridrix Rukert (1788-1866) Rumiy g'azallari uslubida “G'azaliyot” nomli to'plam yaratdi. Bu g'azal janrining olman tilidagi ilk namunalari edi (Annemarie Shimmel. Islomning irfoniy jihatlari (fors tiliga tarjima). – Tehron, 1375.-B.496-497). Garchi Mavlaviy asarlarining tarjimalari yoki u haqda Amerikada naql qilingani ommaviy narsalar noqis yoki zaruriy ilmiy-nazariy tushunchalardan xoli bo'lsa-da, jahon xalqi mavjud tarjimalar orqali Mavlaviyning fikriy jozibalarini ilg'aydi, anglaydi va turli tarz va usulda u bilan fikriy va botiniy aloqa o'rnatadi. Annemarie Shimmel o'zining “Shams shukuhi” deb nomlangan tadqiqotida quyidagi masalalar xususida bahs yuritadi: 1) qadimiy tarix va sarguzashtnoma; 2) Rumiyning taxayyulot dunyosi; 3) Rumiy ilohiyoti: Yaratguvchi va yaratilgan mavjudotlar o'rtasidagi munosabat, Rumiyning inson haqidagi qarashlari; 4) Forsiyzabon adib va olmilarning Rumiy ijodi haqidagi mulohazalari; 5) Muallifning xotiralari. Annemarie Shimmel tasavvuf ta'limotining yirik tadqiqotchilaridan biri bo'lib, o'zidan ahamiyatga molik asarlar qoldirdi. Shimmel “Shams shukuhi” kitobida Mavlaviyning irfon va ilohiyotga oid fikrlarini tadqiqot doirasiga tortar ekan, unga nisbatan bo'lgan har qanday shubhani bartaraf etish, uning nuroniy va samimiy chehrasini ko'rsatishga harakat qiladi. Shimmel vahiy, inson maqomi, moddiy dunyo aksi, haqiqiy ishqning asl ildizi kabi mavzularga oid Mavlaviyning falsafiy fikrlariga jiddiy e'tibor qaratadi. A.Shimmelning XIX asr romantizmi davrida Mavloni Jaloliddin Rumiyning

nemis shoir va yozuvchilariga ta'siri masalasiga oid tadqiqoti ilm sohada kam uchraydigan hodisadir. U Mavlaviyning “Fiyhi mo fiyhi” asarini ingliz tiliga tarjima qildi. Undan tashqari Shimmel Mavlaviy ta'limotiga doir ko'pgina jiddiy maqolalar yozdi, ulardan “Mavlono Rumi: kecha, bugun va erta” maqolasini alohida qayd qilish joizdir. Bu muallifning yana bir kitobi “Mening ruhim ayoldir”, deb nomlanib, “Masnaviyi ma'naviy”da keltirilgan ayollarga taalluqli hikoyat va dostonlar xulosasidir. U 1948 yilda “Masnaviy”dagi tasvirlar va obrazlar haqida yaratilgan chuqur va keng ilmiy tadqiqotini olmon tilida chop ettirdi. Bu kitob olimaning Rumi ijodiy faoliyati haqida uzoq yillar olib borgan tadqiqotlari samarasidir. Uning eng muhim kitobi Bahoi Valad tarjimai holi va asarlariga bag'ishlangan.

Xulosa: til va jamiyat o'rtasida doimiy ta'sirlashuv kechadi. Fan va ta'lim, madaniyat va san'at, texnika va davlatchilikning taraqqiyoti til va jamiyat ta'sirlashuvining asosiy omillaridir. Bunday ta'sirlashuv jarayonini harakatlantiruvchi kuchi, albatta, inson va u mansub jamiyat. Jamiyat ehtiyojlari esa tilning vazifa doirasida kengayish, usluban to'lib-to'liqib borishiga sabab bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Serebrennikov B.A. O materialisticheskome podxode k yavleniyam yazika. –M., 1983. –S. 87.
2. Bernstein B. Social class, language and socialization // The psychosociology of language / Ed. S. Voscovici.- Chicago: Markham Publishing Co, 1972. 98.
3. Koul M. Kuliturno-istoricheskaya psixologiya. Nauka budushego. -M., 1997. –C. 156.

**A.FITRATNING "OILA VA OILANI BOSHQARISH TARTIBLARI"  
ASARINING "UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASI" DA  
TUTGAN O'RNI**

*Husan Toshmirzayev*

*“Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari”*

*Ma'naviyat asoslari mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

*Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasidan*

**Kalit so'zlari:** uzluksiz tarbiya, ma'naviy tarbiya, oila, boshqarish, farzand, konsepsiya, sog'lom muhit.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada A.Fitratning "Oila va oilani boshqarish tartiblari" asarining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" da tutgan o'rni haqida fikr yuritgan.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarini yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro'yobga chiqarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi:

- ❖ ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- ❖ tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;
- ❖ bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish;
- ❖ tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish;
- ❖ ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish;
- ❖ ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

Ulug` adibimiz Abdurauf Fitratning badiiy va ilmiy asarlari bilan birga axloqiy masalalarga doir bir qator risolalari bor. Ularda komil inson shaxsini shakllantirish bilan bog`liq muammolar va ularning yechimi aks etgan. Asosiy na'munalaridan biri Oila va oilani boshqarish tartiblari asari hisoblanadi.



Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asari oilaning paydo bo‘lishi, uning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati, oilada amal qilinadigan ichki tartib va qoidalarga bag‘ishlangan. Ayniqsa, asarning “Uylanish yoki uylanmaslik xususida”, “Qalin (puli) va to‘y qanday bo‘lishi lozimligi haqida”, “Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida”, “Oilaning maishati va idorasi” qismlarida bu masalalar xususida atroflicha fikr yuritilgan.

Abdurauf Fitrat ushbu asarida har bir yangi oila uchun qo‘llanma vazifasini o‘tashi mumkin bo‘lgan masalalarni yoritadi. U vatanparvarlik va millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, kitobning birinchi qismiga, ma‘lum ma‘noda me‘yoriy dasturilamal tarzida tartib beradi. Undan har bir yangi oila qurmoqchi bo‘lgan turkistonlik kichik hajmdagi axloqiy-maishiy, gigienik-salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin edi. [Bundan tashqari](#), asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo‘lgan holatlarning axloqiy asoslari to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tadi. Bu jihatlarni o‘sha davr nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak juda ijobiy jihat hisoblanadi. Chunki, bu davrda Turkistonda xali medisina unchalik rivojlanmagan, kishilarning turmush madaniyati ham u qadar yuqori emas edi. Fitrat ko‘plab xorijiy davlatlarda bo‘lganligi sababli, u yerdagi ijobiy, o‘rganish zarur bo‘lgan, turmush tarziga oid juda ko‘p tajriba ortirgan edi. Asarda aytiladiki, oila va farzand masalasi erkak yo ayolning xususiy masalasi emas. Farzand nafaqat ota-ona hayotining davomi, balki ayni paytda millatning ha iqtidorli, obro va e‘tiborini belgilaydigan zanjir xalqasidir. Millat esa vatan mamlakatning yuragi, demak, millat son jihatidan qanchalik ko‘p bo‘lsa u yashayotgan vatanining ham kuch-qudrati shu qadar bo‘lishi tabiiy. Oila masalasi millat, mamlakat, kishilik jamiyatidagan uchlikni ta‘minlab turuvchi muhim bir xalqadir. Fitrat talqinida son, miqdor sifat degani emas, xalqning soni ko‘p bo‘lishi ammo uni tashkil etuvchi kishilar ishyoqmas tebsa tebranmas kishilar ham bo‘lishi mumkin. O‘z saodati, kelajagi, yaxshi yashashi, osuda hayot egasi bo‘lisho‘sha millat kishisining harakatchanligiga ham bog‘liqligini aytadi. “Qaysi millatning namoyondalari g‘ayratli, shijoatli bo‘lsalar, qo‘l oyog‘I kuchli va chaqqon, hamda a‘zolari sog‘ va faol izzat vae‘tibor sohibi bo‘ladilar”.

Konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz ma‘naviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilg‘or innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas‘uliyatlilik, bag‘ri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Oilalar, ta‘lim muassasalari, mahallalar va korxonalarda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish layoqatiga ega bo‘lgan yoshlarning ma‘naviy kamol topishi uchun zarur bo‘lgan innovatsion ijtimoiy-pedagogik sog‘lom va barqaror muhit yaratiladi.



Jamiyatda jinoyatchilik, ekstremizm, terrorizm, korrupsiya, firibgarlik, ko‘zbo‘yamachilik, yolg‘onchilik, egotsentrizm, axloqiy buzuvlik, oilaviy ajrimlar, mehr-oqibatning kamayishi, “ommaviy madaniyat”ga ko‘r-ko‘rona taqlid, loqaydlik, begonalashuv, o‘zibo‘larchilik, farzand tarbiyasida mas‘uliyatsizlik, oilaviy qadriyatlar inqirozi, el-yurt taqdiriga befarqlik kabi illatlar keskin kamayadi. Band bo‘lmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishga, kelajakka bo‘lgan ishonchi oshadi. Mamlakat dunyoda raqobatbardosh, boy inson kapitaliga ega bo‘ladi.

Oila, ta‘lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to‘g‘risida bilimlar shakllanadi, ularni o‘rganish, saqlash, targ‘ib qilish, o‘rgatish orqali milliy fazilatlarining avloddan-avlodga bezavol o‘tib borishi ta‘minlanadi.

Konsepsiyaning amalga oshirilishi jamiyatda ma‘naviy-axloqiy muhitning sog‘lom va barqaror bo‘lishiga salmoqli hissa qo‘shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. –Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi [xalq merosi nashriyoti](#), 1993 y “Axloq-odobga oid hadis namunalari”. T., “Fan”, 1999 y,
2. Asqar Munavvarov. “Oila pedagogikasi”, Toshkent, “O‘zbekiston”, 1994 y, 112-bet.
3. Inomova M. “Farzand – nihol, ota-ona - bog‘bon”. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1983 y, 56-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori” Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”03.01.2020
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
6. [www.avlony-library.connect.uz](http://www.avlony-library.connect.uz)
7. <http://wsrjournal.com/index.php/new/issue/view/46>

## UYUSHMAGAN YOSHLARLAR BILAN ISHLASHNING MA'NAVIY- MA'RIFIY JIHATLARI

*Barakayev Lazizxon*

*Ma'naviyat asoslari mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

*“Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlarlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir”*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uyushmagan yoshlarlar bilan ishlashning ma'naviy- ma'rifiy jihatlari, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiya ishning asosiy yo'nalishlari, Yoshlarlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limining asosiy vazifalari haqida fikr va mulohazalar yuriilgan.

**Kalit so'zlari:** sog'lom turmush tarzi, ishsizlik, yangilik, islohot, ma'naviyat, ma'rifat, mavkuraviy immunitet.

Yoshlarlar bilan ishlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ularni barkamol voyaga etkazish, hayotda munosib o'rin olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, yoshlarlarimiz orasida foydali mashg'ulotlar bilan band bo'lmagan, ishsizlik yoxud turli sabablar tufayli zararli illatlarni odat qilgan, hatto, jinoyat ko'chasiga kirib qolayotganlar ham afsuski topiladi. Bu boradagi muammolarni hal etish maqsadida samarali mexanizmlarning hayotimizga tatbiq etilayotgani kelajagimiz vorislari, ayniqsa uyushmagan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlar jarayonida ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Har bir yoshlar jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xususan, "Kamolot" yoshlarlar ijtimoiy harakati negizida O'zbekiston yoshlarlar ittifoqi tashkil etildi. Yoshlarlar bilan ishlashda yangi tizim va yondashuvlar amaliyotga joriy etilmoqda. Mamlakatimizda 30-iyun Yoshlarlar kuni sifatida birinchi marta keng nishonlandi.

### **Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiya ishning asosiy yo'nalishlari:**

– yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida, mustaqil O'zbekiston Respublikasining xaqiqiy fuqarolari etib shakllantirish;

– Vatan oldidagi fuqarolik va farzandlik vazifalarini sidqidildan bajarishga tayyorlash;

– yoshlarlarda kasb xunarni mukammal egallash mas'uliyatni oshirish;

– yoshlarning shaxs sifatidagi, o‘ziga xos individual fazilatlarni shakllantirish va takomillashtirish;

– yoshlarni ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, o‘qishga va kasbga bo‘lgan hurmat va ijtimoiy mas’ullik hissini keng targ‘ib qilish;

– yoshlar ijtimoiy-siyosiy va huquqiy ongini rivojlantirish, ularda tanqidiy va taxliliy fikrlash ko‘nikmalarni kengaytirish;

– yoshlar yoshlarga salbiy illatlar: adolatsizlik, ta‘magirlik, mahalliychilikning salbiy oqibatlarini anglatish;

– yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqishlari asosida ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish;

– manzillashgan ma‘naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni takomillashtirib borish.

**Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limining asosiy vazifalari:**

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yoshlar orasida keng targ‘ib etish;

- yoshlar orasida axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, badiiy tarbiyani shakllantirish ishlarini yo‘lga qo‘yish;

- milliy urf-odatlar, qadriyatlarni targ‘ibotiga bag‘ishlangan anjumanlar, davra suxbatlari va uchrashuvlarni tashkil etish;

- yoshlarning ma‘naviy va jismoniy kamolotini yuksaltirish ishlarini takomillashtirishga ko‘maklashish;

- universitetda ma‘naviy, ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, bu borada zarur me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirilishini ta‘minlash;

- diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash borasida yoshlar orasida mafkuraviy immunitetni qaror toptirish;

- yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste‘dodini yuzaga chiqarishga ko‘maklashish

- yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

- yoshlar ma‘naviyatini oshirish, ular orasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish;

- yoshlar qizlarni kasb-hunarlar egallashlariga ko‘maklashish ishlarini tizimli tashkil etish;

- Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining shahar, tuman bo‘limlari hamda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan jamg‘armalar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni takomillashtirishda faol ishtirok etishdan iborat.

Yoshlar-yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularning ruhiy-estetik dunyo qarashini kengaytirish, tafakkurini

yuksaltirish, yoshlarlar dunyo qarashiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har xil "ommaviy madaniyat" xurujlaridan avaylab-asrash, ularni bu yo'llardan qaytarish, va mustaqil O'zbekistonning haqiqiy fidoyisi bo'lib kamol topishini shakllantirishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar».T.:»O'zbekiston»,
2. «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. T.
3. «Milliy g'oya targ'iboti va manaviy-marifiy ishlar samoradorligini oshirish to'g'risida»gi o'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" 26.01.2022
5. [www.zieyonet .uz](http://www.zieyonet.uz)
6. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

**YOSHLARNING BO'SH VAQTINI TASHKIL ETISHDA MADANIY-  
MA'RIFIY MUASSASALARNING O'RNI**

*G'afforov Rifat Baxtiyor o'g'li*

*Ma'naviyat asoslari mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

**Kalit so'zlar:** madaniy-ma'rifiy soha, 5 ta muhim tashabbus, musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr, san'at, sport, kompyuter texnologiyalari, kitobxonlik.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus va shu doirada bajarilayotgan ishlar, islohotlar haqida fikr va kelgusidagi maqsadlar haqida ma'lumot berilgan.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari, 312 ta musiqa va san'at maktablariga atigi 130 ming nafar o'g'il-qiz qamrab olingani, ushbu muassasalarning aksariyati o'quv qo'llanmalari, notalar to'plami, musiqa asboblari, mebel va jihozlar bilan yetarli darajada ta'minlanmagani ko'rsatib o'tildi.

Davlatimiz rahbari joylardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasi va ulardan foydalanish holatini o'rganib, ularning faoliyatini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berdi.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil qilish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda,

madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va “Yoshlar klublari” tashkil qilish zarurligi ta’kidlandi.

Ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qilinar ekan, mamlakatimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emasligi qayd etildi.

Yoshlarda bolalik chog‘idan kitobga mehr uyg‘otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo‘llarida mustahkam zamin bo‘ladi.

Lekin ko‘plab qishloq va mahallalarda buning uchun zarur sharoit mavjud emas. Ilgarigi kutubxonalar o‘rnida tashkil etilgan “Axborot-resurs markazlari” o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmadi.

Shu holatlarni hisobga olib, yangi tashabbus doirasida yoshlar sonidan kelib chiqqan holda joylarga qo‘shimcha kitoblar yetkazib berish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari mutasaddi vazirlik va uyushmalarga “Kitob karvoni” loyihasi doirasida badiiy, ma’rifiy, ijtimoiy mavzularda kitoblar chop etish hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxadan kam bo‘lmagan miqdorda yetkazib berish bo‘yicha topshiriq berdi.

Yig‘ilishda xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalalari ham muhokama qilindi. Shu maqsadda 2019-2020 yillarda barcha tumanlarda sendvich-panellardan 195 ta tikuv-trikotaj korxonalarini qurish belgilangan. Ularni qurish uchun aholi zich yashaydigan, mehnat resurslari ko‘p joylar tanlab olingan. Bu korxonalarni tashkil etish natijasida xotin-qizlar uchun 24 mingdan ortiq doimiy ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar». T.: «O‘zbekiston», «Milliy g‘oya targ‘iboti va manaviy-marifiy ishlar samoradorligini oshirish to‘g‘risida»gi o‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” 26.01.2022
3. «Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. T.
4. [www.zieyonet .uz](http://www.zieyonet.uz)
5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)



**TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA**

<b>№</b>	<b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi</b>	<b>Page / Страница / Sahifa</b>
<b>1</b>	GIMNASTIKA VOSITALARINI QO'LLAGAN HOLDA MAHALLALARDA WORK OUT MAYDONCHASIDA JISMONIY TARBIYA MASHGULOTLARINI TASKIL ETISH USULLARI	<b>3</b>
<b>2</b>	AGGRESSIVE AS A CHARACTER TRAIT AND PERSONALITY PROPERTY	<b>6</b>
<b>3</b>	KATTA FARG'ONA KANALI ALGOFLORASINING TAKSONOMIK TAHLILI	<b>10</b>
<b>4</b>	ТОКНИНГ УСИМЛИГИНИНГ ФОМОПСИС ДОГЛАНИШИ	<b>12</b>
<b>5</b>	ТОШЛОК ТУМАНИ ШАРОИТИДА ДЕНТРОФАГ ШИРАЛАР ФАУНАСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ (УСИМЛИК ШИРАЛАРИ)	<b>14</b>
<b>6</b>	CHIGITLI PAHTANI TOZALASH JARAYONIDA NAMLIK TASIRIDA SIFAT KO'RSATKICHLARINI O'ZGARISHI	<b>17</b>
<b>7</b>	KIMYONING BIOLOGIYA FANLARI BILAN INTEGRATSIYASI	<b>21</b>
<b>8</b>	JANUBIY KOREYA TA'LIM TIZIMI	<b>29</b>
<b>9</b>	YAPONIYA TA'LIM TIZIMI	<b>34</b>
<b>10</b>	ARAB DAVLATLARIDA TA'LIM TIZIMI	<b>39</b>
<b>11</b>	ҚОВУН, ТАРВУЗ ҲОСИЛДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ҚЎЛЛАНИЛГАН УРУҒДОРИЛАГИЧЛАРНИ, МЕВАЛАРНИ ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРИГА ТАЪСИРИ	<b>43</b>
<b>12</b>	O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHIT: MUAMMO VA YECHIMLAR	<b>47</b>
<b>13</b>	“QALQONSIMON BEZ FAOLIYATINI BUZILISHI TUFAYLI KELIB CHIQUADIGAN KASALLIKLAR”	<b>54</b>
<b>14</b>	TA'LIM RUS TILIDA OLIB BORILADIGAN BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER METODINING AHAMIYATI	<b>57</b>
<b>15</b>	KORXONA BOSHQARUVIDA YORDAM BERUVCHI KPI VA INVENTARIZATSIYA TIZIMLARINING ALGARITMLARI	<b>63</b>
<b>16</b>	KORXONA MA'LUMOTLARINI XAFSIZLIGNI TAMINLASH YO'LLARI VA VOSITALARI	<b>66</b>
<b>17</b>	O'ZBEK TILIDAGI SAVDO-SOTIQQA OID LEKSIMALARGA SOTSIOLOGIYALIK YONDASHUV	<b>70</b>
<b>18</b>	O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASHDA INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	<b>73</b>
<b>19</b>	BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING EKOLOGIYA SOHASIGA OID IXTISOSLASHGAN MUASSASALARNING EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL QILISHDAGI AHAMIYATI	<b>76</b>
<b>20</b>	PROBLEMS OF CYBERCRIME INVESTIGATION IN UZBEKISTAN	<b>81</b>

<b>21</b>	SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA XO'RAKI KO'K NO'XAT NAV VA NA'MUNALARIDAN ENG YAXSHI BOSHLANG'ICH MATERIALNI TANLASH	<b>91</b>
<b>22</b>	ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАРНИНГ МЕТОДИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МОБИЛ ТЕХНОЛОГИЯ ИЛОВАЛАРНИ ЯРАТИШ УСУЛЛАРИ	<b>96</b>
<b>23</b>	MOBIL TEXNOLOGIYALARDAN MUHANDISLIK MASALALARINI O'RGANISHDA FOYDALANISH AFZALLIKLARI	<b>100</b>
<b>24</b>	DALTONIZM-QANDAY KASALLIK	<b>104</b>
<b>25</b>	СИНТЕЗ И ИЗУЧЕНИЯ СВОЙСТВ АЗОТ, СЕРА И КИСЛОРОД СОДЕРЖАЩИХ ГЕТЕРОЦИКЛИЧЕСКИХ СОЕДИНЕНИЙ	<b>108</b>
<b>26</b>	HOW TO IMPROVE READING	<b>113</b>
<b>27</b>	HOW TO IMPROVE READING	<b>115</b>
<b>28</b>	DESIGNING EDUCATIONAL GAMES AND THEIR BENEFITS	<b>117</b>
<b>29</b>	EDUCATIONAL GAMES FOR TEENAGERS IN TEACHING ENGLISH	<b>120</b>
<b>30</b>	MODERN TECHNOLOGIES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN SECONDARY SCHOOL	<b>123</b>
<b>31</b>	TEACHING LISTENING SKILLS TO YOUNG LEARNERS	<b>126</b>
<b>32</b>	GAME TECHNOLOGY IN THE PERSONAL DEVELOPMENT	<b>130</b>
<b>33</b>	KURSANTLARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR	<b>132</b>
<b>34</b>	SHISHA FASAD BILAN QOPLANGAN KO'P QAVATLI BINOLARNING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH	<b>145</b>
<b>35</b>	THE USE OF BLOCKCHAIN TECHNOLOGY IN IMPROVING THE PROCESS OF INFORMATION EXCHANGE IN THE TAX FIELD	<b>151</b>
<b>36</b>	BUYRAK USTI BEZI	<b>158</b>
<b>37</b>	MADANIYATNI SHAKLLATIRISHDA TILLARNING O'RNI	<b>160</b>
<b>38</b>	A.FITRATNING "OILA VA OILANI BOSHQARISH TARTIBLARI" ASARINING "UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSEPSIYASI" DA TUTGAN O'RNI	<b>167</b>
<b>39</b>	UYUSHMAGAN YOSHLARLAR BILAN ISHLASHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY JIHATLARI	<b>170</b>
<b>40</b>	YOSHLARNING BO'SH VAQTINI TASHKIL ETISHDA MADANIY-MA'RIFIY MUASSASALARNING O'RNI	<b>173</b>



**JOURNAL OF  
NEW CENTRY  
INNOVATIONS**

**IN ALL AREAS**

